Ключевые слова: суд, решение суда, виды производства по гражданским делам, исковое производство, судебный приказ, особое производство, третейский суд, суды иностранных государств, иностранные третейские (арбитражные) суды

THE CONCEPT OF TYPES OF CIVIL PROCEEDINGS AND SOME SOME CONSIDERATIONS ON THEIR IMPROVEMENT

Khabibullaev Davlatjon Yulchiboyevich,
Head of the Department of Civil Procedure
and Economic Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law, Professor

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the problems of improving the concept, types, and forms of civil proceedings. In particular, the views of legal scholars on the concept of types of civil proceedings are considered and analyzed. In addition, the procedure for considering and resolving cases related to various types of civil proceedings, including order proceedings, claim proceedings, proceedings in cases of special proceedings, as well as the recognition and enforcement of decisions of foreign courts and foreign arbitration courts, including decisions of foreign arbitration courts, has been studied. In the article, the opinions of domestic and foreign legal scholars are analyzed from a scientific and theoretical point of view, and the norms of civil procedural legislation of foreign countries are comparatively studied. Based on the analysis conducted, scientific and theoretical conclusions, proposals, and recommendations were formulated.

Keywords: court, decision, types of civil proceedings, claim proceedings, court order, special proceedings, arbitration court, foreign courts, foreign arbitration courts

Kirish

Mustaqil O'zbekiston sud-huquq tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri fuqarolik protsessual huquqi sohasida sud ishlarini yuritish turlarini aniq belgilash, ularning huquqiy asoslari va amaliyotda qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish masalasidir. Bugungi kunda mamlakatimizda sud hokimiyati faoliyatida ochiqlik, tezkorlik va adolat tamoyillarini to'liq joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda fuqarolik sud ishlarini yuritish turlarini ilmiy-nazariy asosda aniqlashtirish va ularning huquqiy maqomini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining amal-dagi Fuqarolik protsessual kodeksi 1-moddasining ikkinchi qismida fuqarolik sud ishlarini yuritishning quyidagi turlari belgilangan: buyruq tartibidagi ishlar, da'vo tartibidagi ishlar, alohida tartibda yuritiladigan ishlar, hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari bilan bog'liq ishlar, shuningdek, chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlar. Ushbu turlarning huquqiy mohiyati, farqli jihatlarini aniqlash va xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyoslash orqali yanada takomillashtirish bugungi davr

sud-huquq islohotlarining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi huquq tizimida fuqarolik sud ishlarini yuritish turlarini izchil takomillashtirish, ular o'rtasidagi konseptual chegaralarni belgilash va sud amaliyotiga samarali tatbiq etilishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy asoslarni ishlab chiqishdan iborat. Natijada taklif etilgan nazariy qarashlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish, milliy protsessual qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqotda yuridik fanlar bo'yicha ilmiy metodlar: tizimli-huquqiy tahlil, qiyoslash, qiyosiy-huquqiy, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

Asosiy qism

Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari haqida so'z yuritishdan oldin fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari tushunchasini tahlil qilib chiqamiz.

Fuqarolik protsessining turlari tushunchasi fanga birinchi bo'lib huquqshunos olim D.M. Chechot (2009) tomonidan kiritilgan. Uning fikriga ko'ra, qonunda nazarda tutilgan tartib va fuqarolik ishlarini birinchi instansiya sudida muayyan turlarga birlashtirish ushbu tasnifga kiritilgan ishlarning moddiy-huquqiy xususiyati bilan belgilanadi va mustaqil ish yuritishning bunday vositalari, ishtirokchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabi usullari, shuningdek, bundan kelib chiqadigan sud jarayonining xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ish yuritish turlarini belgilash tarafdori A.A. Melnikovning (1981) so'zlariga ko'ra, fuqarolik protsessi turlarining tushunchasi va mohiyati protsessual fanda hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Fuqarolik protsessiga oid ayrim darsliklarda Fuqarolik protsessual kodeksi bilan cheklangan fuqarolik protsessining turlari haqida hech narsa deyilmagan. Keng

ma'noda, har bir protsessga kiruvchi ishlar sanab o'tiladi va fuqarolik sud ishlarini yuritish uch turga bo'linadi, deyiladi.

P.F. Yeliseykin ham fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari tushunchasini belgilashda aniq fikrda emas, uni fuqarolik ishlari toifasi bilan aralashtirib yuboradi (Eliseykin, 2014). Uning fikricha, har bir fuqarolik ishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yuqorida qayd etilgan huquqshunos olimlarning fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari tushunchasining aniq ta'rifi ishlab chiqilmagan va ushbu tushunchani aniqlashtirish mezonlari munozarali hisoblanadi. Fuqarolik sud ishlarini yuritishning turlarga bo'linishi haqida ham olimlar turlicha fikr bildiradilar. Aksariyat mualliflar bunday bo'linishni qo'llab-quvvatlab, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlarini farqlash mezonlarini aniqlashga harakat qiladilar.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlarini farqlovchi taraflarning fikricha, bunday bo'linish qonun talablariga mos keladi, fuqarolik sud ishlarini yuritishda uni da'vo tartibida, alohida tartibda, buyruq tartibida va hokazo turlarga ajratish tushunarli (Melnikov, 1981). Bunday fikrga qo'shilish qiyin. Birinchidan, ilmiy tadqiqotning qonuniy nuqtayi nazari muammoga faqat bir tomonlama qarashdir, shuning uchun har qanday ilmiy qarashni qonunga zid deb ko'rsatish ishonchli emas. Ikkinchidan, fuqarolik ishlarining uch turi o'zining moddiy-huquqiy mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qilishi munozarali hisoblanadi.

Boshqa mualliflar fuqarolik sud ishlarini yuritishning turlarga bo'linishini tanqid qiladilar.

I.A. Jeruolis (2009) fuqarolik sudlarida ish yuritish turlarini ajratish mezonlarini tanqid qilib, moddiy-huquqiy munosabatlar fuqarolik ishlarini turlarga ajratish mezonini bo'la olmasligini ta'kidlaydi.

Ushbu fikrga qo'shilgan holda aytish mumkinki, qonun bo'yicha muayyan ishlarni sud ishlarini yuritishning alohida turlariga ajratishda nafaqat moddiy-huquqiy jihatlar-

ga, balki protsessual-huquqiy jihatlariga ham e'tibor qaratish lozim. Qonunda muayyan ishlarni alohida sud ishlarini yuritish turlariga ajratish zarurligi to'g'risidagi masalani hal qilish uchun qo'llanadigan mezonlarga kelsak, ularning mazmuni va shartlarini aniq belgilash zarur. Shunga ko'ra, qonun chiqaruvchining vazifasi fuqarolik ishlarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sud ishlarini yuritishning har xil turlari obyektiv ravishda belgilanishini va ular uchun tegishli toifadagi ishlarni hal qilish maqbulligini aniqlashdan iborat.

Huquqshunos olimlarning fikrlariga ko'ra, fuqarolik protsessini turlarga ajratish g'oyasiga qarshi fikr fuqarolik protsessining rivojlanish tarixi bilan ham tasdiqlanadi. XX asrning o'rtalarigacha fuqarolik protsessining turlari bo'lmagan. Fuqarolik ishlarini alohida tartibda ko'rib chiqish bosqichmabosqich amalga oshirilishi maxsus adabiyotlarda izohlangan bo'lsa-da, bunday tasniflash nazariy jihatdan asosizdir.

1961–1964-yillarda fuqarolik protsessual qonunchilik kodifikatsiya qilinib, SSSR va ittifoqdosh respublikalarning fuqarolik protsessual asoslari va O'zbekiston SSRning Fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilinishi bilan fuqarolik sud ishlarini yuritish uch turga bo'linadigan bo'ldi: da'vo tartibida ish yuritish; ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha ish yuritish; alohida tartibda ish yuritish.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yildagi Fuqarolik protsessual kodeksida fuqarolik sudida ish yuritishning quyidagi turlari nazarda tutilgan: buyruq tartibidagi ishlar, da'vo tartibidagi ishlar, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha ish yuritish. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan Fuqarolik protsessual kodeksidan (2016-y.) ommaviy-huquqiy tusdagi ishlarni ko'rib chiqish turi chiqarib tashlandi.

2018-yil 22-yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi 1-moddasining ikkinchi qismida fuqarolik sudida ish yuritishning quyidagi turlari belgilangan: buyruq tartibidagi ishlar, da'vo tartibidagi ishlar, alohida tartibda yuritiladigan ishlar, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlar, chet davlat sudlari va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish hamda hal etish tartibi.

Shu nuqtayi nazardan, boshqa davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligi, jumladan, Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik protsessual kodeksini o'rganadigan bo'lsak, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari yagona normada alohida sanab o'tilmagan, balki ushbu kodeksning tegishli bo'lim va boblarida o'z aksini topgan. Bular buyruq tartibida ish yuritish (1-bo'lim), da'vo tartibida ish yuritish (2-kichik bo'lim), alohida tartibda ish yuritish (4-kichik bo'lim), chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlar bo'yicha ish yuritish (5-bo'lim, mazkur bo'limda chet el sudlarining va chet el hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liq ishlar (45-bob), xorijiy davlat ishtirokida ishlar bo'yicha ish yuritish (45.1-bob), hakamlik sudlari ustidan yordam ko'rsatish va nazorat funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ishlar bo'yicha ish yuritish (ushbu bo'limning 6-bo'limi – hakamlik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish (46-bob), hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ishlarni yuritish (47-bob), sudlarning hakamlik sudlariga nisbatan yordam ko'rsatish funksiyalarini bajarishi bilan bog'liq ishlar bo'yicha ish yuritishdir (47.1-bob) (Russian Federation, 2018).

Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida ham bu to'g'risida quyidagilar keltirilgan: da'vo tartibidagi ishlar (2-bo'lim), alohida tartibda ish yuritish

(4-kichik bo'lim), buyruq tartibidagi ishlar (23-bob), xorijiy shaxslar ishtirokida ish yuritish (4-bo'lim), alohida tartibda ko'riladigan ishlar (Republic of Azerbaijan, 1999).

Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida fuqarolik sud ishlarini yuritishning buyruq tartibidagi ishlar, da'vo tartibidagi ishlar, alohida tartibda ko'riladigan ishlar kabi turlari ko'rsatib o'tilgan (Republic of Kazakhstan, 2015).

Belarus Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida sud ishlarini yuritish turlari haqida 3- va 8- moddasida batafsil ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, FPKning 3-moddasida fuqarolik sud ishlarini yuritish turlariga da'vo tartibidagi ishlar, ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar, alohida tartibda ish yuritish, buyruq tartibida ish yuritish, shuningdek, sud qarorlari, hal qiluv qarorlari va boshqa hujjatlarni ijro etish bilan bog'liq boshqa ishlar va ish yuritish tartibi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Belarus Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 8-moddasi "Fuqarolik ish yuritish turlari" deb nomlanib, ushbu normada fuqarolik protsessual qonun hujjatlarini quyidagi ish yuritish turlarini nazarda tutadi: da'vo; ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar, alohida tartibda ish yuritish, buyruq tartibida ish yuritish, ushbu kodeks va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ish yuritish turlari (Republic of Belarus, 2024).

Yuqoridagi xorijiy davlatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil etib, fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari deyarli o'xshash ekanligi haqida xulosaga kelish mumkin.

Buyruq tartibidagi ishlar. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan mamlakatimizning birinchi Fuqarolik protsessual kodeksiga "Buyruq tartibida ish yuritish" deb nomlangan 20¹-bob kiritildi. Huquqshunos olim Sh.Sh. Shorahmetovning (2007)

so'zlariga ko'ra, ayrim toifadagi ishlar bo'yicha sud amaliyotini umumlashtirish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, bir qator fuqarolik ishlari bo'yicha taraflar o'rtasida nizo bo'lmasa ham, javobgar da'voni tan olsa ham, fuqarolik ishlari sudda ish qo'zg'atish va protsessual qonunlarda ko'rsatilgan qoidalarini qo'llash talablariga rioya qilgan holda ko'rib chiqilishi kerak. Ayrim turdagi fuqarolik ishlarini sud buyrig'i tartibida ko'rish arizani ish qo'zg'atmasdan, manfaatdor shaxslarning qonunda belgilangan protsessual huquqlarini buzmaganda hal qilishga qaratilgan. Shu boisdan ham fuqarolik ishlarini ko'rib hal etishning bu tartibi ish ko'rishni osonlashtirish bilan bir qatorda shaxslarning qonuniy huquqlarining buzilmasligiga ham qaratilgan. Huquqshunos olim M.M. Mamasiddiqovning (2007) fikricha, mazkur institutning mamlakatimiz fuqarolik protsessual qonunchiligiga kiritilishi sud amaliyotida samarali tarzda qo'llanib kelmoqda.

Haqiqatan ham, sud buyrug'i institutining joriy etilishi hozirgi davr talabiga mos kelganligi va fuqarolik ishlarini tezda hal etishda o'zining ijobiy jihatlari bilan umumiy tartibda ish yuritishdan farq qilishi sababli, bu ish yuritish turini fuqarolik ishlarini sudda ko'rib hal etishga ham tatbiq qilish maqsadga muvofiq ekanligi haqida amaliyot o'zining ijobiy xulosasini bermoqda. Shuning uchun ham buyruq tartibida ish yuritish 2018-yil 1-apreldan kuchga kirgan Fuqarolik protsessual kodeksining 18-bobida ham o'z ifodasini topgan.

Fuqarolarning huquqlarini sud orqali himoya qilish buyruq tartibida ish yuritish institutining joriy etilishi ishlarni qisqa muddatlarda hal etilishida, ortiqcha xarajatlarni oldini olishda, sudyalarning ish yuklamalarining kamayishida hamda ish sifatining yanada yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyruq tartibida ish yuritish institutining amalga kiritilishi munosabati bilan nizosiz huquqlarning fuqarolik ishini qo'zg'at-

masdan, ishni sudda mazmunan ko'rmasdan hal qilinishiga erishilmoqda.

Huquqni qo'llash amaliyoti xodimlari ham mazkur institutning ahamiyati haqida to'xtalib, "muqaddam undiruvchining pul mablag'larini undirish to'g'risidagi yoki ko'char mulkni nizosiz talablar bo'yicha qarzdordan talab qilib olish to'g'risidagi arizalar bo'yicha ham fuqarolik ishi yuritilganligini, har ikkala taraf sud majlisiga chaqirilib ish hal qilinganligini, endilikda qonun qabul qilingach, mazkur toifadagi arizalar bo'yicha sudya ishni ko'rmasdan sud buyrug'i chiqarish vakolatiga ega bo'lganligini, bu o'z navbatida, fuqarolar o'rtasidagi nizoli bo'lmagan fuqarolik munosabatlarini ortiqcha sansalorliklarsiz tartibga solish imkoniyatini yaratgan"ligini ta'kidlaganlar (Yodgorov, 2003).

Fuqarolik protsessual qonunchiligini yanada takomillashtirish va buyruq tartibida ish yuritish doirasini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustdagi Fuqarolik protsessual kodeksiga turli vaqtlarda kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan sud buyrug'ini chiqarish bo'yicha talablar ro'yxati kengaytirilib, jami 5 tani tashkil etgan edi.

Mamlakatimizning yangi qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksida sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi talablar ro'yxati yanada kengaytirilib, ijara shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lanmagan ijara to'lovlari undirish to'g'risidagi talab, shuningdek, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari a'zolaridan majburiy badallar va to'lovlarni undirish to'g'risidagi talab, yozma shartnoma mavjud bo'lgan taqdirda esa undiruvni qarzdorning majburiyatlari bajarilishining ta'minoti bo'lgan ko'char mulkka qaratish to'g'risidagi talablar kiritildi (FPKning 171-moddasi).

M.M. Mamasiddiqovning fikricha, sud buyruqlari sud qarorlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi (Mamasiddiqov & Mirzayev, 2008):

– birinchidan, sud buyrug'i ishni mazmunan ko'rmasdan, mavjud yozma hujjatlar asosida chiqariladi. Bunda sudya guvohlarning ko'rsatuvlarini ekspertlarning xulosalarini tekshirmaydi, taraflarning tushuntirishlari va uchinchi shaxslarning bayonotlarini eshitmaydi;

– ikkinchidan, sud buyrug'ini chiqarish uchun bir qator shartlar talab etiladi. Birinchi shart shundan iboratki, undiruvchi sud buyrug'ini berish to'g'risidagi ariza bilan birga qarzdorning majburiyatlarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi kerak. Ikkinchi shart – taqdim etilgan hujjatlar ishning mohiyatini to'liq aks ettirishi kerak. Uchinchi shart – nizo yo'qligi;

– uchinchidan, sud buyrug'i faqat qonunda belgilangan asoslar (FPKning 171-moddasi) mavjud bo'lgandagina chiqariladi. Sud buyrug'i nizosiz talablar yuzasidan chiqarilib, qonunda belgilanmagan asoslar yuzasidan chiqarilishi mumkin emas;

– to'rtinchidan, buyruq tartibida ish yuritish jarayonida taraflar sifatida undiruvchi va qarzdor e'tirof etiladi;

– beshinchidan, sud buyrug'i ijro hujjati kuchiga ega bo'lib, sud hujjatlarini ijro etish uchun qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Da'vo tartibida ko'riladigan ishlarning o'ziga xos jihati shuki, ushbu ishlarda huquq to'g'risida nizo bo'ladi. Sudda da'vo ishlari yuritilishi da'vo talabini qo'zg'atish paytidan e'tiboran boshlanadi. Buzilgan yoki nizolashilayotgan fuqarolik huquqini himoya qilish to'g'risidagi talab sifatida ko'riladigan da'vo sudda ish ko'rishning predmeti bo'lib, da'voning dalillar asosida isbotlanishiga qarab sud tomonidan qanoatlantiriladi yoki rad qilinadi.

Shuningdek, da'vo tartibidagi ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, taraflar o'zaro teng bo'lgan fuqarolik, mehnat, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlarga doir nizolar bo'yicha buzilgan huquq yoki qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun sudga murojaat qiladilar.

Bu turdagi fuqarolik ishlarida manfaatdor shaxsning da'vo arizasi yagona asos bo'lib hisoblanadi. "Da'vo" asli arabcha so'z bo'lib, o'z haq-huquqlarini himoya etish haqida sud orqali yoki boshqa yo'llar bilan qo'yilgan talabdir (Shorahmetov, 2001).

Yuridik adabiyotlarda da'vo tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Da'vo – bu nizoli huquqiy munosabatda ishtirok etuvchi taraflar o'rtasidagi huquq to'g'risidagi nizoni protsessual tartibda ko'rib, hal qilib berish to'g'risidagi da'vogarning sudga qilgan talabidir" (Egamberdiyev, 1997).

Da'vo tartibida ko'riladigan ishlar o'zining quyidagi xususiyatlari bilan boshqa turdagi fuqarolik ishlarini yuritishdan farqlanadi (TSUL, 2020):

- mazkur toifadagi ishlarida da'vogar va javobgar hamda ayrim hollarda uchinchi shaxslar ham ishtirok etadi;

- taraflar fuqarolik ishini o'zaro kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish orqali tugatishga erishishlari mumkin bo'ladi;

- fuqarolik protsessining muhim institutlari: da'vodan voz kechish, da'voni tan olish, da'voni ta'minlash, qarshi da'vo qo'zg'atish kabilar aynan mazkur sud ishlarini yuritish jarayonida qo'llanadi;

- da'vo tartibida ko'riladigan ishlar bo'yicha sirtidan hal qiluv qarori chiqarish mumkin va h.k.

Alohida tartibda ko'riladigan ishlar. Alohida tartibda ish yuritish ham fuqarolik sud ishlarini yuritish turi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yuridik adabiyotlarda alohida tartibda yuritiladigan ishlarida hal etiladigan masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, Sh.Sh. Shoraxmetovning aytishicha, "alohida tartibda ko'riladigan ishlarida huquq haqida nizo bo'lmaydi, shu belgisi bilan u da'vo ishlarini yuritishdan farq qiladi. Alohida tartibda ish yuritishdan maqsad fuqarolarning biron-bir huquqlari vujudga kelganligi, o'zgarganligi yoki bekor bo'lganligini, ya'ni yuridik faktlarning mavjudligi yoki ularning yo'qligini aniqlashdan iborat bo'ladi" (Shoraxmetov, 2010).

E. Egamberdiyevning fikricha, alohida tartibda ko'rib hal qilinadigan ishlarida sud hech qanday huquq to'g'risidagi masalani hal qilmaydi (Egamberdiyev, 1997). Uning fikriga ko'ra, alohida tartibda ko'rib hal qilinadigan ishlarida taraflar bo'lmaydi. Bunday ishlarida sud shaxslarning buzilgan subyektiv huquqlarini emas, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi. Bunday ishlarida manfaatdor shaxs ham qatnashadi (Egamberdiyev, 2018).

M.M. Mamasiddiqov (2007) esa: "Alohida tartibda ko'riladigan ishlar shunday fuqarolik ishlaridirki, bular yuzasidan huquq to'g'risidagi nizo bo'lmaydi, arizachi sudga faqat o'z muddaosini bildiradi. Bu turkum ishlarida ishtirok etuvchi shaxslar arizachilar va boshqa manfaatdor shaxslar hisoblanadilar va alohida tartibda ko'riladigan ishlar huquq to'g'risidagi nizoni hal etish bilan bog'liq bo'lmaydi", – deydi.

Z.N. Esanova (2022) "Alohida tartibda ish yuritishning xususiyatlari – nizosiz va alohida xususiyat kasb etgan ishlar yuzasidan sudga murojaat qilinishi, arizachi va manfaatdor shaxslar ishtirok etishi, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash vakolati berilgani, ishni muhokama qilish vaqtida sudga taalluqli nizo kelib chiqsa, arizani ko'rmasdan qoldirilishi va bunday holatda da'vo tartibida murojaat qilish imkoniyati belgilanganligi", – deb ta'kidlab o'tadi.

Yuqoridagi huquqshunos olimlarning fikrlariga qo'shimcha qilib, shuni aytish mumkinki, alohida tartibda sud ishlarini yuritish uchun tegishli fuqarolik ishlarida huquq to'g'risidagi nizoning mavjud emasligi va buning oqibatida taraflar bo'lmasligi, kelishuv bitimi tuzilmasligi, qarshi da'vo berilmasligi bu turdagi sud ishlarini yuritishni fuqarolik jarayoni huquqiga oid sud ishlarini yuritishning mustaqil turi deb hisoblashga asos bo'ladi.

Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish. Ushbu ish yuritish turi ham yangi qabul qilingan

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasida alohida qayd etib o'tildi. O'zbekiston Respublikasi FPKning 346-moddasiga ko'ra, fuqarolik ishlari bo'yicha sud tomonidan ko'rib chiqiladigan, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog'liq ishlar jumlasiga:

1) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi;

2) hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish haqidagi arizalar bo'yicha ishlar kiradi.

Bu borada huquqshunos olim A. Haqberdiyev (2023) o'z fikrini bildirib, hakamlik sudlari va vakolatli sudlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy yo'nalishlari vakolatli yoki hakamlik sudlarida ishlarni ko'rib chiqishda yurisdiksiyadagi o'zgarishlar; da'voni ta'minlash yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi arizalarni ko'rish; hakamlik sudi hal qiluv qarorlari yuzasidan nizolashish haqidagi arizalarni ko'rib chiqish; hakamlik sudi hal qiluv qarorini majburiy ijroga qarataish uchun ijro varaqasini berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish kirishini ta'kidlaydi.

Ish yuritishning ushbu turi uchun sudlar ushbu ishlarni FPKning fuqarolik sud ishlari yuritishning umumiy qoidalariga muvofiq 38–40-boblarda ko'rsatilgan istisnalar va qo'shimchalar bilan birga ko'rib chiqadi.

Ushbu turdagi ish yuritish bo'yicha sudda ko'rilayotgan ishlar soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Bu borada sud statistikasini o'rganadigan bo'lsak, 2021-yilda respublikada hakamlik sudining hal qiluv qarorlarini bekor qilish bilan bog'liq 43 ta fuqarolik ishi tamomlanib, shundan 25 tasi qanoatlantirilgan, 15 tasi rad etilgan, 3 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 2022-yilda 51 ta ish tamomlanib, shundan 32 tasi qanoatlantirilgan, 7 tasi rad etilgan, 2 ta ish bo'yicha ish yuritish tugatilgan, 10 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 2023-yilda 42 ta ish tamomlanib, shundan 30 tasi qanoatlantirilgan, 9 tasi rad etilgan, 3 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 2024-yilda 74 ta ish tamomlanib, shundan 39 tasi qanoatlanti-

rilgan, 17 tasi rad etilgan, 16 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 2 tasi tugatilgan, 2025-yil birinchi yarmida 16 ta ish tamomlanib, shundan 8 tasi qanoatlantirilgan, 6 tasi rad etilgan, 1 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 1 tasi tugatilgan (Stat.sud.uz, 2025).

2021-yilda respublikada hakamlik sudlari qarorlarini majburiy ijro etish uchun ijro varaqalari berish bilan bog'liq 662 ta fuqarolik ishi tamomlanib, shundan 585 tasi qanoatlantirilgan, 49 tasi rad etilgan, 27 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 1 tasi tugatilgan, 2022-yilda 575 ta ish tamomlanib, shundan 501 tasi qanoatlantirilgan, 46 tasi rad etilgan, 25 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 3 ta ish bo'yicha ish yuritish tugatilgan, 2023-yilda 373 ta ish tamomlanib, shundan 319 tasi qanoatlantirilgan, 36 tasi rad etilgan, 17 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 1 tasi tugatilgan, 2024-yilda 619 ta ish tamomlanib, shundan 563 tasi qanoatlantirilgan, 33 tasi rad etilgan, 23 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 2025-yilning birinchi yarim yilligida 362 ta ish tamomlanib, shundan 332 tasi qanoatlantirilgan, 16 tasi rad etilgan, 10 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 4 ta ish bo'yicha ish yuritish tugatilgan (Stat.sud.uz, 2025).

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini ijro etish uchun ijro varaqasini berishdan manfaatdor shaxs vakolatli davlat sudiga ariza bilan murojaat qiladi. Ariza yozma shaklda tuzilishi va ariza beruvchi yoki uning vakolatli vakili tomonidan imzolaniishi lozim. Arizaning mazmuniga va unga majburiy ilovalarga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasi FPKning 355-moddasida mustahkamlangan.

Ushbu moddaning oxirgi qismida ariza belgilangan talablarga rioya etilmay sudga topshirilgan taqdirda uning huquqiy oqibatlarini belgilangan. Ya'ni hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ushbu kodeksning 354-moddasida nazarda tutilgan talablar, shuningdek, ushbu modda qoidalari buzilgan holda berilgan bo'lsa, fuqarolik ish-

lari bo'yicha sud ushbu kodeksning 194-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha bunday arizani qabul qilishni rad etishini nazarda tutadi. Shuni hisobga olish lozimki, buzilgan qoidalarni tuzatish imkoni bo'lgan taqdirda arizani murojaat muallifiga qaytarib, kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng qayta murojaat qilish huquqi berilishi lozim.

Bu boradagi ushbu tartib Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 424-moddasi 5-bandida nazarda tutilgan (Russian Federation, 2018).

Ushbu ijobiy tajribani qo'llagan holda O'zbekiston Respublikasi FPKning 355-moddasi sakkizinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish lozim:

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ushbu kodeksning 354-moddasida nazarda tutilgan talablar, shuningdek, ushbu modda qoidalari buzilgan holda berilgan bo'lsa, fuqarolik ishlari bo'yicha sud ushbu kodeksning 194-moddasi va 195-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha bunday arizani qaytarishi yoki qabul qilishni rad etishi lozim.

Bundan tashqari, "Hakamlik sudi to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasida belgilangan muddat o'tkazib yuborilgan yoki zarur hujjatlar ilova qilinmagan holda topshirilgan ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza vakolatli sud tomonidan ko'rib chiqilmasdan qaytarilishi va bu haqda ajrim chiqarilishi, mazkur ajrim ustidan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida yoki O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkinligi belgilangan. Vaholanki, ko'rib chiqilmasdan qaytarish qoidasi FPKda ham, IPKda ham mavjud emas. Shu boisdan ushbu normani "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasiga kiritish hamda ushbu moddaning to'rtinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza protsessual qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilmasdan sudga topshirilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida yoki O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan huquqiy oqibatlariga sabab bo'ladi.

Yana shuni yodda tutish kerakki, ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizani berish muddatini o'tkazib yuborish arizani qabul qilishni rad etish yoki arizani qaytarish uchun asos emas. Umumiy qoidalarga ko'ra, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish yoki ijro varaqasi berish to'g'risida ariza bergan hakamlik muhokamasi tarafi o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqiga ega.

Chet davlat sudlarining va chet davlat hakamlik sudlarining (arbitrajlarining) hal qiluv qarorlarini tan olish hamda ijroga qaratish. Mazkur ish yuritish turi yangi qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan yangi ish yuritish turi hisoblanadi. Ushbu ish yuritish turi bo'yicha huquqshunos olimi Z.N. Esanovning (2022) ta'kidlashicha, Aynan subyekt(sud)ning chet davlat sudlari (hakamlik, arbitraj) ekanligi, bunday turdagi arizani qabul qilish, arizani qaytarish, rad qilish bo'yicha alohida asoslar belgilanganligi, sud arizani ko'rib chiqishda chet davlat sudining yoki chet davlat hakamlik sudining (arbitraj) hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqishga haqli emasligi, sudga murojaat qilish va ish yuritishning chet el sudlari hal qiluv qarorlarini tan olish va ijroga qaratish bilan bog'liqligi kabi xususiyatlari mavjud.

Haqiqatan ham, ushbu ish yuritish turi o'ziga xos protsessual jihatlari bilan boshqa ish yuritish turlaridan farq qiladi. Shu boisdan ham uning alohida ish yuritish turi sifatida belgilanishi sudlar tomonidan ushbu turdagi ishlarni ko'rishda qulaylik yaratadi.

Xulosa

Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlarini ilmiy-nazariy tahlil qilgan holda ushbu nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) O'zbekiston Respublikasi FPKning 355-moddasi sakkizinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq:

Hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza ushbu kodeksning 354-moddasida nazarda tutilgan talablar, shuningdek, ushbu modda qoidalari buzilgan holda berilgan bo'lsa, fuqarolik ishlari bo'yicha sud ushbu kodeksning 194-moddasi va 195-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha bunday arizani qaytarishi yoki qabul qilishni rad etishi lozim.

2) O'zbekiston Respublikasi "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 51-moddasining to'rtinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish maqsadga muvofiq:

Ijro varaqasi berish to'g'risidagi ariza protsessual qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilmasdan sudga topshirilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida yoki O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan huquqiy oqibatlarga sabab bo'ladi.

3) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga 2020-yilda "Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlash-

malarining ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga kelmaydigan qarorlari hamda ular mansabdor shaxslarining shunday harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni yuritish" nomli 23¹-bob, 2021-yil 16-sentabrda qonun bilan "Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish" nomli 25¹-bob kiritildi. Lekin ushbu ishlarni yuritish turlari fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bo'yicha hamda ushbu boblarda belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda sud tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan. Shunday ekan, mazkur toifadagi ishlarda ishtirok etuvchi shaxslarning subyekt tarkibini protsessual xususiyatlari, sud ishlarini yuritishning protsessual mohiyati (ishning holatlarini tekshirish bo'yicha sudning mumkin bo'lgan harakatlarining xarakteri, protsessual mazmuni va chegaralari, ruxsat etilgan isbotlash vositalari), sud qarorlarining protsessual oqibatlari bilan bog'liq jiddiy farqlar mavjudligi, ularning qonuniy kuchi va ijro etish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fuqarolik sud ishlarini yuritishning mustaqil turi sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasiga kiritish maqsadga muvofiq.

REFERENCES

1. Chechot, D. M. (2009). Problemy zashchity subyektivnykh prav i interesov v poryadke vnesudebnogo proizvodstva v grazhdanskom sudoproizvodstve [Problems of protection of subjective rights and interests in the order of non-litigious proceedings in civil proceedings] (pp. 13; 31). [Abstract of Doctoral Dissertation].
2. Egamberdiyev, E. (1997). Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari [Types of civil litigation] (p. 13). Tashkent: Kamalak Publ.
3. Egamberdiyev, E. (2018). O'zbekiston Respublikasining yangi Fuqarolik protsessual kodeksi takomillashtirildimi yoki... Fuqarolik protsessual huquqini rivojlantirishning dolzarb masalalari [Has the new Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan been improved or... Current issues in the development of civil procedural law. Current issues in the development of civil procedural law] (p. 46). Proceedings of the international round table. Tashkent.
4. Eliseykin, P. F. (2014). Osobennosti sudebnogo rassmotreniya opredelennykh kategoriy grazhdanskikh del [Peculiarities of judicial consideration of certain categories of civil cases] (pp. 33–34; 8). Yaroslavl.

5. Esanova, Z. N. (2022). *Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]* (p. 21). Tashkent, Yuridik adabiyotlar Publ.
6. Haqberdiyev, A. (2023). O'zbekistonda nizolarni hakamlik sudida hal etish jarayoni: nazariy va amaliy masalalar [The process of resolving disputes in arbitration courts in Uzbekistan: theoretical and practical issues] (pp. 195–196). [Doctoral Dissertation]. Tashkent.
7. Jeruolis, I. A. (2009). *Sushnost grazhdanskogo protsessa [The essence of civil procedure]* (pp. 179–183). Vilnyus.
8. Mamasiddiqov, M. M. (2007). *Buyruq tartibida ish yuritish [Work in order]* (p. 9). Tashkent: TSIL Publ.
9. Mamasiddiqov, M. M., & Mirzayev, U. S. (2008). *O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining "Buyruq tartibida ish yuritish" nomli 20¹-bobiga sharh [Commentary on Chapter 201 of the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan entitled "Procedures in the Order Procedure"]* (p. 126). Tashkent: AL-FABA-SERVIS Publ.
10. Melnikov, A. A. (1981). *Kurs sovetskogo grazhdanskogo protsessualnogo prava [Course of soviet civil procedural law]* (p. 122; 123; 124). Moscow: Nauka Publ.
11. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi [Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]. (2016). Tashkent: Adolat Publ.
12. Republic of Azerbaijan. (1999). Civil Procedure Code of the Republic of Azerbaijan. <http://qanun.narod.ru /codes.html>
13. Republic of Belarus. (2024). Civil Procedure Code of the Republic of Belarus. <http://www.pravo.kulichki.ru /vip/gpk/index.htm>
14. Republic of Kazakhstan. (2015). Civil Procedure Code of the Republic of Kazakhstan. http://base.zakon.kz/doc/ lawyer/? doc_id=1013921
15. Russian Federation. (2018). Civil Procedure Code of the Russian Federation. <http://www.consultant.ru /popular/gpkrf/>
16. Shoraxmetov, Sh. Sh. (2007). *O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law of the Republic of Uzbekistan]* (p. 261). Tashkent: Adolat Publ.
17. Shoraxmetov, Sh. Sh. (2001). *O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law of the Republic of Uzbekistan]* (p. 180). Tashkent: Adolat Publ.
18. Shoraxmetov, Sh. Sh. (2010). *O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar [Comments to the Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]*. Tashkent: TSIL Publ.
19. Stat.sud.uz. (2025). Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning 2021–2024-yillar va 2025-yil birinchi yarmi faoliyat yakunlarining asosiy ko'rsatkichlari [Main indicators of the results of the activities of civil courts in 2021–2024 and the first half of 2025]. <https://stat.sud.uz/assets /uploads/civil/pdf/civil-2025-6.pdf>
20. TSUL. (2020). *Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]*. (p. 33). Tashkent: TSUL Publ.
21. Yodgorov, Kh. (2003). Sud buyrug'i: sud islohotlari samarasi [Court order: the effect of judicial reforms]. *O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi [Bulletin of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan]*, 4.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./FQDN3763
UDC: 347.9(045)(575.1)

PROTSESSUAL MUDDATLARNI TA'MINLASH USULLARI: XORIJIY TAJRIBA

Odilova Sitora Bobir qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-5440-6717
e-mail: sodilova41@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy davlatlar sud-huquqtizimidagi protsessual muddatlarga rioya etishni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Germaniya, Italiya va boshqa mamlakatlar misolida sud ishlarini belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishga qaratilgan yondashuvlar o'rganilgan. Xususan, sud ishlarini tezkor ko'rish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kompensatsiya va monitoring tizimlari kabi choralar tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligi va sud amaliyoti uchun xorijiy tajribaning qanday jihatlari tatbiq etilishi mumkinligi bo'yicha aniq takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot maqsadi protsessual muddatlarga rioya etish orqali odil sudlovni ta'minlash, fuqarolarning ishonchini mustahkamlash va huquqiy barqarorlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: protsessual muddatlar, sud ishi, xalqaro tajriba, odil sudlov, elektron sud, kompensatsiya, ishonch, monitoring

СПОСОБЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОБЛЮДЕНИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ СРОКОВ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Одилова Ситора Бобир кизи,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В настоящей статье анализируются механизмы обеспечения соблюдения процессуальных сроков в судебно-правовых системах зарубежных государств. На примере США, Великобритании, России, Германии, Италии и других стран исследуются подходы, направленные на рассмотрение судебных дел в установленные законом сроки. В частности, анализируются такие меры, как оперативное рассмотрение дел, внедрение цифровых технологий, системы компенсации и мониторинга. Кроме того, выдвигаются конкретные предложения относительно тех аспектов зарубежного опыта, которые могут быть адаптированы и применены в законодательстве и судебной практике Республики Узбекистан. Цель исследования заключается в обеспечении правосудия посредством соблюдения процессуальных сроков, укреплении доверия граждан к судебной системе и повышении правовой стабильности.

Ключевые слова: процессуальные сроки, судебное дело, международный опыт, правосудие, электронный суд, компенсация, доверие, мониторинг

METHODS OF ENSURING PROCEDURAL TIME LIMITS: FOREIGN EXPERIENCE

Odilova Sitora Bobir kizi,
Independent Researcher
at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article analyzes the mechanisms for ensuring compliance with procedural time limits in the judicial and legal systems of foreign countries. Approaches aimed at considering court cases within the established timeframes will also be studied using the example of the USA, Great Britain, Russia, Germany, Italy, and other countries. In particular, such measures as the prompt consideration of court cases, the introduction of digital technologies, and compensation and monitoring systems will be analyzed. Specific proposals will also be put forward on what aspects of foreign experience can be applied to the legislation and judicial practice of Uzbekistan. The purpose of the research is aimed at ensuring justice by observing procedural deadlines, strengthening the trust of citizens, and strengthening legal stability.*

Keywords: *procedural deadlines, litigation, international experience, justice, electronic court, compensation, trust, monitoring*

Kirish

Sud jarayonlarida protsessual muddatlarga rioya etish adolatli va samarali odil sudlovning muhim shartidir. “Kechiktirilgan adolat – rad etilgan adolat” degan tamoyilda ta’kidlanganidek, sud ishlarining ortiqcha cho’zilishi fuqarolarning huquq va manfaatlariga putur yetkazadi. Shu bois ko’plab mamlakatlar qonunchiligida ishlarni belgilangan muddatlarda ko’rib tamomlash majburiyati mustahkamlanib, ortiqcha kechikishlarning oldini olishga qaratilgan maxsus mexanizmlar joriy etilgan. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya kabi davlatlarda protsessual muddatlarga amal qilinishini ta’minlash bo’yicha aniq yondashuvlar mavjud bo’lib, ularni o’rganish O’zbekiston sud-huquq tizimi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada protsessual muddatlarning nazariy ahamiyati, xorijiy davlatlar tajribasi hamda O’zbekiston qonunchiligiga tatbiq etilishi mumkin bo’lgan mexanizmlar tahlil qilinadi.

Protsessual muddatlar odil sudlov tezkorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi huquqiy vositadir. Nazariy jihatdan belgilangan muddatlar doirasida sud ishini ko’rib chiqish bir necha prinsipial omillar bilan asoslanadi.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ishlarni o’z vaqtida ko’rib hal etish ularning

buzilgan huquq va manfaatlarini samarali tiklashga imkon beradi. O’zbekiston Oliy Sudi Plenumi qarorida ta’kidlanganidek, protsessual muddatlarga qat’iy rioya etish fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini himoya qilish, qonuniylikni mustahkamlash hamda sud muhokamasi asossiz cho’zilib ketishining oldini olishda muhim omillardan biridir. Demak, muddatlar – odil sudlov tezkorligini ta’minlovchi kafolat vositasidir.

Odil sudlovning kechiktirilishi jamiyatda sud tizimiga ishonchni zaiflashtiradi. Shu bois xalqaro huquqda, masalan, Yevropa inson huquqlari konvensiyasi 6-moddasida har bir shaxsning ishi “oqilona muddat” ichida ko’rilishi huquqi e’tirof etilgan. Yevropa Kengashi tadqiqotlariga ko’ra, sud ishlarining asossiz cho’zilishi fuqarolarning adolatli sudlov huquqini buzadi, davlatning o’z sud tizimini tashkil etishda yuzaga kelgan kechikishlar uchun mas’uliyatini keltirib chiqaradi. Shunday ekan, oqilona muddat tamoyili xalqaro miqyosda odil sudlovning ajralmas talabi sifatida ko’riladi.

Belgilangan muddatlar nafaqat sud organlari, balki taraflarning ham intizomli bo’lishini rag’batlantiradi. Agar taraflar asossiz ravishda sud jarayonini cho’zishga urinsa, sudya bunday xatti-harakatlarning oldini oli-

shi zarur. Masalan, Rossiya fuqarolik-protsessual qonunchiligida agar taraflar sudni ataylab ovora qilsa yoki jarayonni kechiktirsa, bunday xatti-harakat “huquqdan suiiste’mol qilish” deb baholanib, sud ularning da’vo talablarini himoya qilishdan bosh tortishi mumkinligi nazarda tutilgan. Demak, muddatlar jarayon madaniyatini yuksaltiradi va taraflardan o’z huquq va majburiyatlaridan vijdonan foydalanishni talab etadi.

Yuqoridagi nazariy asoslar shuni ko’rsatadiki, protsessual muddatlar odil sudlov tezkorligi va sifati o’rtasida muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Albatta, muddatlarining “oqilona” bo’lishi, ya’ni ishning murakabligi va boshqa holatlarga mos holda belgilanishi ham muhim. Shu jihatdan, xorijiy davlatlar tajribasida muddatlarni ta’minlash bo’yicha ishlab chiqilgan mexanizmlarni ko’rib chiqamiz.

Asosiy qism

AQShda protsessual muddatlarga rioya etish asosan jazo muqarrarligi va tezkor sudlov huquqi tamoyillariga tayanadi. AQSh Konstitutsiyasining VI tuzatishi jinoyat ishlarida ayblanuvchiga “tezkor sud” huquqini kafolatlaydi. Bu prinsipni amalda ta’minlash uchun 1974-yilda federal darajada “Tezkor sudlov to’g’risida”gi qonun (*Speedy Trial Act*) qabul qilingan bo’lib, u jinoyat protsessining asosiy bosqichlari bo’yicha aniq muddatlarni belgilaydi (U.S. Congress, 1974). Mazkur qonunga binoan, shaxs hibsga olinganidan keyin 30 kun ichida ayblov xulosasi chiqarilishi, shuningdek, sud jarayoni ayblov e’lon qilingandan yoki ayblanuvchi sud oldida ilk bor paydo bo’lgan kundan e’tiboran 70 kun ichida boshlanishi shart etib belgilangan. Agar bu muddatlarga amal qilinmasa, ayblov bekor qilinishi mumkin. Shu tariqa, AQSh federal sud amaliyotida jinoyat ishlarini cho’zib yubormaslik qonun bilan kafolatlangan.

Fuqarolik va ma’muriy ishlarda ham AQSh sudlari muddatlarni kuzatib borish uchun keng qamrovli “kechiktirib bo’lmaydigan muddatlar” tizimidan foyda-

lanadi. Federal Fuqarolik-protsessual kodeksiga muvofiq, sudya ish bo’yicha jadval-buyruq (*scheduling order*) chiqarishi va unda barcha protsessual harakatlarning muddatlarini belgilashi talab etiladi (Russian Federation, 2023). Sudya imkon qadar ish boshlanganidan e’tiboran tez fursatda bunday jadvalni tasdiqlashi kerak (odatda 90 kun ichida). Keyinchalik taraflar va sud ushbu grafikka qat’iy rioya etishi, o’zboshimcha cho’zilishlarga yo’l qo’ymasligi nazorat qilinadi. AQSh sudlari maxsus dasturiy ta’minotlardan, ish yurituvini boshqarish tizimi (*case management systems*) orqali barcha protsessual muddatlarni avtomatik belgilaydi va sud hujjatlarini o’z vaqtida taqdim etishni eslatadi.

So’nggi yillarda AQSh sud tizimi raqamlashtirish orqali jarayon tezkorligini oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda. *Thomson Reuters Institute* (2023) tomonidan o’tkazilgan tadqiqotga ko’ra, mahalliy sudlarning 79 foizi sud majlislari davomida kechikishlar mavjudligini bildirgan, bu esa boshqa ishlarning ham surilishiga “domino effekti”ni keltirib chiqargan. Shu bois sud jarayonlariga masofaviy tinglovlarni joriy etish, raqamli dalillarni boshqarish tizimlarini yaratish kabi chora-tadbirlar kengaymoqda. Masalan, pandemiya davrida onlayn sud majlislari va video-konferensiyalar keng qo’llangan, bugungi kunda esa AQSh sudlarining 80 foizidan ortig’i virtual rejimda ish yuritishni davom ettirmoqda. Shuningdek, dalillarning raqamli shakllarini tahlil qilish va saqlash uchun “*digital evidence management*” tizimlarini joriy etish tavsiya etilmoqda.

Umuman olganda, AQSh tajribasi tezkor sudlov huquqini huquqiy jihatdan kafolatlash va uni amalda ta’minlashda zamonaviy boshqaruv hamda texnologik vositalarni keng qo’llash bilan xarakterlanadi.

Buyuk Britaniya (Angliya va Uels) sud tizimida ishlarni o’z vaqtida ko’rib chiqish masalasi doimo e’tiborda. Albatta, Buyuk Britaniyada alohida “tez sudlov to’g’risida” qonun

mavjud emas, biroq Angliya fuqarolik protsessual qoidalarini (*Civil Procedure Rules*) va jinoyat protsessual qoidalarini (*Criminal Procedure Rules*) doirasida ishlarni samarali va tezkor yuritishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Fuqarolik protsessual qoidalarining asosiy tamoyili – “*overriding objective*”, ya’ni barcha ishlarni adolatli va tezkor hal qilish maqsadidir (*Civil Procedure Rules*, Part 1). Sudlar ish boshidanoq faol ish yurituvini boshqarish (*case management*) tamoyiliga amal qilib, dastlabki tinglovdayoq muddatlarni belgilaydi va taraflarga dalillarni taqdim etish, ekspertiza o’tkazish hamda boshqa protsessual harakatlarni aniq vaqt ichida bajarish bo’yicha ko’rsatmalar beradi. Taraflar o’zaro kelishgan holda ayrim muddatlarni cho’zmoqchi bo’lsa ham, sud ruxsatisiz 28 kundan ortiq kechiktirish mumkin emas (*Civil Procedure Rules*, Part 29). Bu qat’iy nazorat tizimi muddatlarga rioya etishni kuchaytiradi va “sudsiz kechikmalar”ni kamaytiradi.

Jinoyat ishlari bo’yicha esa *Better Case Management* tashabbusi doirasida sud majlislarini o’z vaqtida belgilash hamda tergov-surishtiruv bosqichidagi kechikishlarni kamaytirish ko’zda tutilgan (*Crown Prosecution Service*). Jinoyat protsessual qoidalariga binonan, ish sudga kelib tushgach, birinchi tinglovdayoq sudya ish bo’yicha sud muhokamasi kuni (*trial date*) belgilaydi va tergov harakatlari uchun qat’iy muddatlarni belgilovchi ko’rsatmalar beradi (*Criminal Procedure Rules*, Part 3). Bu tartib sudga ishlarni o’z “taqvimiga” kiritish va keyingi bosqichlarni nazorat qilish imkonini beradi, natijada tergov organlari va prokuratura intizomga chorlansa, ishlar cho’zilmaydi.

So’nggi yillarda Buyuk Britaniya sud tizimida ortib borayotgan ish hajmi va pandemiya oqibatida hosil bo’lgan to’planib qolgan ishlar (*backlog*) jiddiy muammoga aylangan. *House of Commons Justice Committee* (2022) ma’lumotlariga ko’ra, 2021-yilda Angliya va

Uels sudlarida 54 mingdan ortiq jinoiy ishlar hal etilmay turgan. Bu muammoni yengish maqsadida hukumat keng qamrovli raqamli islohotlar dasturini amalga oshirmoqda. “*Common Platform*” nomli yagona elektron ish yuritish tizimi 2025-yilga kelib to’liq joriy etilgan bo’lib, hozirgacha 2,3 milliondan ortiq jinoyat ishlarida qo’llangan (*HM Courts and Tribunals Service*). Ushbu tizim politsiya, prokuratura va sud organlari o’rtasida ma’lumot almashinuvini real vaqt rejimida ta’minlab, qog’ozda hujjat uzatishdan kelib chiqadigan kechikishlarni keskin kamaytirdi. Elektron hujjatlar almashinuvi va avtomatik ogohlantirishlar protsessual harakatlarning o’z vaqtida bajarilishini ta’minlamoqda.

Bundan tashqari, sud majlislarini masofaviy shaklda o’tkazish amaliyoti ham jadal rivojlanmoqda. Pandemiya davrida boshlangan onlayn sud majlisleri tajribasi hozirda doimiy amaliyotga aylangan. Oliy sud va apellyatsiya sudlari “*Skype for Business*” va “*Zoom*” kabi platformalardan keng foydalanmoqda. Bu usul sayohat va qog’ozbozlik vaqtini qisqartirib, ishlarni tezroq ko’rish imkonini bermokda.

Umuman olganda, Buyuk Britaniya tajribasi protsessual muddatlarga rioya etishda sud ishlarini boshqarish, qat’iy protsessual qoidalar va raqamli texnologiyalarni uyg’unlashtirishga asoslanadi. Shunga qaramay, jinoiy ishlar bo’yicha to’planib qolgan ishlar (*backlog*) muammosi hanuz mavjud. Shu sababli, sud majlislarini magistrat sudlariga ko’proq o’tkazish, sudyalarning shtatini kengaytirish hamda yengil jinoyatlar bo’yicha soddalashtirilgan tartiblarni qo’llash orqali ishlarni ko’rib chiqish muddatlarini qisqartirishga qaratilgan islohotlar davom etmoqda.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida protsessual muddatlarga rioya etish masalasi aniq belgilangan normalar va maxsus kafolatlar orqali ta’minlanadi. Ayniqsa, Rossiya sud tizimi postsovet makonda O’zbekiston bilan tarixan yaqin bo’lgani bois uning bu boradagi tajribasi qiziqarli.

Rossiya tajribasi. Rossiya Federatsiyasi fuqarolik protsessual qonunchiligi ishlarni sudga ko'rish uchun qat'iy muddatlarni belgilaydi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 154-moddasiga muvofiq, umumiy fuqarolik ishlari sud tomonidan birinchi instansiyada odatda ikki oy ichida, dunyo sudyalari yuritadigan soddalashtirilgan ishlar esa bir oy ichida ko'rib chiqilishi lozim (Russian Federation, 2002). Ayrim tezkor toifadagi ishlar, masalan, ishga tiklash yoki aliment undirish bilan bog'liq da'volar uchun muddat yanada qisqa, ya'ni bir oy qilib belgilangan. Shu bilan birga, murakkab ishlarni ko'rib chiqish zarurati tug'ilganda sud raisi belgilangan ikki oylik muddatni uzog'i bilan yana bir oyga uzaytirishi mumkin.

Rossiya qonunchiligida "aqlga muvofiq muddat" tamoyili ham alohida e'tirof etilgan. Fuqarolik-protsessual kodeksning 6.1-moddasida ishlarni ko'rishda oqilona muddatga rioya etish talabi belgilangan bo'lib, muddatning davomiyligi ishning murakkabligi, tараflarning xatti-harakatlari va boshqa holatlarga qarab baholanadi. Shu tariqa, sud ishini asossiz kechiktirmasligi, lekin murakkablikka qarab ayrim hollarda qonundagi qat'iy muddatlardan og'ish mumkinligi nazarda tutilgan.

Protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlash uchun Rossiyada nazorat va kompensatsiya mexanizmlari joriy etilgan. Agar sud jarayoni cho'zilib ketsa, taraflar sud raisiga ishni tezlashtirish haqida ariza berish huquqiga ega. Sud raisi besh kun ichida ishni jadallashtirish yuzasidan choralar belgilovchi maxsus qaror chiqarishi kerak. Ushbu tartib sud ishlarining asossiz kechikishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlaydi.

2010-yildan boshlab Rossiyada protsessual kechikishlar uchun kompensatsiya instituti joriy etilgan. Yevropa Inson huquqlari sudi tavsiyalariga asoslanib qabul qilingan 68-FZ-sonli Federal qonun fuqarolarga ish oqilona muddatda ko'rilmaganda davlatdan moddiy kompensatsiya undirish huquqini beradi (Russian Federation, 2010). Fuqaro ishning

g'ayrioddiy uzoq davom etganini hisoblasa, jarayon yakunlanishini kutmasdan sudga murojaat qilib, yetkazilgan ma'naviy yoki moddiy zarar uchun to'lov talab qilishi mumkin. Amaliyotda, masalan, to'rt yil ikki oy davom etgan ish uchun 50 ming rubl, uch yarim yillik kechikish uchun 15 ming rubl, sakkiz oylik kechikish uchun besh ming rubl miqdorida kompensatsiyalar tayinlangan. Ushbu mexanizm davlat organlarini muddatlarga qat'iy amal qilishga rag'batlantiradi.

Bundan tashqari, sud tizimi ichida intizomiy nazorat va statistik monitoring mexanizmlari ham mavjud. Sudyalarning ish yuklamasi, o'rtacha ish yuritish muddati va kechikayotgan ishlar soni Rossiya Oliy sudi hamda Sudyalar kengashi tomonidan muntazam tahlil qilinadi. Agar ayrim sudyalar belgilangan muddatlarda ishlarni ko'rib chiqmasa, ularning faoliyati yuzasidan intizomiy choralar ko'rilishi mumkin. Har yili sud tizimi bo'yicha umumiy statistik ko'rsatkichlar jamoatchilikka e'lon qilinadi.

Rossiya tajribasi protsessual muddatlarni qonunchilikda aniq belgilash, ichki nazoratni kuchaytirish va buzilgan holatlarda fuqarolarga kompensatsiya berish orqali sud ishlari cho'zilishining oldini olishga qaratilgan. Bu yondashuv samarali natijalar bermoqda, biroq hali ham ayrim murakkab ishlarning yillar davomida hal etilmay qolishi muammosi saqlanib qolmoqda.

Germaniya Konstitutsiyasining 19-moddasi 4-bandida har bir shaxsga davlat organlari harakatidan ko'rilgan zararni sud tartibida bartaraf etish huquqi kafolatlanadi (Federal Republic of Germany, 1949). Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi ushbu normalarni sharhlab, odil sudlov huquqi "o'z vaqtida, oqilona muddat ichida" yakuniy sud qarori olinishi lozimligini ham o'z ichiga olishini ta'kidlagan.

Yevropa Inson huquqlari sudi talablari asosida Germaniyada 2011-yilda "Sud jarayoni haddan tashqari cho'zilganda huquqiy himoya to'g'risida"gi qonun qabul qilingan

(Federal Republic of Germany, 2011). Mazkur qonunga binoan, agar sud yoki tergov jarayoni haddan tashqari uzoq davom etsa, taraflar shikoyat kiritib, ishni jadallashtirish choralari ko'rishni talab qilishlari mumkin yoki ortiqcha kechikish tufayli yetkazilgan zarar uchun davlatdan har yili kechiktirilgan davr uchun o'rtacha 1200 yevro miqdorida kompensatsiya undirish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu qonun jinoyat, fuqarolik va ma'muriy ishlarga tatbiq etilib, sud jarayonining noo'rin uzayib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Shu tariqa Germaniya sud tizimida muddatlarga rioya etish uchun huquqiy kafolat va javobgarlik mexanizmi shakllantirilgan.

Italiya ham uzoq davom etuvchi sud jarayonlari bilan tanilgan mamlakatlardan biri bo'lib, bu borada ko'p bor Yevropa Inson huquqlari sudi tomonidan tanqid qilingan. Muammoni hal etish maqsadida Italiya 2001-yilda "Pinto qonuni" deb ataluvchi normativ hujjatni qabul qildi. Ushbu qonunga ko'ra, agar fuqaroning ishi Italiya sudlarida oqilona muddatdan odatda uch yildan ortiq cho'zilib ketsa, u davlatdan kompensatsiya talab qilish huquqiga ega. Yillar davomida ushbu qonun asosida minglab fuqarolarga to'lovlar amalga oshirilgan, natijada Italiya hukumati sud ishlarini tezlashtirish uchun qo'shimcha resurslar ajratishga majbur bo'lgan. Bugungi kunda ham Italiya sud ishlarining o'rtacha davomiyligi bo'yicha Yevropada yuqori ko'rsatkichlarga ega, biroq *Pinto qonuni* fuqarolarni huquqiy jihatdan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

Fransiya va boshqa Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sud tizimining samaradorligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar joriy etilgan. Fransiya sudlarida elektron hujjat aylanishi va onlayn da'vo arizalari tizimi joriy qilingan bo'lib, kichik summali talablar bo'yicha jarayon to'liq onlayn shaklda amalga oshirilmoqda. Estoniya esa to'liq elektron sudlov tizimiga o'tgan bo'lib, fuqarolar sudga murojaat qilishdan tortib, sud qarorini olishgacha bo'lgan jarayonni maxsus veb-platforma orqali masofadan turib amalga oshirish-

lari mumkin. Bu turdagi elektron sudlov tizimlari protsessual jarayonlarni tezlashtirish, navbat kutish va qog'oz bilan bog'liq kechikishlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, Yevropa mamlakatlari tajribasi protsessual muddatlarga rioya etishni ta'minlashda ikki asosiy yo'nalishga tayanadi: birinchisi – muddatlarni buzganlik uchun kompensatsiya mexanizmlarini joriy etish, ikkinchisi – raqamli texnologiyalar orqali jarayonlarni avtomatlashtirish va nazorat qilish tizimlarini yaratishdir.

Osiyo mamlakatlari va O'zbekiston tajribasi

Singapur va Janubiy Koreya sud tizimlari protsessual muddatlarga rioya etish va sud ishlarini tezkor hal etish borasida yetakchi o'rinlarda turadi. Singapurda sudlar har bir ish uchun "*case track*" – ya'ni ish yo'nalishini belgilovchi tizimni joriy etgan. Oddiy fuqarolik tortishuvlari "*tezkor yo'lak*" (*fast track*) bo'yicha bir necha oy ichida hal qilinadi, murakkabroq ishlar esa alohida yo'lak bo'yicha ko'rib chiqiladi. Sudlar ish yuritishni boshqarishning zamonaviy usullaridan, jumladan, sun'iy intellekt (SI) yordamida ba'zi protsessual hujjatlarni tayyorlash amaliyotidan ham foydalanadi. Bu yondashuv sud jarayonlarining qisqarishiga va inson resurslarining optimal taqsimlanishiga olib kelmoqda.

Yaponiyada esa hakamlik sudlari va oddiy sudlar parallel faoliyat yuritadi. Ko'plab fuqarolik nizolari sudgacha yetib bormasdan oldin hakamlik tartibida hal etiladi. Bu tizim rasmiy sudlarning yuklamasini kamaytiradi va kechikishlar ehtimolini pasaytiradi. Shu tariqa Osiyo mamlakatlari tajribasi profilaktik yondashuv, ya'ni muddatlarga rioya etishning oldini olish uchun kuchli boshqaruv va texnologik mexanizmlar yaratish tamoyiliga asoslanadi.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, ilg'or davlatlar tajribasida ikki asosiy yo'nalish mavjud. Birinchisi, preventiv choralari – muddat buzilishining oldini olish uchun qonuniy, tashkiliy va texnologik kafolatlar yaratish. Bunga sudyalarning tomonidan faol ish

yurituvini boshqarish, raqamli tizimlar orqali muddatlarni nazorat qilish va qat'iy qonuniy normalar kiradi. Ikkinchisi, kompensator choralar – muddat buzilganda jabrlangan taraflarni qisman qondirish. Bu yo'nalishga kompensatsiya to'lash, ishni yuqori instansiyada tezlashtirilgan tartibda ko'rib chiqish yoki jarayonni soddalashtirish kabi chora-tadbirlar kiradi. Ko'pgina taraqqiy etgan huquqiy tizimlar ushbu ikki yondashuvni birgalikda qo'llab, jarayonning tezkorligi va adolatligini muvozanatda saqlashga intilmoqda.

O'zbekiston uchun bu tajribalar muhim saboqlar beradi. So'nggi yillarda O'zbekiston qonunchiligida protsessual muddatlar instituti sezilarli darajada takomillashdi. 2018-yilda qabul qilingan yangi Fuqarolik-protsessual kodeksi va Iqtisodiy-protsessual kodeksda ishlarni ko'rib chiqish muddatlari aniq belgilab qo'yilgan (Fuqarolik protsessual kodeksi, 2018-y.). Masalan, oddiy turdagi ishlar bir oy, murakkabroq ishlar esa ikki oy ichida hal etilishi lozim. Ayrim toifadagi ishlar, jumladan, saylov bilan bog'liq nizolar yoki aliment undirish masalalari bo'yicha yigirma kunlik muddat nazarda tutilgan (Iqtisodiy-protsessual kodeks, 2018-y.).

Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston sud-huquq tizimini jarayon tezkorligi bo'yicha dunyoning eng talabchan tizimlaridan biriga aylantiradi. Solishtirish uchun: Skandinaviya yoki G'arbiy Yevropa davlatlarida sud ishining o'rtacha davomiyligi olti oydan bir yilgacha cho'zilishi tabiiy hol hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, O'zbekistonda qonuniy belgilangan qisqa muddatlarning amalda to'liq bajarilishi uchun sud tizimida raqamli nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirish, ish yuklamasini optimallashtirish va sudyalarning mas'uliyatini oshirish zarur.

Biroq amaliyotda bu belgilangan muddatlarga har doim to'liq erishilmayapti. Sud ishlarining murakkablashuvi, sudyalarning ish hajmi ko'pligi, taraflarning kechikishlarga yo'l qo'yishi kabi omillar tufayli ayrim ishlar bo'yicha belgilangan muddatlar uzaytiriladi

yoki buziladi. Shu bois, xorijiy tajribaga tayanib, O'zbekiston qonunchiligida quyidagi mexanizmlarni joriy etish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

1. Sud jarayonini boshqarish va monitoring qilish tizimini kuchaytirish

O'zbekiston sudlari amaliyotiga xorijda keng qo'llanadigan ish yurituvini boshqarish tizimi (*case management*) tamoyillarini chuqurroq tatbiq etish lozim. Oliy Sud tomonidan barcha sudlarda sud majlislarini rejalashtirish va ularning bajarilishini kuza-tish tartibini kuchaytirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berilgan. Kelgusida har bir ishni elektron tizimga kiritish, uning harakatini onlayn tarzda monitoring qilish amaliyotini kengaytirish kerak. Xususan, "E-SUD" elektron sudlov tizimini yanada takomillashtirib, unda har bir ish bo'yicha belgilangan muddatlar va bajarilgan protsessual harakatlarning ro'yxatini shakllantirish hamda sud rahbariyati tomonidan nazorat qilish mexanizmini joriy etish lozim. Bunday tizim muddat buzilish xavfini oldindan aniqlab, tegishli choralarni o'z vaqtida ko'rishga yordam beradi.

2. Protsessual muddat buzilganda javobgarlik va kompensatsiya institutini joriy etish

Hozirgi qonunchilikda muddatni o'tkazib yuborgan taraflar uchun asosan protsessual huquqlardan mahrum qilish choralari nazarda tutilgan. Biroq sudlarning o'zlari belgilangan muddatlarga rioya qilmagan holatlar uchun to'g'ridan to'g'ri javobgarlik yoki kompensatsiya mexanizmi mavjud emas. Xorijiy tajriba asosida O'zbekistonda ham "oqilona muddat buzilganligi uchun da'vo" institutini joriy etish taklif etiladi (Russian Federation, 2010). Masalan, agar ish asossiz sabablarsiz bir yildan ortiq davom etsa, fuqaro davlatdan ma'naviy zarar undirish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Bu, bir tomondan, fuqarolarning huquqini himoya qilsa, ikkinchi tomondan sud organlarini intizomga soladi. Shu bilan birga, ushbu mexanizmni suiiste'mol qilishning oldini olish uchun aniq mezonlar va tartiblarni belgilash zarur.

3. Sudyalarning ish yuklamasini kamaytirish

Ko'p hollarda muddatlarning buzilishiga sudyalarning ortiqcha ish hajmi sabab bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoni doirasida "Yangi O'zbekiston – yangi sud" tamoyili asosida sudyalarning mustaqilligini ta'minlash, ish samaradorligini oshirish va yordamchi xodimlar sonini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-13-sonli farmoni, 2023-y.). Kelgusida sudyalarning oyiga o'rtacha ko'radigan ishlar soni uchun me'yorlar belgilanishi, bu me'yordan ortgan hollarda qo'shimcha shtat birligi kiritilishi yoki ishlarining bir qismini mediatorlar va hakamlik sudlariga o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, Angliya tajribasidagi kichik summali da'volar (*small claims*) modeli kabi da'volarni sudyaga yordamchi xodimlar ko'rib chiqishi mumkin.

4. Raqamlashtirish va "elektron sud" tizimini kengaytirish

So'nggi yillarda O'zbekistonda "E-SUD" va "E-XSY" kabi platformalar ishga tushirilgan bo'lsa-da, ularning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish uchun infratuzilma va kadrlar salohiyatini oshirish zarur. Masofaviy sud majlislari amaliyotini kengaytirish, ayniqsa, uzoq hududlardagi taraflar uchun qulaylik yaratadi. Agar taraflardan biri boshqa viloyatda yoki xorijda bo'lsa, videoaloqa orqali sud majlislarini o'tkazish taraflarning vaqtini tejaydi hamda kechikishlarni kamaytiradi. Shuningdek, hujjatlarni elektron shaklda yuborish tartibini keng joriy etish zarur. Elektron pochta yoki E-SUD orqali hujjatlarni yuborish pochta orqali yetkazishga ketadigan vaqtni sezilarli darajada qisqartiradi.

5. Protsessual suiiste'mollarning oldini olish

Ba'zan taraflar yoki ularning vakillari takroran ekspertiza so'rash yoki yangi vajlar kel-

tirish orqali sud jarayonini ataylab cho'zishga urinadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun O'zbekiston qonunchiligida sudlarga jarima solish yoki da'voni rad etish vakolatlarini berish mumkin. Rossiya tajribasida Fuqarolik kodeksining 10-moddasida agar taraf protsessual huquqidan noo'rin foydalan-sa, sud uning talabini rad etishi yoki boshqa sanksiya qo'llashi mumkinligi nazarda tutilgan (Russian Federation, 2002).

6. Statistik tahlil va jamoatchilik monitoringi

Har yili sud tizimi bo'yicha statistik ma'lumotlar e'lon qilinadi, ammo ularda ishlarining ko'rilish tezkorligi haqida batafsil ma'lumot yo'q. Yevropa Ittifoqining odil sudlov ko'rsatkichlari jadvali (*Justice Scoreboard*) va Yevropa Kengashining CEPEJ hisobotlarida esa har bir davlat bo'yicha ish ko'rishning o'rtacha davomiyligi va kechikishlar ko'rsatkichlari e'lon qilinadi. Shunga o'xshash tarzda, O'zbekiston Oliy Sudi ham yillik hisobotlarda "Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ish ko'rishning o'rtacha muddati" va "muddat buzilmagan ishlar foizi" kabi ko'rsatkichlarni ochiq e'lon qilsa, bu sog'lom raqobatni kuchaytiradi va jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan takliflar xorijiy tajribani O'zbekiston huquqiy tizimi va xalq manfaatlariga moslashtirib qo'llashga qaratilgan. Har bir mexanizmni joriy etishdan avval uning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini ham hisobga olish zarur. Masalan, protsessual muddatlarni haddan tashqari qisqartirish sud ishlarini sifat jihatidan zaiflashtirmasligi uchun nazorat mexanizmlarini puxta ishlab chiqish lozim. Shu nuqtayi nazardan, "tezkorlik va sifat muvozanati" tamoyilini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda "inson qadri uchun" tamoyili ustuvor bo'lgan O'zbekistonda fuqarolarning o'z vaqtida odil sudlovga erishish huquqini ta'minlash eng muhim vazifalardan biridir. Shu ma'noda, xorijiy tajribani ijodiy tatbiq etish orqali protsessual muddatlarga

rioya etilishini yanada samarali nazorat qilish imkoniyati mavjud.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi:

Protsessual muddatlarning ahamiyati. Sud ishlarini oqilona muddatlarda ko'rib chiqish odil sudlovning ajralmas qismidir. Muddatlarga rioya etish fuqarolarning huquqlarini samarali himoya qiladi va sud tizimiga ishonchni mustahkamlaydi. "Oqilona muddat" talabi xalqaro huquqda keng e'tirof etilgan tamoyil bo'lib, milliy qonunchilikda ham o'z ifodasini topishi lozim.

Xorijiy tajriba. AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya va Yevropa davlatlari tajribasi protsessual muddatlarni ta'minlashda turli mexanizmlarni qo'llaydi. AQShda "Tezkor sudlov to'g'risida"gi qonun (*Speedy Trial Act*) orqali qat'iy muddatlar belgilansa, Buyuk Britaniyada sud boshqaruvi va raqamli texnologiyalar yordamida jarayonlar nazorat qilinadi. Rossiyada esa muddat buzilgan taqdirda davlat kompensatsiya to'laydi. Germaniya va Italiya esa "oqilona muddat buzilishi" uchun alohida shikoyat va kompensatsiya tizimini ishlab chiqqan.

Milliy qonunchilik uchun quyidagilar taklif etiladi:

- sud jarayonlarini elektron nazorat tizimiga o'tkazish va har bir ish bo'yicha muddat monitoringini joriy etish;
- ishlar cho'zilgan holatlarda fuqarolarga davlatdan kompensatsiya talab qilish huquqini beruvchi qonun ishlab chiqish;
- sudyalarning ish hajmini kamaytirish, yordamchi xodimlar shtatini kengaytirish va

muqobil nizolarni hal etish mexanizmlarini rivojlantirish;

- "elektron sud" tizimini takomillashtirish, hujjatlarning elektron almashinuvini to'liq yo'lga qo'yish va masofaviy sud majlislarini keng qo'llash;

- protsessual huquqlarni suiiste'mol qilishning oldini olish maqsadida sudlarga jarama va sanksiya vakolatlarini kengaytirish;

- har yili sud ishlarining tezkorligi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni ochiq e'lon qilish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Ilmiy va amaliy ahamiyati. Protsessual muddatlarga rioya etilishi nafaqat texnik masala, balki sud-huquq tizimining samaradorligi va jamiyatdagi ishonch darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, muddat va odil sudlov sifati o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish, ortiqcha kechikishlarning huquqiy hamda ijtimoiy oqibatlarini o'rganish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sud-huquq tizimi hozirgi islohotlar jarayonida fuqarolar manfaatini ta'minlashga yo'naltirilgan yangi bosqichga kirib bormoqda. Protsessual muddatlar masalasi ushbu islohotlar markazida turmog'i lozim. Xorijiy ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga mos holda joriy etish orqali qonun ustuvorligini ta'minlash va odil sudlov sifatini oshirish yo'lida muhim qadamlar qo'yiladi. Natijada fuqarolar sud orqali adolatga tez, sifatli va samarali tarzda erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyilining to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Better Case Management Handbook. (2015). Guidelines for managing criminal proceedings and scheduling hearings in England and Wales. UK Ministry of Justice.
2. Caret Legal Blog. (2022). Why litigation firms need an appellate case management system. Caret Legal. <https://caretlegal.com>

3. CEPEJ (European Commission for the Efficiency of Justice). (2021). Handbook on Cyberjustice: Guidelines on the use of information technologies in judicial systems. Strasbourg: Council of Europe. <https://www.coe.int/en/web/cepej>
4. CEPEJ-SATURN Working Group. (2018). *Guidelines for Judicial Time Management (SATURN Guidelines)*. Strasbourg: Council of Europe. <https://www.coe.int/en/web/cepej/saturn-centre>
5. European Council. (2018). The right to trial within a reasonable time – comparative analysis. Strasbourg: Council of Europe.
6. Federal Republic of Germany. (1949). Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland [Basic Law for the Federal Republic of Germany] (as amended). https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_gg/
7. Federal Republic of Germany. (2011). ÜGG – Act on Legal Protection in the Case of Excessive Length of Court Proceedings. Bundesgerichtshof commentary.
8. HMCTS (Her Majesty's Courts and Tribunals Service). (2025). Common Platform Case Study: Real-time updates and delay reduction. UK Government.
9. Italy. (2001). Pinto Law – Compensation for violation of the right to trial within a reasonable time. Official Gazette of Italy.
10. Russian Federation. (2002). Civil Procedure Code. Articles 154 and 6.1 – Commentary on reasonable time principle. Advokatskaya gazeta.
11. Russian Federation. (2010). Federal Law No. 68-FZ on Compensation for Violation of the Right to a Trial within a Reasonable Time. Moscow: Official Gazette.
12. Russian Federation. (2023). Federal Rules of Civil Procedure.
13. Singapore State Courts. (2021). Practice Directions: Fast track and simplified civil process. <https://www.statecourts.gov.sg>
14. techUK. (2021). The digital transformation sweeping the UK Courts system. techUK Insights. <https://www.techuk.org>
15. Thomson Reuters Institute. (2023). State of the Courts Report 2023: Delays and digital transformation in the U.S. judiciary. Thomson Reuters.
16. U.S. Congress. (1974). United States Code. 18 U.S.C. §3161 – Speedy Trial Act. Washington, D.C.
17. United Kingdom. (n.d.). Civil Procedure Rules (CPR Parts 3 and 26): Case management and timelines. The National Archives. <https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules>

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./ABCQ7308

UDC: 349.2:342.5(045)(575.1)

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI AYRIM TOIFADAGI XODIMLAR SIFATIDA

Rajabova Xulkar Sharifboyevna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0002-2492-2416
e-mail: siriuss@umail.uz

Annotatsiya. Maqolada davlat xizmatchilarining ayrim toifadagi xodimlar sifatidagi huquqiy maqomi, ushbu xizmatni tashkil etishning huquqiy asoslari, ushbu xizmatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishga oid ilmiy-nazariy qarashlar tahlili ko'rib chiqilgan. Shu jumladan, davlat xizmatchilarining huquqiy maqomiga oid olimlarning turli qarashlari, ushbu masalaning muammoli jihatlari, tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan eng muhim masala, ya'ni davlat xizmati to'g'risidagi mehnat qonunchiligini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, davlat xizmatchilarining mehnat shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda va shartlarda bekor qilish mumkinligi, xususan, qonunchilik talablariga rioya etmaganlik, xizmat intizomini buzganlik, o'z xizmat vazifalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik yoxud xizmatga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lganlik, davlatlarning manfaatlariga zarar yetkazganlik kabi holatlar bayon etilgan. Muallif tomonidan ularning huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlari, shu jumladan, lavozim yo'riqnomalari va ularning lavozim vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilovchi boshqa hujjatlar bilan tanishish, mehnatni muhofaza qilish talablariga javob beradigan ish olish, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha g'oyalar va mulohazalar ilmiy-nazariy va qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat xizmati, davlat xizmatchilari, mehnat shartlari, mehnat intizomi, xizmat majburiyatlari, xizmat samaradorligi, intizomiy javobgarlik

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ГРАЖДАНСКИЕ СЛУЖАЩИЕ КАК ОСОБАЯ КАТЕГОРИЯ РАБОТНИКОВ

Ражабова Хулкар Шарифбоевна,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье анализируется правовой статус государственных служащих как отдельной категории работников, правовые основы организации данной службы, особенности её осуществления, а также научно-теоретические подходы к организации государственной гражданской службы. В частности, рассматриваются различные точки зрения учёных относительно правового статуса государственных служащих, проблемные аспекты данного вопроса, а также ключевые вопросы, подлежащие регулированию соответствующими нормативно-правовыми актами, включая различные подходы к реализации трудового

законодательства о государственной службе. Кроме того, освещаются вопросы внесения изменений в трудовой договор государственных служащих и возможности его расторжения в порядке и на условиях, предусмотренных трудовым законодательством, в том числе в случаях несоблюдения требований законодательства, нарушения служебной дисциплины, неисполнения либо ненадлежащего исполнения служебных обязанностей, недобросовестного отношения к службе, а также причинения ущерба интересам государства. Автором также проанализированы возможности реализации прав государственных служащих, включая ознакомление с должностными инструкциями и иными документами, определяющими их должностные полномочия, обязанности и ответственность, обеспечение условий труда, отвечающих требованиям охраны труда, а также представлены научно-теоретические и сравнительно-правовые выводы и предложения по совершенствованию правового регулирования государственной гражданской службы.

Ключевые слова: государственная служба, государственные служащие, условия труда, трудовая дисциплина, служебные обязанности, эффективность службы, дисциплинарная ответственность

STATE CIVIL SERVANTS AS A DEFINED CATEGORY OF EMPLOYEES

Rajabova Khulkar Sharifboevna,

Independent Researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines the legal status of civil servants as a certain category of employees, the legal basis for organizing this service, the specifics of its implementation, and the analysis of scientific and theoretical views on the organization of the state civil service. In particular, various views of scientists on the legal status of civil servants, problematic aspects of this issue, and the most important issue that should be regulated by relevant regulatory documents, that is, different approaches to the implementation of labor legislation on public service, were analyzed. Also, it is stated that it is possible to amend the employment contract of civil servants and terminate the contract in the manner and under the conditions established by labor legislation, in particular, cases of non-compliance with the requirements of the legislation, violation of official discipline, failure to perform or improper performance of official duties, or negligent attitude to service, causing harm to the interests of the state. The author analyzes from a scientific-theoretical and comparative-legal point of view the possibilities of exercising their rights, including familiarization with job descriptions and other documents defining their official powers, duties, and responsibilities, and obtaining work that meets labor protection requirements, as well as ideas and considerations for its improvement.

Keywords: public service, civil servants, working conditions, labor discipline, official duties, efficiency of the service, disciplinary responsibility

Kirish

Hozirgi kunda har qanday davlatning zamonaviy qiyofasi ochiq faoliyat kabi muhim jihatlarda mujassamlashgan. Uning eng muhim vazifasi samarali davlat barpo etish, davlat hokimiyati tizimini tashkil etish va uning faoliyatidagi muhim kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Bunday vazifani amalga oshirish, albatta, davlat fuqarolik xizmatini yanada rivojlantirishni, davlat organ-

lari vakolatlari ijrosini ta'minlash bo'yicha samarali faoliyat yuritishga qaratilgan ochiq, raqobatbardosh va yuqori darajadagi davlat xizmatini yaratishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan davlat fuqarolik xizmati ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalardagi davlat siyosatini amalda ro'yobga chiqarishning muhim omiliga aylanishi lozim.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida

davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, kadrlar siyosatini tartibga solish, davlat apparati faoliyatining ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan chuqur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda davlat nomidan davlat vazifalarini bajaruvchi xodimlarning ayrim toifasi sifatida davlat xizmatchilarining maqomini huquqiy jihatdan belgilash va o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat xizmatchilari o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, kasb etikasi talablari, qonunda mustahkamlangan cheklovlar va kafolatlar tizimi bilan belgilanadigan muayyan huquqiy maqomga ega. Ushbu toifaning mohiyatini to'g'ri tushunish davlat xizmatchilarining sifatini oshirish uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

O'z navbatida, davlat fuqarolik xizmatining rolini yanada oshirish maqsadida bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat fuqarolik xizmatining tegishli vazifalarini o'z vaqtida va samarali hal etish dolzarb masala hisoblanadi. Bundan tashqari, ularning kasbiy mahorati, ayniqsa, davlat boshqaruvi vazifalarini o'z vaqtida va samarali hal etish, sifatli davlat xizmatlarini ko'rsatish qobiliyati jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, shuningdek, insonlarning huquqlarini himoya qilish va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Shu munosabat bilan Prezident Sh. Mirziyoyev (2016) quyidagicha ta'kidlaydi: "Hozirgi vaqtda davlat va hokimiyat idoralarida ko'p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo'lga qo'yilmagani sezilmoqda. Eng yomoni, bu holat ishimizga xalaqit bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomiga ishlab o'tiribdi. Boshqa idorani qarasangiz, ish ko'p, vazifa ko'p, lekin ishlaydigan odam, kadr yetishmaydi. Bunday noto'g'ri ish taqsimotiga mutlaqo chek qo'yishning vaqti yetdi".

Har qanday davlat oldida turgan qator vazifalarning samarali hal etilishi ko'p jihatdan mansabdor shaxslar, xususan, davlat organlari rahbarlari ishini samarali tashkil etishga bog'liq. Oqilona qarorlar qabul qilgan, ularning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlagan munosib va kuchli hokimiyatgina o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erisha oladi, jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajara oladi. Shuning uchun davlat xizmatini shakllantirish va rivojlantirish muammolari eng ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilmoqda.

Bu borada mualliflar yondashuviga ko'ra, tegishli o'ziga xos qarashlarni ko'rishimiz mumkin, xususan, B. Mirboboyev shunday deydi: "Davlat xizmatini to'g'ri tashkil etish davlat tomonidan taraqqiyotni ta'minlash, fuqarolar manfaatlarini himoya qilish, vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun muhimdir. Demak, davlat xizmatidan samarali foydalanish uchun mazkur institutning to'g'ri tashkil etilishi va asosiy prinsiplarini belgilab beruvchi nazariy g'oyalarni o'rganish hamda ularni amaliyotda qo'llash, uning huquqiy asoslarini aniq belgilab olish zarur" (Mirboboyev et al., 2005).

Bugun mamlakatimizda davlat xizmati islohotlar va taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ymoqda. Albatta, davlat fuqarolik xizmatini yanada isloh qilish va uni rivojlantirish, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu asosda mazkur masalalarni yoritish bo'yicha mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilgan hamda hamda ma'muriy huquq to'g'risidagi amaldagi qonunchilikka takliflar berilgan.

Albatta, ushbu tadqiqotning maqsadi davlat xizmatchisining o'ziga xos maqomini mustahkamlash, shuningdek, ushbu masala bo'yicha nazariy va amaliy muammolarni o'rganish va tegishli takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun ilmiy tadqiqotning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli va formal-huquqiy kabi bir qator usullaridan foydalanildi.

Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son Farmoni davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirishga, davlat organlari va tashkilotlarining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu farmonga muvofiq, davlat xizmatining quyidagi turlari belgilandi: davlat fuqarolik va maxsus (huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat va Qurolli Kuchlardagi harbiy xizmat). Shuningdek, "davlat fuqarolik xizmati" atamasi davlat organlari va tashkilotlarida rasmiy faoliyatni anglatadi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda "davlat fuqarolik xizmati" va "davlat xizmati" alohida tushunchalarga bo'linadi, xususan, davlat fuqarolik xizmati davlat xizmatining bir turi sifatida qaraladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi davlat fuqarolik xizmati lavozimiga tayinlangan paytdan e'tiboran davlat fuqarolik xizmatchisi huquqiy maqomiga ega bo'ladi. Va, albatta, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda mehnat shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish, lavozim yo'riqnomalari va o'zlarining xizmat vakolatlari, xizmat vazifalari va mas'uliyatini belgilovchi boshqa hujjatlar bilan tanishish, mehnatni muhofaza qilish talablariga javob beradigan ishga ega bo'lish huquqiga ham egadirlar.

Bundan tashqari, ular o'z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishlari, davlat organi tomonidan belgilangan odob-axloq qoidalariga, xizmat axboroti bilan ishlash tartibiga, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq boshqa qoidalarga rioya etishla-

ri shart. Shunisi ham muhimki, qonunda belgilangan tegishli cheklovlarga rioya etmaslik davlat fuqarolik xizmatchisini intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, davlat fuqarolik xizmatchisining organlari bilan bunday xizmat yuzasidan munosabatlari o'z huquqiy tabiatiga ko'ra mehnat munosabatlari sifatida namoyon bo'lishini taqozo etadi. Buning isboti sifatida soha olimlarining bu boradagi fikrlarini keltirib o'tish muhimdir (Gusov & Tolkunova, 2005).

Ularning e'tiroficha, ushbu masala yuzasidan intizomiy javobgarlikning huquqiy muammolari sohalararo hal qilinishi barobarida ma'muriy hamda mehnat huquqi doirasida ham hal etilishi lozimligini ta'kidlashlari ahamiyatlidir. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan lavozim yo'riqnomasiga va Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlarga rioya etmaslik unga nisbatan intizomiy jazo choralarni qo'llash uchun asos bo'lishi mustahkamlangandir. Qolaversa, amaldagi Mehnat kodeksida mehnat to'g'risidagi qonunchilikning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatchilariga nisbatan qonunlarda nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda tatbiq etilishini mustahkamllovchi norma mavjudligi muhim hisoblanadi. Xususan, davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatga oid munosabatlariga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunchilikning amal qilishi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinmagan qismi bo'yicha tatbiq etilishi ham ahamiyatlidir.

Shuni alohida qayd etish lozimki, davlat fuqarolik xizmatchilarining yuridik javobgarligi degan tushuncha ham ilmiy adabiyotlarda mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra ushbu xizmatchilarning qonunga xilof qilmishiga

nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan u yoki bu turdagi jazo choralari qo'llash tushunilishi ahamiyatlidir (Xojiyev & Xojiyev, 2008). Albatta, bunday javobgarlik qonun talablari bajarilmaganda, xizmat intizomi buzilganda, xizmat vazifalari bajarilmaganida yoki lozim darajada bajarilmaganida yoxud xizmatga nisbatan sovuqqonlik bilan qaralganda, davlat hamda jamiyat manfaatlariga, fuqarolarning huquq hamda qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilganda vujudga kelishi mumkin. Bunday javobgarlikning subyekti, albatta, davlat fuqarolik xizmatchisi bo'lishi, shubhasiz. Davlat fuqarolik xizmatchilarining javobgarligi prinsipi amaldagi Konstitutsiyada ham o'z aksini topganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasidagi "Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar", 15-moddasida esa "Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritishining belgilanishi" ham javobgarlikning Konstitutsiyaviy asosi hisoblanadi.

Shuningdek, har qanday mehnat jamoasining muvofiqlashgan yoki kelishilgan holda ishlarni birgalikda amalga oshirishlari ushbu korxonaning aniq maqsadlariga erishishiga zamin yaratishi muhim hisoblanadi. Biroq bunday maqsadlarga xodimlar yoxud davlat fuqarolik xizmatchilarining xulq-atvor qoidalari rioya qilmasdan, faoliyatni muvofiqlashtirmasdan va ishda izchillikni o'rnatmasdan erishish mumkin emas (Pederin, 2019).

Qolaversa, Mehnat kodeksining 4-moddasida har kimning mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga egaligi hamda mehnat va mashg'ulotlar sohasida xodimlarning huquqlarini mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar to'g'risidagi alohida g'amxo'rlik bilan bog'liq holda asoslangan tarzda farqlash, istisno etish, ularga afzallik berish, shuningdek, ular-

ni cheklash kamsitish deb hisoblanmasligi mustahkamlangan. Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solish borasidagi asoslangan farqlar xodimning ish beruvchi bilan mehnat aloqasi xususiyatiga, mehnat faoliyati amalga oshiriladigan joyga, xodim mehnatining shart-sharoitlari va xususiyatiga, ish beruvchining huquqiy maqomiga, ba'zi tarmoqlar va kasblardagi xodimlar mehnatining o'ziga xos xususiyatlariga, organizmning psixofiziologik xususiyatlariga, oilaviy vazifalarning mavjudligiga hamda boshqa obyektiv holatlarga bog'liq bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yilganligi ahamiyatlidir.

Hozirgi bozor sharoitida, mamlakatimizda raqamlashtirish jarayoni rivojlanayotgan bir paytda mehnat intizomining ahamiyati sezilarli darajada oshganligi e'tiborga molik. Shubhasiz, demokratik jamiyat va huquqiy davlat shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti barcha sohalarda davlat va xizmat intizomining yuqori darajada bo'lishini taqozo etadi. Davlat xizmatchilarining asosiy majburiyatlardan biri – intizomni mustahkamlash va belgilangan qoidalarga qat'iy rioya qilish hisoblanadi (Xojiyev, 2015). Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, mehnat qonunchiligida mehnat intizomi obyektiv jihatdan biror-bir tashkilotda muayyan qonun va tartibni saqlashni belgilaydigan huquqiy normalar majmuini anglatadi.

Tarixan olib qaraydigan bo'lsak, jamiyat hayotida davlat ma'lum bir intizom va tashkilotsiz faoliyat yurita oladigan soha yo'qki, unda barcha umume'tirof etiladigan xulq-atvor hamda me'yoriy qoidalarga rioya qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi (Chistova, 2018). Bundan tashqari, yana bir ilmiy manbada ta'kidlanishicha, xizmat intizomi faqatgina davlat fuqarolik xizmatida lavozimlarni egallagan shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Bunday faoliyat davlatga xizmat qilish sifatida qaraladi va davlat fuqarolik xizmatchisi ish haqi yoki rag'batlantirish uchun emas, balki sadoqat bilan o'z burchini bajarish yoki ado etish kabi munosabatlar bi-

lan chambarchas bog'liq holda xizmat qiladi (Channov, 2010).

Darhaqiqat, xorij tajribasida davlat xizmatini nomlashda turli atamalar “fuqarolik xizmati” (“civil service”), “ommaviy xizmat” (“public service”), “davlat xizmati” (“government service”) ishlatiladi. Ko'pincha bu atamalar sinonim sifatida ishlatiladi, ammo ko'pchilik yuridik adabiyotlarda kategoriyalar bir-biridan farqlangan. Masalan, Fransiyada yuridik fanlar davlat xizmatini ma'muriy huquq doirasida ko'rib chiqadilar (Romanovski, 1997). Buyuk Britaniya va AQShda davlat xizmatiga oid masalalarni o'rganish, odatda, menejment, shuningdek, siyosiy va ma'muriy fanlarga tegishli hamda mazkur tushunchalar farqlanadi. Kembrij lug'atida: “public service” bu – davlat tomonidan, masalan, shifoxonalar, maktablar yoki politsiya tomonidan ko'rsatiladigan xizmat, “civil service” esa markaziy hukumat rejalari ni ishga solishga mas'ul bo'lgan davlat idoralari va xizmatchilar” (Cambridge dictionary, n.d.), deb ta'rif berilgan. Buyuk Britaniyaning Konstitutsiyaviy qonunida “civil service” – siyosiy jarayonlardan xoli bo'lgan doimiy ravishda faoliyat olib boradigan xizmatchilardir (Stewart, 2006). Xitoy Xalq Respublikasining 2005-yil 27-aprelda qabul qilingan “Davlat xizmatchilari to'g'risida”gi Qonunining 2-moddasiga binoan, davlat xizmatchisi – bu qonun hujjatlariga muvofiq davlat vazifalarini bajaruvchi, davlat boshqaruvi apparati tarkibiga kiruvchi hamda davlat mablag'lari hisobidan ish haqi va nafaqa oladigan shaxs (People's Republic of China, 2005).

Mamlakatimizda davlat xizmati sohasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan tub islohotlar negizida “davlat xizmatchisi” tushunchasini ilmiy jihatdan tahlil etish va kimlar ushbu toifaga mansubligini aniqlash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Xususan, M. Gasanovning ta'kidlashicha, ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlari nafaqat qonunchilik orqali, balki jamoa kelishuvlari, jamoa shartnoma-

lari va korxonaning boshqa ichki hujjatlari vositasida ham belgilanishi mumkin. Bunda ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy tartibga solishning o'rnatiladigan xususiyatlari Mehnat kodeksida nazarda tutilgan mehnat huquqlari va kafolatlari darajasini pasaytirmasligi lozim (Gasanov, 2016).

Shuningdek, amaldagi Mehnat kodeksi-ning 89-moddasida ayrim toifadagi xodimlar mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari tasnifi mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra mazkur o'ziga xos xususiyatlar quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

1) mehnat munosabatlarining subyektlari (ayollar, oilaviy vazifalarni bajarish bilan mashg'ul bo'lgan shaxslar, nogironligi bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar) bo'yicha;

2) mehnat faoliyatining sohalari, tarmoqlari va turlari (pedagoglar va tibbiyot xodimlari, transport xodimlari va boshqalar) bo'yicha;

3) mehnat sharoitlarining og'irligiga va (yoki) zararliligiga qarab;

4) tabiiy-iqlim sharoitlariga qarab;

5) xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlarining xususiyatlari (kasanchilar, masofadan turib ishlovchi xodimlar va boshqalar) bo'yicha va b.

Davlat xizmatchisi tushunchasi borasida bir qator xorijlik olimlar tomonidan qarashlar mavjud. Chunonchi, I.A. Ivannikovning fikricha, davlat xizmatchisi deganda davlat organlarida ishlovchi va professional tarzda boshqaruv bilan shug'ullanuvchi odamlarning alohida guruhi tushuniladi (Ivannikov, 2003). D.N. Baxraxning fikricha, davlat xizmatchilariga har qanday tashkilotda mansabga ega bo'lgan va ish haqi evaziga boshqaruv faoliyati yoki ijtimoiy-madaniy xizmatlarni amalga oshiradigan fuqarolar kiradi (shifokor, o'qituvchi, kutubxonachi, inspektor, do'kon menejeri va boshqalar) (Bakhrakh 1996). A.B. Vengerov esa davlat xizmatchisi tushunchasiga “hokimiyat vakolatlari bilan ta'minlanadigan va turli boshqaruv vazi-

falarini amalga oshiruvchi, zarur hollarda davlat majburlovini, ommaviy hokimiyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan odamlarning alohida qatlami" (Vengerov, 1999) sifatida ta'rif bergan. D.M. Ovsyankoning fikricha, davlat xizmatchisi – bu qonun bilan o'rnatilgan tartibda haq evaziga davlat xizmatidagi davlat lavozimi bo'yicha majburiyatlarni amalga oshiruvchi fuqarodir. Davlat xizmatchilari orqali davlat organlarining vakolatlari amalga oshiriladi (Kozlova & Popova, 2000).

Shuningdek, davlat xizmatchisi – nafaqat professional boshqaruvchi, balki o'z vakolati doirasida davlat vazifalarini amalga oshiruvchi va davlat hokimiyati organlarining vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlarining ijrosini ta'minlovchi, davlat nomidan ish yurituvchi mansabdor shaxsdir. Davlat organlari tizimida davlat xizmatchisi fuqarolar manfaatlarini yo'lida davlat hokimiyati vazifalarini bajaradigan, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etuvchi vakildir. Har qanday mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi ko'p jihatdan davlat xizmati tizimining shakllanganligi darajasiga va ushbu tizimda davlat xizmatchilarining faoliyat yuritish sifatiga bog'liq bo'ladi. M.B. Dobrobaba bu borada shunday deydi: "Davlat xizmatchisi belgilari ko'pqirrali bo'lib, bu bir tomondan davlat xizmatiga kirishda teng imkoniyatlar e'lon qilinganida, jinsi, irqi, millati, kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, yashash joyi, dinga munosabati, jamoat birlashmalariga a'zolidan qat'i nazar, kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan nomzodning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqib uning davlat xizmatiga noliyqligini asoslovchi bir qator cheklovlar o'rnatilganligida ko'rinadi" (Dobrobaba, 2006).

U.T. Tadjixonov (1996) shunday fikrni ilgari suradi: "Davlat xizmatchisi – bu asosiy faoliyati markaziy yoki mahalliy davlat hokimiyati organida muayyan manfaat uchun yuklatilgan vazifa bilan bog'liq majburiyatlarni bajarishda ishtirok etishdan iborat bo'lgan

shaxsdir. Davlat xizmatchisini bunday tushunish shaxsning davlat xizmatchisi maqomini olishiga asos bo'ladigan qator shart-sharoitlar mavjudligini nazarda tutadi". Bular: birinchi shart – shaxs xodimning vazifalarini doimiy asosda bajaradi; ikkinchi shart – u faqat davlat tashkilotida amalga oshiriladi; uchinchi shart – xodim o'z faoliyatini davlat organining manfaatlarini ko'zlab amalga oshiradi".

O'z navbatida, davlat xizmatchilari bir necha asoslarga ko'ra tasniflanadi. Xususan, N.Sh. Said-Gaziyeva o'z tadqiqotlarida davlat xizmatchilarini boshqaruv jarayonida bajaradigan vazifalariga ko'ra rahbarlar, mutaxassislar va texnik ijrochilar guruhiga ajratadi. Taniqli olim B. Mirboboyev xorijiy tajribaga asoslanib, davlat xizmatchisining quyidagi xususiyatlarini keltiradi: fuqaro bo'lish; davlat organlarida lavozimni egallash; davlat lavozimidan kelib chiqadigan vakolatlarni amalga oshirish; davlat byudjetidan xizmatlari uchun haq olish; o'z harakatlarini davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlash (Mirboboyev et al., 2005). Ushbu fikrga qo'shimcha ravishda davlat fuqarolik xizmatchisi muayyan yoshga to'lgan yoki voyaga yetgan, davlat topshiriqlari va funksiyalarini davlat nomidan bajaruvchi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs yoxud oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs deb e'tirof etiladi.

Ta'kidlash joizki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat bo'lib, ushbu Deklaratsiyaning 21-moddasida: "Har kim o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega", deb belgilab qo'yilgan. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 25-moddasida shunga o'xshash qoida mavjud bo'lib, unda har bir fuqaro o'z mamlakatida umumiy tenglik asosida, hech qanday kamsitishlarsiz va asossiz cheklovlarisiz davlat xizmatiga qabul qilinish huquqi va imkoniyatiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa xalqaro huquqiy

hujjatlarda xotin-qizlar davlat xizmatiga erkaklar bilan teng shartlarda kirish, davlat organlarida lavozimlarni egallash va davlat boshqaruvining barcha darajalarida vazifalarni bajarish, irqi, rangi, milliy yoki etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir shaxs uchun davlat xizmatiga teng kirish huquqiga egaligi belgilangan.

Shuningdek, mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash maqsadida 2019-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 3-bobi davlat xizmatida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda kafolatlarni belgilaydi. Shu bilan birga, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni berish orqali davlat boshqaruvida turli jinsdagi shaxslarning ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi kafolatlanadi.

Xorijiy tajribaga muvofiq, davlat tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun turli imtiyozlar belgilangan, xususan, xususiy korxonalar va davlat organlarida davlat xizmatiga kirishda nogironligi bo'lgan va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun kvota tizimi yaratilgan. Masalan, Buyuk Britaniyaning 1944-yil 1-martdagi Nogironlar (bandlik) to'g'risidagi qonunining 10-bobida barcha tashkilotlarda xodimlar sonining kamida uch foizi doirasida nogiron uchun kvota belgilangan (Charles, 2007). Germaniyada 2001-yil 19-iyunda qabul qilingan Ijtimoiy kodeksning "Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish" bobiga ko'ra, agar xususiy va davlat sektoridagi ish beruvchilar yiliga o'rtacha 20 ta ish o'rniga ega bo'lsa, bu ish o'rinlarining kamida 5 foizi nogironligi bo'lgan shaxslarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ajratilishi kerak, aks holda ish beruvchida tegishli javobgarlik yuzaga kelishi mumkin (Kokh, 2004). Fransiyada 1987-yildagi Bandlik to'g'risidagi qonun umumiy ishning ulushi va mehnatning og'irligiga qarab nogiron ishchilar uchun kvota tizimini

joriy etdi (Barnay et al., 2015). Bunda asosiy e'tibor nogironligi mavjud bo'lgan shaxslar va nogironligi mavjud bo'lmagan shaxslarning xususiy yoki davlat tashkilotlariga ishga kirishi uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lib, bu o'z navbatida boqimandalikning oldini olishga va bandlik muammosining ijobiy hal etilishiga olib keladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Yevropaning aksariyat mamlakatlarida davlat fuqarolik xizmati quyidagi xususiyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi, jumladan:

1. Tizimni bo'ysunuvchan tashkil etish, davlat xizmatining har bir darajasini batafsil me'yoriy tartibga solish;
2. Davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni tanlashning "yopiq" tizimi mavjudligi;
3. Davlat fuqarolik xizmatchisining yuqori huquqiy va ijtimoiy maqomini mustahkamlash, uning lavozimda ko'tarilishi, ish haqi va imtiyozlari asosan davlat xizmatidagi ish staji va egallab turgan lavozimiga bog'liq;
4. Davlat xizmatchilarini ishdan bo'shataishning murakkab jarayoni mavjudligi (Lapa, 2010).

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Germaniyada ham ushbu tizimda davlat fuqarolik xizmatiga oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan eng yaxshi o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan yosh mutaxassislarni saralab olishning ko'p bosqichli tizimi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, xodimlarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish kafolatlarining to'liq tizimi, shuningdek, Turkiyada ham kuzatiladigan "umrbod lavozimga tayinlash" tamoyilining amalga oshirilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Turli xil ish turlari uchun davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyatni birlashtirish mumkin bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, uzluksiz ta'lim davlat xizmatlari tizimida yuksalishning zaruriy sharti hisoblanadi. Ushbu lavozimni egallash huquqi uchun imtihon majburiy (ma'muriy huquq va yer huquqi, muayyan faoliyat soha-

sidagi ishlarni qonunchilik yo'li bilan tartibga solish) va fakultativ fanlar (kasbiy etika, menejment va boshqalar) bo'yicha topshiriladi. Bu, o'z navbatida, nazariy jihatdan muhimdir. Bundan tashqari, yuridik ma'lumotga ega xodimlar ulushi 65 foizni tashkil etishi e'tiborga molik. Agar nomzod oliy toifali lavozim uchun yuridik ma'lumotga ega bo'lmasa, u ikki yil davomida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida zarur tayyorgarlikdan o'tishi kerak bo'ladi (Persnikova, 2019).

Endi ushbu davlat xizmatining o'tishini ko'rib chiqamiz, ya'ni davlat fuqarolik xizmatining o'tishi davlat xizmati instituti bo'lib, u quyidagi huquqiy normalardan iborat: davlat lavozimini egallash; turli davlat organlari xodimlarining maxsus kasbiy tayyorgarligi; o'rindoshlik asosida ishlash; xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishi va huquqlarini amalga oshirishi; malaka darajalari, maxsus unvonlar berish tartibi; xodimlarni rag'batlantirish va javobgarlikka tortish; davlat xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish; xizmatda harakatlanish; xizmatni o'tash shartlari; davlat fuqarolik xizmatchilarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish (kafolatlar, imtiyozlar, kompensatsiyalar); davlat fuqarolik xizmatini tugatish asoslari va usullari (Xojiyev, 2004). Fikrimizcha, bunga qo'shimcha ravishda davlat xizmatchilari zaxirasining kiritilishi, rotatsiya jarayonlari, qolaversa, ushbu tushunchalarning mehnat huquqi nazariyasidagi ahamiyatini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, davlat xizmatini o'tash davlat xizmatchisining huquqiy maqomiga ta'sir ko'rsatadigan yuridik faktlar va hokimi-

yat subyektlarining individual aktlari tizimidir. Bu davlat lavozimini egallagan shaxsning rasmiy maqomini oshirishdir (Mirboboyev et al., 2005). Davlat xizmatchilari davlatning strategik vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, raqamlashtirish va hukumatning ochiqqligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning faoliyati davlat va jamiyat o'rtasidagi bo'g'in bo'lib, hukumat qarorlari ijrosini ta'minlaydi. Davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan uning kadrlar sifati va davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi. Ularining huquqiy maqomini oshirish davlat xizmatini isloh qilish, zamonaviy, samarali va zamonaviy davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish bevosita inson resurslarini boshqarishni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra, aksariyat davlat fuqarolik xizmatchilarini ishga qabul qilish jarayonida ish beruvchi (davlat, davlat organi yoki tashkilot) bilan mehnat shartnomasi (kontrakt) tuziladi. Davlat fuqarolik xizmati lavozimiga nomzod tanlab olinganidan keyin tegishli organ tomonidan lavozimga tayinlash to'g'risida buyruq chiqariladi. Davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishni rasmiylashtirishning tashkiliy-huquqiy usuli davlat tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjat bo'lib, unga ko'ra, shaxsning tegishli lavozimda davlat xizmatchisi maqomiga va mansabdorlik huquq va majburiyatlariga ega bo'lishi mumkin hisoblanadi.

REFERENCES

1. Bakhrakh, D. N. (1996). Gosudarstvennaya sluzhba: osnovnye ponyatiya, yeye sostavlyayushchie, soderzhanie i printsipy [Civil service: basic concepts, its components, content and principles]. *Gosudarstvo i pravo [State and Law]*, 12, 10.

2. Barnay, T., Duguet, E., Le Clainche, C., & Videau, Y. (2015, December). The impact of the French Law 1987 on the employment of disabled people: an evaluation by the triple difference methodology. *Special Issue on Health and Labour Economics*, 119/120, 39–64
3. Cambridge dictionary. (n.d.). <https://dictionary.cambridge.org/ru/>
4. Channov, S. E. (2010). Administrativno-pravovaya model regulirovaniya sluzhebnykh otnosheniy v Rossiyskoy Federatsii: kontseptsiya i osnovnye osobennosti [Administrative-legal model for regulating official relations in the Russian Federation: concept and main features]. [Abstract of Doctoral Dissertation]. Saratov.
5. Charles, W. (2007). Equality of Opportunity for Racial Minorities in the UK Civil Service: The Impact of Organisational Culture. [PhD Thesis]. Cardiff University.
6. Chistova, V. A. (2018). Sluzhebnyaya distsiplina kak sistema pooshchreniy dlya gosudarstvennykh sluzhashchikh [Service discipline as a system of incentives for civil servants]. *Severokavkazskiy yuridicheskiy byulleten [North Caucasus Legal Bulletin]*, 3, 82–86.
7. Dobrobaba, M. B. (2006). Administrativno-pravovoy status gosudarstvennykh sluzhashchikh subyektov Rossiyskoy Federatsii [Administrative and legal status of civil servants of the constituent entities of the Russian Federation] (p. 23). [Doctoral Dissertation]. Krasnodar: RGB Publ.
8. Gasanov, M. Yu. (2016). *Trudovoe zakonodatelstvo Respubliki Uzbekistan. Obshchaya chast [Labor legislation of the Republic of Uzbekistan. General part]* (p. 320). Tashkent: LESSON Publ.
9. Gusov, K. N., & Tolkunova, V. N. (2005). *Trudovoe zakonodatelstvo Rossii [Russian Labor Law]* (p. 469). Moscow: TK Velbi, Prospekt Publ.
10. Ivannikov, I. A. (2003). *Problemy gosudarstva i prava Rossii v nachale XIX veka [Problems of the state and law of Russia at the beginning of the 19th century]* (p. 175). Rostov n/D: Rostov State University Publ.
11. Xojiyev, E., & Xojiyev, T. (2008). *Ma'muriy huquq [Administrative law]* (p. 241). Tashkent: Fan va texnologiya Publ.
12. Xojiyev, E. T. (2015). *Davlat xizmati [Civil service]* (pp. 82; 172). Tashkent: Baktria Publ.
13. Xojiyev, E. T. (2004). *Davlat xizmati [Civil service]* (p. 77). Tashkent: TSIL Publ.
14. Kozlova, Yu. M., & Popova, L. L. (2000). *Administrativnoe pravo [Administrative law]* (p. 211). Moscow: Yurist Publ.
15. Kokh, M. (2004). Disability Law in Germany: An Overview of Employment, Education and Access Rights. *German Law Journal*, 5 (11), 2
16. Lapa, Y. P. (2010). Reformirovanie rossiyskoy gosudarstvennoy sluzhby: vozmozhnost primeneniya nemetskogo opyta [Reforming the Russian civil service: the possibility of applying German experience.]. *Sibirskiy yuridicheskiy vestnik [Siberian Legal Bulletin]*, 3.
17. Mirziyoyev, Sh. (2016). Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi [We will build a free, prosperous, democratic state of Uzbekistan together with our brave and noble people. Speech at a joint session of the chambers of the Oliy Majlis dedicated to the solemn ceremony of the inauguration of the President of the Republic of Uzbekistan]. <https://president.uz/oz/lists/view/111>
18. Mirboboyev, B., Khusanov, O. T., & Begmatov, A. (2005). *O'zbekistonda davlat xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy masalalari [Organizational and legal issues of organizing civil service in Uzbekistan]* (p. 139). Tashkent: Akademiya Publ.
19. People's Republic of China. (2005, April). On State Civil Service. http://www.gov.cn/flfg/2005-06/21/content_8249.htm
20. Pershikova, Ye. V. (2019). Problemy reformirovaniya gosudarstvennoy grazhdanskoy sluzhby v Rossii: istoricheskoe razvitie i sovremennoe sostoyanie [Problems of reforming the state civil service in Russia: historical development and current state]. *Vestnik magistratury [Bulletin of the Magistracy]*, 8-1 (95).

21. Perederin, S. V. (2019). Zakonodatelstvo o distsiplinarnoy otvetstvennosti: tekushchee sostoyanie i tendentsii razvitiya [Legislation on disciplinary liability: current status and development trends]. *Vestnik Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya: Pravo [Bulletin of Voronezh State University. Series: Law]*, 1 (36), 224–239.

22. Romanovskiy, N. V. (1997). *Metodologicheskie osnovy organizatsii gosudarstvennoy sluzhby [Methodological foundations of the organization of civil service]* (p. 107). Theoretical problems of public administration and civil service. Moscow: RAGS Publ.

23. Stewart, W. J. (2006). *Collins Dictionary of Law*.

24. Tadjixonov, U. T. (1996). *Davlat xizmati: tajriba – muammolar [Civil service: experience — problems]* (p. 95). Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Publ.

25. Vengerov, A. B. (1999). *Teoriya gosudarstva i prava [Theory of state and law]*. (p. 33). Moscow: Yurisprudentsiya Publ.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./MRDS1400

UDC: 349.6(045)(575.1)

ATROF TABIIY MUHIT VA ENERGETIKA SOHASIDA EKOLOGIK HUQUQIY TALABLARNI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIK

Xayitov Panji Buxarovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

ORCID: 0009-0005-9482-2260

e-mail: pxayitov7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada atrof tabiiy muhit hamda energetika sohasida ekologik-huquqiy me'yorlarga rioya qilinmasligi oqibatida yuzaga keladigan yuridik javobgarlik tizimi milliy va xalqaro nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Ekologik qonunchilikni takomillashtirish, yashil energetika taraqqiyotining huquqiy asoslarini shakllantirish va kelajak istiqbollarini yanada rivojlantirishga doir muhim masalalar yoritilgan. Shuningdek, Yangi O'zbekiston energetika tizimini barqaror rivojlantirishdagi konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyillar, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari va energiya huquqi manbalarining milliy hamda xalqaro ahamiyati o'rganilgan. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularning huquqiy tartibga solinishi va ilmiy tadqiqotlarda qo'llanilishiga oid nazariy qarashlar ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: atrof tabiiy muhit, energetika tizimi, yashil energiya, qayta tiklanuvchi manbalar, energiyani tejash, ekologik xavfsizlik, yoqilg'i-energetika resurslari, yuridik javobgarlik

ЮРИДИЧЕСКАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА НАРУШЕНИЕ ЭКОЛОГИКО-ПРАВОВЫХ ТРЕБОВАНИЙ В СФЕРЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЭНЕРГЕТИКИ

Хайитов Панжи Бухарович,

доктор философии по юридическим наукам,
самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье с национально-правовых и международно-правовых позиций проанализирована система юридической ответственности, возникающая вследствие несоблюдения эколого-правовых норм в сфере охраны окружающей природной среды и энергетики. Освещены важнейшие вопросы совершенствования экологического законодательства, формирования правовых основ развития зелёной энергетики, а также перспектив её дальнейшего становления. Кроме того, исследованы конституционно-правовые принципы устойчивого развития энергетической системы Нового Узбекистана, проблемы обеспечения экологической безопасности и значение источников энергетического права в национальном и международном измерениях. Также рассмотрены теоретические подходы к рациональному использованию природных ресурсов, их правовому регулированию и применению в научных исследованиях.

Ключевые слова: окружающая среда, энергетическая система, зелёная энергия, возобновляемые источники энергии, энергосбережение, экологическая безопасность, топливно-энергетические ресурсы, юридическая ответственность

LEGAL LIABILITY FOR VIOLATION OF ENVIRONMENTAL LEGAL REQUIREMENTS IN THE FIELD OF NATURAL ENVIRONMENT AND ENERGY

Khayitov Panji Bukharovich,

Independent Researcher at Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. In this article, the system of legal responsibility arising from non-compliance with environmental and legal norms in the field of the environment and energy was analyzed from a national and international point of view. Important issues related to the improvement of environmental legislation, the formation of the legal framework for the development of green energy, and the further development of future prospects are highlighted. Also, the constitutional and legal principles of sustainable development of the energy system of New Uzbekistan, issues of ensuring environmental safety, and the national and international significance of energy law sources were studied. Theoretical views on the rational use of natural resources, their legal regulation and application in scientific research are also analyzed.

Keywords: environment, energy system, green energy, renewable resources, energy saving, environmental security, fuel and energy resources, legal liability

Kirish

Yurtimizda iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida respublikaning turli hududlarida bunyodkorlik ishlari keng miqyosda olib borilmoqda. Shu bilan birga, ularda muhitning ko'rinishi ham sezilarli darajada yangilanmoqda. Bugungi kunda fuqarolar duch kelayotgan asosiy muammolardan biri – energiya ta'minoti masalasidir. Butun dunyoda iqlim o'zgarishi, aholi sonining ortishi va sanoat ishlab chiqarishining kengayishi yoqilg'i va energiyaga bo'lgan talabni oshirmoqda. Ayniqsa kuz-qish mavsumlarida energiya va issiqlikka bo'lgan ehtiyoj yanada kuchayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston –2030 strategiyasi" (11.09.2023-yildagi PQ-300-son) ushbu masalaga alohida e'tibor qaratgan, respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish va atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash

mexanizmlarini takomillashtirish, atrof-muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish tizimini rivojlantirish belgilangan.

Rivojlanayotgan davlatlarda sanoatlashish jarayoni bilan elektr energiyasiga bo'lgan talab ortib boradi. Daromadning oshishi, o'rta sinfning rivojlanishi va turmush darajasining yaxshilanishi energiya iste'molini ko'paytiradi. Hozirda yer yuzida iste'mol qilinadigan birlamchi energiyaning taxminan beshdan biri shamol, quyosh, gidro va geotermal energiya kabi qayta tiklanuvchi manbalardan olinadi. Ushbu sektor 2040-yilga kelib yillik 2,6 % o'sish bilan rivojlanishi kutilmoqda.

Shamol va quyosh energiyasi ob-havo sharoitiga bog'liq bo'lib, talab yuqori bo'lgan vaqtlarda ularning ishlab chiqarish imkoniyati cheklangan bo'lishi mumkin. Shu sababli ko'plab davlatlar energiya ishlab chiqarishining ishonchli manbalarini zaxirada saqlashni afzal ko'rmoqda. Bu atom, gaz va ko'mir stansiyalarining to'liq yoki qisman ishlashini nazarda tutadi. Shu bilan birga, shamol es-

ganda yoki quyosh botganda ishlab chiqarish darajasi ortadi.

Energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlik masalasi huquqiy javobgarlik nazariyasidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, mazkur sohadagi ekologik-huquqiy talablarning buzilishi bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar mavjud emas.

Maqolada elektr energetika tizimidagi muammolar, energetika xavfsizligi va ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik masalalari tahlil qilindi. Tadqiqotda induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish va ularning talabini oshirish bo'yicha tahlillar asosida takliflar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi ma'lumotlariga tayanib, statistik, solishtirma va tanlama kuzatuv usullari ishlatildi.

Shamol energiyasidan foydalanishni samarali rivojlantirishda shamol energiyasi potentsiali va xarakteristikasini aniqlash bu birinchi qadam bo'lib, shamol energiyasi resurslarini baholash shamol stansiyasi loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning ajralmas qismi hisoblanadi. Baholashning asosiligi elektr energiyasini ishlab chiqarish xarajatlari va iqtisodiy ustunligiga bevosita ta'sir qiladi (Mauritzen, 2020).

Shamol o'zgaruvchanligining vaqt bo'yicha xarakteristikasi, ma'lum bir hudud uchun shamol tezligi chastotasining taqsimot funksiyasini tavsiflashda muhim omil sanaladi (Daaou et al., 2018).

Shamol tezligi taqsimotini aniqlash uchun odatda ikki xil usuldan foydalaniladi: birinchidan, vaqt bo'yicha qatorlar usuli (Morales et al., 2010); ikkinchidan, statistik tahlil usulidir (Ouarda et al., 2010).

Vaqt bo'yicha qatorlar usulining natijasi aniqroq bo'lishi mumkin, chunki u shamol tezligi haqidagi dastlabki ma'lumotlarga asoslanadi. Biroq katta hajmdagi ma'lumotlarda vaqt bo'yicha qatorlar usuli bilan tahlil qilish jarayoni murakkablashadi. Statistik

tahlil usuli shamol tezligi taqsimotini tavsiflash uchun cheklangan parametrlardan foydalanadi, bu samarali va sodda usul hisoblanadi (Huanyu et al., 2021).

Shamol tezligi ehtimolligining taqsimot funksiyasi shamol energetik tizimlarini baholash uchun juda muhim. Haqiqatda shamol energiyasi tizimlarining energetik xarakteristikalari ehtimolligining taqsimot funksiyasi shamol tezligi o'zgarishiga mos kelishiga bog'liq. Shamol tezligi taqsimotini o'zlashtirgan holda istalgan hududning texnik va iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tekshirish mumkin.

Ikki parametrlı Weibull taqsimot funksiyasi hozirgi kunda shamol tezligi taqsimotini ifodalashning umumiy qabul qilingan samarali usuli hisoblanadi (Bilir et al., 2015).

O'zbekistonning 12 ta hududi uchun shamol energiyasi va uning texnik salohiyati Arian Bahrami va uning jamoasi tomonidan 10 metr balandlikdagi shamol tezliklariga Weibull taqsimot funksiyasini qo'llash yordamida baholangan (Arian & Amir, 2019). Dunyo bo'yicha 2020-yilga kelib, global elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) ulushi 26 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yil so'ngigacha kelib 38 foizni tashkil etdi (IRENA, 2021).

Shamol energiyasidan foydalanishni samarali rivojlantirishda shamol energiyasi potentsialini va xarakteristikasini aniqlash bu birinchi qadam bo'lib, shamol energiyasi resurslarini baholash shamol stansiyasi loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslashning ajralmas qismi hisoblanadi. Baholashning asosiligi elektr energiyasini ishlab chiqarish xarajatlari va iqtisodiy ustunligiga bevosita ta'sir qiladi (Rakhimov et al., 2022).

Shamol o'zgaruvchanligining vaqt bo'yicha xarakteristikasi, ma'lum bir hudud uchun shamol tezligi chastotasining taqsimot funksiyasini tavsiflashda muhim omil sanaladi (Mauritzen, 2020).

2021-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o'tish yili

bo'ldi. Bunda jahon miqyosida deyarli 257 GW qayta tiklanadigan energiya qo'shildi va bu qayta tiklanadigan energiya zaxirasini 9,1 foizga oshirdi hamda global energiya qo'shimchalarining misli ko'rilmagan 81 foizini tashkil etdi (IRENA, 2021).

Asosiy qism

Energetika tizimida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlik normalari yuridik javobgarlikning mazmuni va funksiyalarini belgilaydi. Bu normalar asosida javobgarlik yuzaga keladi. Yuridik javobgarlik funksiyalarini tahlil qilish, birinchi navbatda, qonunchilik samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Energiya sohasida huquqiy javobgarlikning asosiy tushunchalari quyidagilar:

- g'ayriijtimoiy xulq-atvor – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalarini buzish;
- huquqbuzarlik – huquq normalariga zid keluvchi va shaxs, mulk yoki jamiyatga zarar yetkazuvchi qilmish;
- huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi – zarar yetkazilgan shaxs;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi – huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari;
- huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs – huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan shaxs.

Energetika sohasida huquqiy javobgarlik quyidagicha tasniflanadi: iqtisodiy, intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy-huquqiy javobgarlik. Iqtisodiy javobgarlik turiga energiya resurslaridan noqonuniy yoki besamar foydalanish oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplash kiradi. Shunday qilib, energiya sohasida qonun talablarini buzganlikning oldini olish va unga qarshi kurashish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Mazkur muammoning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ko'rib chiqilib, kelgusi yildan elektr energiyasini sotishdan tushadigan mablag'larning 15 foizini investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va kreditlarni qay-

tarish uchun yo'naltirish lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, yurtboshimiz qo'shni davlatlar energiya tizimlariga tranzit xizmati ko'rsatish, buning uchun qo'shni davlatlar bilan muzokaralarni yo'lga qo'yib, respublikaning tranzit va eksport salohiyatidan unumli foydalanish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqilishi bo'yicha tegishli vazirlik va mutasaddilarga topshiriq berdi. Energiya ishlab chiqaruvchi yangi quvvatlarni yaratish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish "O'zbekenergo" jamiyatining asosiy vazifasi bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Shuning uchun har bir fuqaro, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar energiya manbalaridan oqilona foydalanishi va energetika sohasidagi qonunlarga rioya qilishi muhimdir. Ular nafaqat qonun talablarini yaxshi bilishi, balki ularni amalda qo'llashi, yashash sharoitida to'g'ri tatbiq etishi va belgilangan muddatlarda bajarishi zarur.

Energiya sohasidagi huquqbuzarliklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari yuridik javobgarlikka tortishning asosini tashkil etadi. Uning asosiy maqsadi energiya sohasidagi huquqbuzarliklar va qonun buzilishlariga qarshi kurashish hamda energetika qonunchiligini ta'minlashdan iborat.

Elektr energiyasidan noto'g'ri foydalanish yoki energetika sohasidagi boshqa huquqbuzarliklar yuridik javobgarlikni yuzaga keltiradi. Bunday holatlar O'zbekiston Respublikasining energetika tizimi va siyosatiga zid ravishda energiyadan oqilona foydalanish tartiblarini buzish bilan bog'liq xatti-harakat yoki harakatsizlik natijasida sodir bo'ladi.

Bu turdagi huquqbuzarlikning asosiy xususiyatlariga energiyadan oqilona foydalanish talablariga zidlik, ijtimoiy xavflilik, aybning mavjudligi va jazoga tortish ehtiyoji kiradi. Shuningdek, bunday huquqbuzarlik davlatning energetika tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan aniqlanadi.

Energiya sohasidagi huquqbuzarliklar tarkibiga subyekt, subyektiv tomon, obyekt

va obyektiv tomon kiradi. Ular energiyadan noaniq yoki noto'g'ri foydalanish oqibatida tizimga yetkazilgan zarar va ushbu holatlar-ning xususiyatlari asosida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonunining 56-moddasiga muvofiq, Energetika bozori regulatori quyidagi shaxslarga nisbatan ushbu Qonunda va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan jazo choralarini qo'llashi mumkin: ushbu Qonun qoidalarini yoki Energetika bozori regulatori tomonidan belgilangan qoidalarini yoki talablarni buzgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsga; ushbu Qonunga muvofiq asoslar mavjud bo'lganda har qanday litsenziatga. Energetika bozori regulatori tomonidan aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Agar ushbu talablar buzilsa, mansabdor shaxslar quyidagi holatlar bo'yicha ma'muriy javobgarlikka tortiladi: energiya sifat ko'rsatkichlari buzilgan; energiyaning bevosita yo'qotilishi aniqlangan; energiya samaradorligi normativlarga mos kelmaydigan mahsulot ishlab chiqarilgan; energiya sarfi hisobga olinmagan; sertifikatlashtirilmagan asbob-uskunalaridan foydalanilgan; ikkilamchi energiya resurslarining belgilangan ulushi ishlatilmagan. Shu bilan birga, ma'muriy jazo energiya sohasida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslarni yetkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Jismoniy shaxslar ham energiyadan nooqilona foydalanganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi. Masalan, energiya yetkazib beruvchi energiya ta'minotini kelishmasdan to'xtatib qo'ysa, foydalanuvchilarga yetkazilgan zarar qonuniy tartibda qoplanadi.

Energetika sohasida huquqbuzarliklar qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi mumkin. Ular energiyadan oqilona foydalanish talablarini buzish, energetika tizimiga zarar yetkazish yoki inson salomatligi va yashash muhitiga xavf tug'dirish orqali namoyon bo'ladi.

Energiya sohasidagi huquqbuzarliklar tarkibi va belgilari amaldagi qonunlarda "javobgarlikka tortish", "javobgarlikni kuchaytirish", "javobgarlikdan ozod etish", "javobgarlikni bekor qilish", "javobgarlik turlari" va "javobgarlikni yengillashtirish" kabi atamalar orqali ifodalanadi. Bu terminlar asosan yuridik javobgarlik turlariga nisbatan qo'llaniladi.

Energetika sohasidagi huquqbuzarlikning o'ziga xos belgilari quyidagilar:

1. Ayblilik – huquq normalarini buzgan shaxs javobgarlikni zimmasiga oladi va bu harakat ko'pincha qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir bo'ladi. Tasodifiy zarar yoki baxtsiz hodisa energetika huquqbuzarligiga kirmaydi.

2. Ijtimoiy xavflilik – huquqbuzarlik jamiyat, davlat energiya tizimi va boshqaruviga, shuningdek, iste'molchilarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazadi.

3. Normalarga ziddlik – energetika huquqbuzarlik sodir etilganida qonun yoki normativ talablar buziladi. Agar taqiqlar buzilmasa, huquqbuzarlik mavjud deb hisoblanmaydi.

4. Jazoga sazovorlik – huquqbuzarlik sodir etgan shaxs vakolatli davlat organlari tomonidan javobgarlikka tortiladi. Ayrim hollarda qonuniy ravishda javobgarlikdan ozod etish ham mumkin, ammo buni ham vakolatli organlar amalga oshiradi.

Energetika sohasidagi huquqbuzarlik tarkibiga subyekt, obyekt, subyektiv tomon va obyektiv tomon, shuningdek, tizimga yetkazilgan zarar kiradi.

Huquqbuzarliklar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Intizomiy-huquqiy – mehnat intizomiga rioya qilmaslik, ishga kechikish yoki kelmaslik.

2. Ma'muriy-huquqiy – energiyadan foydalanish bo'yicha qonun talablarini buzish.

3. Fuqaroviy-huquqiy – shartnoma va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik oqibatida moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazish.

4. Jinoiy-huquqiy – energetika sohasidagi jinoyatlar sodir etish.

Sodir etilgan energetikaga oid huquqbuzarliklarning turiga, ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab davlat majburlov choralari ham o'tkazishi mumkin. Umuman olganda, energetika sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklarga nisbatan qo'llaniladigan choralarning xususiyati shundaki, ularning eng og'irlari jinoyat qonun hujjatlariga asosan qo'llaniladi (Xolmo'minov, 2022).

Jamiyatimiz hayotidagi eng muhim va dolzarb tamoyillardan biri – qonun ustuvorligi hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar faqat qonun asosida tartibga solinadi va uning barcha ishtirokchilari huquq normalarini buzganlik uchun istisnosiz javobgarlikka tortiladi.

Huquqiy adabiyotlarda yuridik javobgarlikning turlari va ularning funksiyalari keng muhokama qilingan. Shu bilan birga, yuridik javobgarlik funksiyalari soni va ularning mohiyati olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi.

Masalan, I.A. Talagan ma'muriy javobgarlikning maxsus funksiyalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi: jarima, jazo va tuzatish funksiyasi hamda huquqbuzarlarni qayta tarbiyalash.

U.T. Ayubovning fikricha, ekologiyaga oid qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik umumiy yuridik javobgarlik tamoyillari va maqsadlariga mos keladi, biroq o'ziga xos xususiyatlarga ega (Ayubov & Ruzinazarov, 2019). Bu xususiyatlar orasida yetkazilgan zarar miqdorini hisobga olib undirish va ekologik qonunlarni buzganlik uchun maxsus jazo choralari qo'llash kiradi. Bunga tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, vaqtincha to'xtatib turish yoki umuman mahrum qilish kabi choralar kiradi.

Shunday qilib energetika sohasida ekologik huquqiy talablarni buzganlik uchun javobgarlik, energetika sohasidagi buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklash va ushbu sohada o'rnatilgan huquq-tartibotni saq-

lashga qaratilgan choralarning majmuasini ifodalaydi.

Bu fikr Y.S. Shemshuchenko tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. U o'z asarlarida yozadiki: "Yuridik javobgarlik atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida keng qo'llaniladigan yuridik javobgarlikning turli turlari – ma'muriy, moddiy, intizomiy va jinoiy javobgarlik majmuasidan alohida narsa emas". (Shemshuchenko, 2004).

Energetika sohasida qonun talablarini buzganlik yuzaga kelganda ijtimoiy munosabatlar energetika sohasidagi huquqbuzarlik doirasida shakllanadi. Energetika sohasidagi huquqbuzarlik, energiya resurslaridan foydalanish qoidalarini buzuvchi aybli, noqonuniy harakat yoki harakatsizlik sifatida tushuniladi. Energiyadan nooqilona foydalanganlik uchun jismoniy shaxslarning javobgarligi amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qonunining 45-moddasiga muvofiq, Reaktiv quvvat kompensatsiyasi bo'yicha ishlarni tashkil etish tartibini buzish yoki unga rioya etmaslik – asbob-uskunalar yoki normativ usullar bilan aniqlangan isrof bo'lgan elektr energiyasi miqdori qiymatining ellik foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilari tomonidan elektr yoritgichlardan qonunchilikda belgilangan normalardan ortiqcha, ishlab chiqarish zaruriyati bo'lmagan holda foydalanish, shuningdek, hududlarni kunning yorug' davri davomida maqsadsiz yoritish – normadan ortiqcha yoki kunning yorug' davrida foydalanilgan elektr energiyasi qiymatining ellik foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Energiya iste'molchilariga sifat ko'rsatkichlari davlat standarti talablariga javob bermaydigan elektr energiyasi yetkazib berish – sifatsiz yetkazib berilgan elektr energiyasi qiymatining bir foizi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Shartnoma majburiyatlari bajarilmagan yoki yetarlicha bajarilmagan hollarda, energiya bilan ta'minlovchi tashkilot yetkazilgan zarar miqdorini qoplashga, abonent esa shartnoma bo'yicha yetkazilgan haqiqiy zarar miqdorini qoplashga majburdir. Bu tartib O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 24-, 35-moddalari-da mustahkamlangan.

Shuningdek, sud qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5059-son Farnoni (29.05.2017) energiya resurslari, xususan, elektr energiyasi va tabiiy gaz sohasida to'lov intizomini kuchaytirish, noqonuniy ulanishlar va talon-torajning oldini olish, shuningdek, sud hujjatlari ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilingan bo'lib, Majburiy ijro byurosi (MIB)ni tashkil etish, unga energiya hisobini nazorat qilish, qarzdorliklarni undirish va energiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha keng vakolatlar berish kabi asosiy chora-tadbirlar doirasida tashkil etilgan.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar to'rtta asosiy belgi bilan xarakterlanadi: ijtimoiy xavflilik, huquqqa ziddlik, ayblilik va jazoga sazovorlik. Ushbu jinoyatlar jamiyat, tabiiy muhit va davlat manfaatlariga xavf tug'diruvchi harakat yoki harakatsizliklar sifatida qabul qilinadi. Ularni jinoiy ta'sirdan himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning asosiy vazifalaridan biri bo'lib, JKning 193-moddasida ekologiya sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, ya'ni qonun bilan qo'riqlanadigan tabiiy muhitga oid munosabatlar, umumiy obyekt sifatida belgilangan.

Masalan, 2023-yilda prokuratura organlari mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shuningdek, jamiyat va davlatning qonun bilan himoyalangan manfaatlarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish

bo'yicha keng qamrovli ishlar olib bordi. Shu doirada elektr tarmoqlariga noqonuniy ulanishlar bilan bog'liq 1 037 ta jinoyat va 41 500 ta ma'muriy ish qo'zg'atilgan. Yoqilg'i-energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash va noqonuniy ulanishlarning oldini olish maqsadida 53 mingga yaqin holat bo'yicha reytd tadbirlari o'tkazilib, natijada 1 037 ta jinoyat va 41 500 ta ma'muriy ishlar aniqlangan hamda yetkazilgan zarar 581 milliard so'm undirilgan. Masalan, Toshkent viloyatida yashovchi Raximov R. chet el fuqarosi bilan birgalikda litsenziyasiz mayning faoliyati bilan shug'ullanib, elektr tarmog'iga noqonuniy ulangan. Natijada davlat manfaatlariga jami 1 mlrd 545 mln so'm zarar yetkazilgan. Ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, aybdorlarga nisbatan jazo muqarrarligi ta'minlangan (Agency of Information and Mass Communications, 2023).

Xulosa

Yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishni chuqur o'rganish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflar muhimdir:

1. Yoqilg'i-energetika sohasidagi eskirgan infratuzilmani modernizatsiya qilish.
2. Mavjud elektr stansiyalarini kapital ta'mirlash va yangi zamonaviy stansiyalarni barpo etish.
3. Qayta tiklanuvchi energiya qurilmalari uchun investorlarni va investitsiyalarni jalb etish.
4. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish va energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarga rioya etilishini ta'minlash zamonaviy davlatlarning barqaror rivojlanish strategiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Energetika sohasi iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanar ekan, unda amalga oshiriladigan har qanday faoliyat tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish va ekologik xavfsizlik masalalari bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bois energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzish nafaqat tabiatga zarar yetkazadi, balki jamiyat salomatligi, iqtisodiy barqarorlik va milliy xavfsizlikka ham jiddiy tahdid soladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzish holatlari turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jumladan, atmosfera havosiga me'yordan ortiq zararli chiqindilar chiqarish, suv va yer resurslarini ifloslantirish, chiqindilarni belgilangan talablarga zid ravishda joylashtirish, ekologik ekspertiza talablarini chetlab o'tish hamda ekologik litsenziya va ruxsatnomalarga amal qilmaslik kabi holatlar keng tarqalgan. Bunday huquqbuzarliklar ekologik muvozanatning buzilishiga, tabiiy resurslarning tiklanmas darajada kamayishiga va ekologik falokatlar xavfining ortishiga olib keladi.

Maqolada tahlil qilingan huquqiy normalar shuni ko'rsatadiki, ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun belgilangan yuridik javobgarlik institutlari – ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, jinoiy va iqtisodiy javobgarlik choralari – ekologik qonunchilikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, aybdor shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar qo'llash, faoliyatni cheklash yoki to'xtatish, yetkazilgan ekologik zararni qoplash majburiyatini yuklash kabi choralar huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktik ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari amaldagi qonunchilikda ayrim muammoli jihatlar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, ayrim ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarining yetarlicha qat'iy emasligi, ekologik nazorat mexanizmlarining samaradorligi pastligi, vakolatli organlar o'rtasidagi

muvofiqlashuvning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani huquqbuzarliklarning takrorlanishiga zamin yaratmoqda. Bu esa energetika sohasida ekologik xavf-xatarlarni kamaytirishga to'sqinlik qilmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda energetika sohasida ekologik-huquqiy javobgarlikni kuchaytirish, "ifloslantiruvchi to'laydi" prinsipini qat'iy qo'llash, ekologik audit va monitoring tizimlarini raqamlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Mazkur yondashuvlarni milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich joriy etish O'zbekiston Respublikasida ham ekologik huquqbuzarliklar sonini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, energetika sohasida ekologik huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tadbirkorlik subyektlari va mansabdor shaxslarning ekologik javobgarlik darajasini oshirish, aholining ekologik ongini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Faqatgina jazo choralari emas, balki profilaktika, rag'batlantirish va ochiqlikka asoslangan boshqaruv usullari orqali barqaror ekologik tartibni ta'minlash mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, atrof tabiiy muhit va energetika sohasida ekologik-huquqiy talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikni takomillashtirish – ekologik xavfsizlikni ta'minlash, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishning muhim huquqiy kafolatidir. Shu bois ushbu sohadagi qonunchilikni doimiy ravishda yangilab borish, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

REFERENCES

1. Agency of Information and Mass Communications. (2023). Briefing of Hayot Shamsuddinov – Head of the Information Service of the Prosecutor General's Office. Provided information on the work carried out by the Prosecutor's Office bodies to ensure the rule of law in 2023.

2. Arian, B., Amir, T., Chiemeka O. O., & Hamidreza, Sh. (2019). Technical and economic analysis of wind energy potential in Uzbekistan. *Journal of Cleaner Production* 223, 801–814. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0959652619308315?via%3>
3. Ayubov, U. T., & Ruzinazarov, Sh. (2019). *Yer huquqi [Land law]*. Tashkent.
4. Bilir, L., Imir, M., Devrim, Y., & Albostan, A. (2015). An investigation on wind energy potential and small-scale wind turbine performance at Incek regione Ankara, Turkey. *Energy Convers. Manag*, 103, 910–923. <https://doi.org/10.1016/J.ENCONMAN.2015.07.017>
5. Daaou H. N. S., Kheder H. A., & Balehouane, O. (2018, March). Guerri Optimal windy sites in Algeria: Potential and perspectives. *Energy*, 1240–1255. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0360544217320790?via%3Dihub>
6. Huanyu Sh., et. al. (2021). Wind Speed Distributions Used in Wind Energy Assessment: A Review. *Front. Energy Res., Sec. Wind Energy*, 9. <https://doi.org/10.3389/fenrg.2021.769920>
7. IRENA. (2021), Renewable capacity statistics 2021 International Renewable Energy Agency (IRENA). Abu Dhabi. <https://www.irena.org/publications/2021/March/Renewable-Capacity-Statistics-2021>
8. Mauritzen, J. (2020). Will the Locals Benefit. *Energ Policy*, 142. <https://doi:10.1016/j.enpol.2020.111489>
9. Morales, J. M., Mínguez, R., & Conejo, A. J. (2010). A Methodology to Generate Statistically Dependent Wind Speed Scenarios. *Appl. Energ*, 87 (3), 843–855. <https://doi:10.1016/j.apenergy.2009.09.022>
10. Narzullayev, O. Kh. (2025). Ecological and legal basis of biological diversity conservation. *Jurisprudence*, 5(SI), 100–109.
11. Ouarda, T. B. M. J., Charron, C., & Chebana, F. (2010). Review of Criteria for the Selection of Probability Distributions for Wind Speed Data and Introduction of the Moment and L-Moment Ratio Diagram Methods, with a Case Study. *Energ. Convers. Manag*, 12, 247–265. <https://doi:10.1016/j.enconman>
12. Rahimov, E. Y., Jamoldinov, F. Z., Daminov, A. K. (2022). O'zbekiston hududida shamol tezliklarini ERA5 ma'lumotlar asosida aniqlash imkoniyatini baholash [Assessment of the possibility of determining wind speeds in the territory of Uzbekistan based on ERA5 data]. *Energiya va resurs tejash muammolari [Energy and Resource Conservation Issues]*, 82, 132–139.
13. Shemshuchenko, Y. S. (2004). *Ekologicheskoe pravo [Environmental law]*. Moscow: Yurist Publ.
14. Usmanov, M. B., Rustambayev, M. H., & Xolmuminov D. T. (2001). *Ekologiya huquqi [Environmental law]*. (p. 92). Tashkent: Yozuvchi Publ.
15. Xolmo'minov, J. T. (2022). Energetika huquqi [Energy law] (pp. 291–292).

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 24.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./UDKU5347

UDC: 343.13(045)(575.1)

МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ПОДОЗРЕВАЕМОГО И ОБВИНЯЕМОГО В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

Лутфуллаева Мадинабону Жамшидхон кизи,
преподаватель кафедры «Уголовное-процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0009-0001-9332-7859
e-mail: madinalutfullaeva088@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются основные механизмы обеспечения прав подозреваемого и обвиняемого в уголовном процессе. Автор анализирует действующие процессуальные гарантии, роль адвоката в их реализации, а также проблемы, возникающие на стадии предварительного расследования. Особое внимание уделено практике применения норм законодательства Республики Узбекистан и международным стандартам защиты прав человека. На основе сравнительно-правового анализа предложены направления совершенствования национального законодательства, направленные на повышение эффективности защиты прав личности в уголовном судопроизводстве. В свою очередь в данном исследовании подчёркивается, что эффективность реализации прав подозреваемого и обвиняемого во многом зависит не только от формального закрепления процессуальных норм, но и от практики их применения правоохранительными органами. Отдельного внимания заслуживает анализ процессуального статуса подозреваемого и обвиняемого в контексте обеспечения баланса между интересами государства и правами личности.

Ключевые слова: уголовный процесс, подозреваемый, обвиняемый, адвокат, права личности, процессуальные гарантии, международные стандарты

JINOYAT PROSESSIDA GUMON QILINUVCHI VA AYBLANUVCHINING HUQUQLARINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI

Lutfullayeva Madinabonu Jamshidxon qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada jinoyat jarayonida gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlarini ta'minlashning asosiy mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan amaldagi protsessual kafolatlar, ularni amalga oshirishda advokatning roli, shuningdek, dastlabki tergov bosqichida yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarni qo'llash amaliyotiga alohida e'tibor qaratildi. Qiyosiy-huquqiy tahlil asosida jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan milliy qonunchilikni takomillashtirish yo'nalishlari taklif etilgan. O'z navbatida, ushbu

tadqiqotda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlarini amalga oshirish samaradorligi ko'p jihatdan nafaqat protsessual normalarning rasmiy mustahkamlanishiga, balki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ularni qo'llash amaliyotiga ham bog'liqligi ta'kidlangan. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining protsessual maqomini davlat manfaatlari va shaxs huquqlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash nuqtayi nazaridan tahlil qilish alohida e'tiborga loyiqdir.

Kalit so'zlar: jinoyat jarayoni, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, advokat, shaxsiy huquqlar, protsessual kafolatlar, xalqaro standartlar

MECHANISMS FOR ENSURING THE RIGHTS OF SUSPECTS AND ACCUSED PERSONS IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Lutfullaeva Madinabonu Jamshidkhon kizi,

Lecturer of the Department of Criminal Procedure Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. The article examines the main mechanisms for ensuring the rights of suspects and accused persons in criminal proceedings. The author analyzes the current procedural guarantees and the role of the advocate in their implementation, as well as the problems arising at the stage of preliminary investigation. Special attention was paid to the practice of applying the norms of the legislation of the Republic of Uzbekistan and international standards for the protection of human rights. Based on a comparative legal analysis, directions for improving national legislation aimed at increasing the effectiveness of protecting individual rights in criminal proceedings have been proposed. In turn, this study emphasizes that the effectiveness of the realization of the rights of the suspect and the accused largely depends not only on the formal consolidation of procedural norms but also on the practice of their application by law enforcement agencies. The analysis of the procedural status of the suspect and the accused in the context of ensuring the balance between the interests of the state and the rights of the individual deserves special attention.

Keywords: criminal proceedings, suspect, accused, lawyer, individual rights, procedural guarantees, international standards

Введение

В условиях построения правового демократического государства обеспечение прав и свобод личности в уголовном процессе является одним из ключевых направлений реформирования системы правосудия. Современная концепция уголовного судопроизводства ориентирована не только на выявление и наказание виновных, но и на защиту человека от незаконного и необоснованного привлечения к уголовной ответственности. Права подозреваемого и обвиняемого занимают центральное место в системе гарантий законности, справедливости и гуманизма уголовного процесса. Их реальная защита служит важным показателем уровня де-

мократизма и цивилизованности судебной системы. Однако, несмотря на наличие нормативных основ, закреплённых в Конституции и Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан, практика показывает, что механизмы реализации этих прав всё ещё требуют совершенствования. На стадии предварительного расследования и допроса именно подозреваемый и обвиняемый наиболее уязвимы перед государственными органами, обладающими властными полномочиями. Поэтому особое значение приобретает деятельность адвоката, независимость и профессионализм которого определяют реальную эффективность защиты прав личности.

В связи с этим актуальным становится научный анализ существующих процессуальных механизмов, направленных на обеспечение прав подозреваемого и обвиняемого, выявление пробелов в правовом регулировании и разработка практических рекомендаций по их устранению.

Целью данной статьи является всестороннее исследование механизмов обеспечения прав подозреваемого и обвиняемого в уголовном процессе, оценка их эффективности, а также выработка предложений по совершенствованию национального законодательства с учётом международных стандартов защиты прав человека.

Основная часть

Понятие и правовой статус подозреваемого и обвиняемого

Подозреваемый и обвиняемый – это ключевые субъекты уголовного процесса, права которых защищены на конституционном и процессуальном уровнях. Согласно Уголовно-процессуальному кодексу, *подозреваемый* – это лицо, в отношении которого в деле имеются данные о совершении им преступления, но недостаточные для привлечения его к участию в деле в качестве обвиняемого. О признании лица подозреваемым дознаватель, следователь или прокурор выносит постановление. *Обвиняемый* – это лицо, в отношении которого в установленном Уголовно-процессуальным кодексом порядке вынесено постановление о привлечении его к участию в деле в качестве обвиняемого. Обвиняемый в суде именуется подсудимым, а после вынесения приговора – осуждённым или оправданным.

Правовой статус этих лиц определяется Конституцией Республики Узбекистан, Уголовным кодексом и Уголовно-процессуальным кодексом, а также международными правовыми актами, такими как Европейская конвенция по правам человека. Центральными аспектами этого статуса

являются: право на защиту, право на обжалование действий органов следствия, недопустимость принуждения к даче показаний и право на информацию о своих процессуальных правах. Права и законные интересы подозреваемого, а также все элементы уголовно-процессуальных гарантий взаимосвязаны и находятся во взаимодействии друг с другом. В частности, между должностными лицами органов дознания и предварительного следствия, с одной стороны, и подозреваемым и его защитником – с другой, существуют определённые процессуально-правовые отношения, в рамках которых выполнение указанными должностными лицами своих обязанностей, установленных законодательством, выступает в качестве одного из элементов гарантии прав подозреваемого (Bazarova, 2021).

Что касается исторического аспекта, то исторически институт защиты в уголовном процессе Узбекистана формировался на базе советского уголовного права, где права подозреваемого и обвиняемого нередко носили формальный характер (Rakhimova & Khamzakhonov, 2022). После провозглашения независимости и принятия Конституции 1992 года наблюдается системное развитие уголовного судопроизводства, ориентированного на защиту прав личности и обеспечение состязательности процесса. Реформа уголовного процесса, включая внедрение института адвокатуры и расширение процессуальных гарантий, была направлена на соблюдение принципов законности, гуманности и справедливости, а также на интеграцию международных стандартов защиты прав человека в национальное законодательство.

Конституционные гарантии прав личности занимают центральное место в системе уголовного судопроизводства, поскольку именно они определяют фундаментальные рамки, в пределах которых

должны действовать правоохранительные органы. В соответствии с Конституцией Республики Узбекистан каждый гражданин обладает правом на защиту своих личных и имущественных интересов, а также на доступ к правосудию.

Реализация этих конституционных прав в уголовном процессе проявляется через обеспечение равенства сторон, запрет произвольного задержания, право на справедливое судебное разбирательство, а также право на защиту от незаконного вмешательства в личную жизнь. Эти принципы служат основой для выработки процессуальных механизмов, направленных на защиту подозреваемого и обвиняемого на всех этапах уголовного судопроизводства (Vlaslov & Shashkova, 2020).

Процессуальные права подозреваемого

Подозреваемый, как лицо, в отношении которого ведётся уголовное преследование, обладает комплексом процессуальных прав, закреплённых в Уголовно-процессуальном кодексе Республики Узбекистан:

1. Право на защиту

Одним из фундаментальных прав подозреваемого является право на юридическую защиту. Оно реализуется через возможность привлечения адвоката или защитника по назначению, который обеспечивает соблюдение прав подозреваемого на стадии предварительного следствия.

2. Право на информацию о предъявленных обвинениях

Подозреваемый обязан быть своевременно информирован о характере и основаниях обвинений против него. Это право позволяет ему подготовить защиту и адекватно реагировать на действия следствия.

3. Право на участие в следственных действиях

Подозреваемый имеет право присутствовать при проведении следственных

действий, давать объяснения, представлять доказательства и участвовать в допросах свидетелей. Данная гарантия обеспечивает прозрачность процесса и предотвращает возможные злоупотребления со стороны следственных органов.

Процессуальные права обвиняемого

Обвиняемый, в отличие от подозреваемого, официально признан лицом, в отношении которого выдвинуты обвинения. В этой связи уголовно-процессуальное законодательство расширяет спектр его прав.

1. Право на ознакомление с материалами дела

Обвиняемый имеет право на получение полной информации о доказательствах, собранных против него. Это включает право на изучение протоколов следственных действий, вещественных доказательств и других материалов, имеющих значение для защиты.

2. Право на ходатайства и обжалование процессуальных решений

Обвиняемый может подавать ходатайства о проведении следственных действий, обжаловать решения суда первой инстанции и действия следственных органов. Данный механизм является ключевым инструментом защиты прав и интересов обвиняемого.

3. Право на справедливое судебное разбирательство

Заключительным элементом защиты прав обвиняемого является гарантированное участие в справедливом судебном процессе, основанном на принципах состязательности, независимости суда и равенства сторон.

Что касается механизмов реализации и защиты прав подозреваемого и обвиняемого. Одним из ключевых механизмов защиты прав подозреваемого и обвиняемого является предоставление юридической помощи. В уголовном процессе это право реализуется через участие адвоката, который представляет интересы подозре-

ваемого или обвиняемого на всех стадиях производства.

Юридическая помощь может быть оказана как по инициативе самого лица, так и по назначению государства, если подозреваемый или обвиняемый не в состоянии самостоятельно оплатить услуги адвоката. Адвокат обеспечивает соблюдение процессуальных прав, проверяет законность действий следственных органов и участвует в составлении процессуальных документов.

Анализ практики Верховного суда Республики Узбекистан показывает, что эффективность защиты прав зависит от соблюдения процессуальных норм, своевременного привлечения адвоката и корректного применения временных мер. При несоблюдении этих условий права подозреваемого и обвиняемого могут быть нарушены, что создаёт предпосылки для признания действий следственных органов незаконными.

При рассмотрении вопроса о перспективе совершенствования механизма защиты прав выявлено, что наиболее уязвимой стадией является предварительное следствие, где нередко наблюдаются ограничение доступа к материалам дела и несвоевременное предоставление юридической помощи.

Эти проблемы приводят к риску нарушения конституционных прав личности и необходимости совершенствования законодательной базы.

Существуют случаи, когда адвокат сталкивается с препятствиями при ознакомлении с материалами дела или участии в следственных действиях. Это снижает эффективность защиты и создаёт правовую незащищённость подозреваемого или обвиняемого. Для повышения эффективности защиты прав подозреваемого и обвиняемого предлагается:

расширение полномочий адвоката на стадии предварительного следствия;

внедрение цифровых технологий для обеспечения доступа к материалам дела; повышение правовой грамотности граждан и правоохранителей.

Заключение

Таким образом, в настоящей статье проведён комплексный анализ механизмов обеспечения прав подозреваемого и обвиняемого в уголовном процессе Республики Узбекистан. Рассмотрены как конституционные основы защиты личности, так и конкретные процессуальные гарантии, закреплённые в Уголовно-процессуальном кодексе и иных нормативных актах.

Исследование показало, что ключевыми механизмами реализации прав являются: предоставление юридической помощи, процессуальный контроль со стороны суда и прокурора, применение временных мер ограничения свободы, а также участие обвиняемого и подозреваемого в следственных и судебных действиях.

Одновременно выявлены проблемы, связанные с ограничением доступа к материалам дела на стадии предварительного следствия, недостаточным взаимодействием адвоката и следственных органов, а также несвоевременным обеспечением правовой помощи. Предложены направления совершенствования механизма защиты: расширение полномочий адвоката, цифровизация доступа к материалам дела, усиление контроля со стороны прокурора и суда, а также повышение правовой грамотности граждан и сотрудников правоохранительных органов.

Итак, совершенствование правового регулирования и практики защиты прав подозреваемого и обвиняемого является необходимым условием обеспечения справедливого, прозрачного и законного уголовного процесса в Республике Узбекистан.

REFERENCES

1. Ashworth, A., & Redmayne, M. (2010). *The Criminal Process*. 4th ed. Oxford: Oxford University Publ.
2. Bazarova, D. B. (2021). Procedural guarantees of rights of suspected and accused persons in criminal proceedings. *Journal of Law Research*, 6(11), 87–93.
3. Cape, E., Hodgson, J., Prakken, T., & Spronken, T. (2010). *Suspects in Europe: Procedural Rights at the Investigative Stage of the Criminal Process*. Antwerp: Intersentia Publ.
4. Council of Europe. (2013). Guidelines on the Right to a Lawyer in Criminal Proceedings.
5. Damaska, M. (1986). *The Faces of Justice and State Authority*. New Haven: Yale University Publ.
6. Duff, R. A., Farmer, L., Marshall, S. E., & Tadros, V. (2007). *The Trial on Trial. Vol. 3: Towards a Normative Theory of the Criminal Trial*. Oxford: Hart Publ.
7. European Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms. (1950). Rome.
8. Hodgson, J. (2002). The Role of the Criminal Defence Lawyer in an Inquisitorial Procedure. *Legal Studies*, 22(2), 161–187.
9. Jackson, J. (2005). Re-Conceptualizing the Right of Silence as an Effective Fair Trial Standard. *International and Comparative Law Quarterly*, 58(4), 835–861.
10. Jackson, J., & Summers, S. (2012). *The Internationalisation of Criminal Evidence*. Cambridge: Cambridge University Publ.
11. Nazarov, A. V. (2021). Problems of implementing the rights of a suspect. *Journal of Criminal Law*, 4, 45–52.
12. Packer, H. L. (1968). *The Limits of the Criminal Sanction*. Stanford: Stanford University Publ.
13. Rakhimova, U. Kh., & Khamzakhonov, S. (2022). Sravnitelnyy analiz uchastiya zashchitnikov v protsesse dokazyvaniya v ugolovnom protsesse [Comparative analysis of the participation of defense lawyers in the process of proof in criminal proceedings]. *Ekonomika i sotsium [Economy and Society]*, 7(98), 326–332.
14. Sadridinov, Sh. N. (n.d.). Protection of the rights of the accused in pre-trial criminal proceedings: International standards and the national system of Uzbekistan. *Central Asian Journal of Education and Innovation*.
15. Spronken, T., & Attinger, M. (2019). Procedural Rights of Suspects and Defendants. *Eucrim*, 1, 4–12.
16. Summers, S. (2007). *Fair Trials: The European Criminal Procedural Tradition and the European Court of Human Rights*. Oxford: Hart Publ.
17. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). (2011). Handbook on Access to Legal Aid in Criminal Justice Systems. Vienna.
18. United Nations. (1988). Body of Principles for the Protection of All Persons under Any Form of Detention or Imprisonment.
19. United Nations. (1990). Basic Principles on the Role of Lawyers. Havana.
20. United Nations. (1966). International Covenant on Civil and Political Rights.
21. Vlasov, K. A., & Shashkova, V. N. (2020). *Professional legal discourse of internal affairs officers: Semantics, nomination, predicativity, modality (Training manual)*. Orel: Orel Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 20.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./OQNG1613

UDC: 343.9(045)(575.1)

JINOYAT PROTSESSI DOIRASIDA EKSPERTIZANING UMUMIY JIHATLARI VA VAZIFALARI

Fatullayev Shodmonbek Madatovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0000-5784-5723

e-mail: Shodmonbek080@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat protsessi doirasida sud ekspertizasining umumiy jihatlari, mazmuni va ahamiyati keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqotda sud ekspertizasi institutining huquqiy tabiati, uning jinoyat-protsessual huquq tizimidagi o'rni va funksional mohiyati nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, ekspertiza faoliyatining ilmiy-nazariy poydevorini tashkil etuvchi tushuncha va kategoriyalar, ekspert xulosasining huquqiy kuchi hamda uni isbotlash vositasi sifatidagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari jinoyat-protsessual huquqni yanada takomillashtirish, tergov va sud amaliyotida sud-ekspertiza institutidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, ekspertiza institutining ilmiy-nazariy konsepsiyasini chuqurlashtirish, uning huquqiy tabiatini tizimli tahlil qilish va sud amaliyotida nazariy bilimlarni amaliy qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat protsessi, sud ekspertizasi, dalillar, tergov, sud amaliyoti, adolatli sudlov, ilmiy yondashuv, ekspertiza instituti

ОБЩИЕ АСПЕКТЫ И ЗАДАЧИ ЭКСПЕРТИЗЫ В РАМКАХ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

Фатуллаев Шодмонбек Мадатович,

самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье всесторонне проанализированы общие аспекты, содержание и значение судебной экспертизы в рамках уголовного процесса. В исследовании теоретически обоснована правовая природа института судебной экспертизы, его место и функциональная сущность в системе уголовно-процессуального права. Также на основе научных источников раскрыты основные понятия и категории, составляющие научно-теоретическую основу экспертной деятельности, правовое значение экспертного заключения и его роль как средства доказывания. Результаты исследования направлены на дальнейшее совершенствование уголовно-процессуального права, расширение возможностей эффективного использования института судебной экспертизы в следственной и судебной практике. Особое внимание уделено углублению научно-теоретической концепции института экспертизы, системному анализу его правовой природы и разработке механизмов практического применения теоретических знаний в судебной практике.

Ключевые слова: уголовный процесс, судебная экспертиза, доказательства, следствие, судебная практика, справедливое правосудие, научный подход, институт экспертизы

GENERAL ASPECTS AND FUNCTIONS OF FORENSIC EXAMINATION WITHIN THE FRAMEWORK OF THE CRIMINAL PROCESS

Fatullaev Shodmonbek Madatovich,

Independent Researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *This article comprehensively analyzes the general aspects, content, and significance of forensic examination within the framework of criminal proceedings. The study theoretically substantiates the legal nature of the institution of forensic examination and its place and functional essence in the system of criminal procedure law. Also, based on scientific sources, the concepts and categories that form the scientific and theoretical basis of expert activity, the legal force of the expert opinion, and its significance as a means of its proof are highlighted. The research results are aimed at further improving criminal procedure law and expanding the possibilities of effective use of the institution of forensic examination in investigative and judicial practice. In particular, recommendations have been developed for deepening the scientific and theoretical concept of the institute of expertise, systematic analysis of its legal nature, and the development of mechanisms for the practical application of theoretical knowledge in judicial practice.*

Keywords: *criminal procedure, forensic examination, evidence, investigation, judicial practice, fair justice, scientific approach, institute of forensic examination*

Kirish

So'nggi yillarda jinoyatchilikning yangi shakllari – kiberjinoyatlar, shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy ishlatish, moliyaviy firibgarlik, texnologik jinoyatlar kabi yo'nalishlarning kengayishi natijasida sud-ekspertiza faoliyati oldiga yangicha talablar qo'yilmoqda. BMTning Jinoyat va giyohvandlikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC)ning 2024-yilgi global hisobotiga ko'ra, dunyoda jinoyatlar soni o'tgan besh yilda 11 foizga oshgan, shuningdek, kiberjinoyatlar sohasidagi zarar hajmi 8 trillion AQSh dollariga yetgan. Ushbu ko'rsatkich ekspertiza institutining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash va o'tkazish hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, 2020-yilda 28,6 mingta, 2023-yilda esa 37,4 mingta, 2024-yilda esa 39 mingdan ortiq ekspertiza ishlari amalga oshirilgan. Shu bilan birga, ekspertiza tayinlovchi organlarning xatolari, dalillarni to'liq rasmiylashtirmaslik yoki namunalar yetarli-cha to'planmagani sababli har yili 10–12 foiz ekspertiza materiallari ijrosiz qaytarilmoqda. Bu esa sud-ekspertiza faoliyatida protses-

sual tartiblarni aniq belgilash, ekspertiza tayinlash mezonlarini yagona shaklda ishlab chiqish, ekspert xulosalarini baholashning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Asosiy qism

Hozirgi kunga kelib, jinoyatlarni sodir etishda yangi usullar qo'llanayotgani, buning uchun texnikaning zamonaviy imkoniyatlaridan foydalanilayotgani, uyushgan guruh jinoyatchilarining umumiy bilim saviyasi ham birmuncha yuksalgani yangilik emas (Guskova, 1996). Shu munosabat bilan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda keng tizimli sohalar bo'yicha faoliyat yurita oladigan maxsus bilimlarga ega shaxslarga bo'lgan ehtiyoj uzviy oshib bormoqda. Bu ijobiy tendensiyaning rivojida ekspertiza institutining ahamiyati beqiyos bo'lib, fan-texnika taraqqiyoti sharoitida uning yangidan yangi turlari rivojlanib borayotgani ham unga bo'lgan ishonchning yaqqol ifodasidir (Guskova, 1996).

Hozirgi kunda fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan keng foydalanilmas ekan, odil sudlovni ta'minlaydigan idoralar faoliyatining samaradorligini tasavvur etish qiyin.

Ekspertizaning odil sudlov uchun ahamiyatini men inson ko'zining hayotiy muhimligiga qiyoslagan bo'lar edim. Zero, ekspertiza xulosasiga ko'ra aniqlanadigan holat ham jinoyatni fosh etishda, aybdorning qilmishiga to'g'ri huquqiy baho berishda, ya'ni jinoyat yuzasidan huquqiy haqiqatni anglab yetishda ko'zimiz yanglig' zarurdir (Guskova, 1996).

Shundan kelib chiqib, hozirgi kunda fan va texnikaning jadal rivojlanishi sharoitida jinoyat ishini faqat guvoh, jabrlanuvchi va ayblanuvchilarni so'roq qilish hamda ayrim tergov harakatlari bilan cheklab olib borish yetarli samara bermayapti. Bunday yondashuv ko'p hollarda dastlabki tergovning to'liq, xolis va adolatli amalga oshmasligiga sabab bo'lmoqda. Shu bois zamonaviy tergov jarayonida sud ekspertizasining roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Ekspertiza nafaqat dalillarni to'plash, tekshirish va mustahkamlashga xizmat qiladi, balki tergovchiga ilmiy asoslangan yo'nalish berib, jinoyatning asl holatini aniqlash, versiyalarni kengaytirish va tergov strategiyasini to'g'ri tanlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda ekspertiza faoliyatiga fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlarini joriy etish nafaqat tergov samaradorligini oshiradi, balki odil sudlovni ta'minlashning muhim kafolati sifatida ham xizmat qiladi. Shu jihatdan ekspertiza zamonaviy jinoyat-protsessual tizimning ajralmas, ilmiy asoslangan va ishonchli tarkibiy qismi hisoblanadi.

M.H. Rustamboyev fikricha, sodir bo'lgan jinoyatni ochish va tergov qilishning nazariy asoslarini ishlab chiqishda boshqa huquqiy fanlar orasida kriminalistika asosiy o'rinni egallaydi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Hozirgi kunda tergovni muvaffaqiyatli yuritib, odil sudlovni ta'minlashda kriminalistika texnikasiga asoslangan turli maxsus bilimlarni qo'llash bilan o'tkaziladigan ekspertizalar salmoqli o'rin egallaydi.

Ko'pgina holatlarda tergovchilar ekspertiza ahamiyatini tushunmasdan, unga ishonchsizlik bilan qarab, o'zlarining bilimlariga

tayanishga harakat qiladilar, lekin ba'zi holatlarda faqatgina ekspertiza yordamidagina juda murakkab va chalkash jinoyat ishlarini ochish mumkin ekanligini unutib qo'yishadi (Khidoyatov, 2006).

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ekspertizaning roli nihoyatda muhim. Jinoyat ishlarini qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish, ish bo'yicha haqiqatni aniqlashda ekspertiza xulosasining ahamiyati va o'rni beqiyosdir (Muhitdinov, 2006).

Jinoyatchilikning oldini olish, jinoyatlarni fosh etish, jinoyat protsessida adolat mezonlariga amal qilishda dalillar maqbulligini ta'minlash fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasining asosiy kafolati bo'lishini e'tiborga olgan holda ilm-fan yutuqlaridan unumli foydalanish davr taqozosi bo'lib, bunda ekspertlarning o'rni beqiyosdir (Isarov, 2006).

S.A. Otaxo'jayevga ko'ra, zamonaviy sharoitlarda har bir turdagi faoliyatning samarasi birinchi galda ushbu faoliyatning vazifalarini hal etishda fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Bu yutuqlarni huquqni muhofaza qilish amaliyotiga tatbiq etishda asosiy o'rinni sud ekspertizasi egallaydi. Shu sababli fan va texnikaning zamonaviy imkoniyatlariga asoslangan ekspertizadan keng foydalanish muhim rol o'ynaydi va ekspertizaning nazariy hamda amaliy masalalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega (Otaxo'jayev, 2006).

Y.S. Pulatovning ta'kidlashicha, ekspertiza amaliyotida moddiy obyektlarni tadqiq etishning fizika, kimyo, biologiya, mineralogiya, amaliy matematika va boshqa tabiiy va texnik fanlarning yutuqlarini qo'llashni o'z ichiga olgan yangicha samarali usullar joriy etildi. Ayniqsa, bunday usullardan turli-tuman materiallar, moddalar va buyumlarni tadqiq etish vaqtida keng foydalaniladi. Bu ekspert tadqiqoti jarayonini kengaytirib qolmay, balki ekspertizalarning tergov taktikasi jihatlari o'zgarishiga ham olib keladi (Pulatov, 2001).

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, jinoyat protsessida ekspertizaning roli va

ahamiyati yil sayin ortib borayotganini ta’kidlash o’rinlidir. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar to’g’ri qayd etganidek, ekspertiza imkoniyatlaridan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanish zarur. Aks holda, asossiz yoki noo’rin tayinlangan ekspertiza natijasida jinoyat ishi bo’yicha tergov va sud muhokamasi muddati bekorga cho’zilib ketishi, shuningdek, davlat ekspertiza muassasalarining moddiy-texnik bazasi hamda ekspertlarning mehnati samarasiz ketishi ehtimoli mavjud.

Guvohi bo’lganimizdek, deyarli barcha adabiyotlarda ekspertiza jinoyat ishlarini ochishda juda katta natija beruvchi isbotlash vositasi, ayrim hollarda esa haqiqatni aniqlashdagi yagona dalillarni to’plash usuli sifatida baholanadi. Bizningcha, ushbu holatni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin: birinchidan, ekspertizaning huquqiy tabiati, ya’ni faktlar haqida ma’lumotlarni olishga sabab bo’luvchi obyektiv usul ekanligi; ikkinchidan, yangi ilmiy-texnik yutuqlarning muntazam taraqqiy etib borishi.

Bevosita ekspertiza tushunchasining lug’aviy ma’nosi to’g’risida to’xtalib o’tsak. Jumladan, yuridik ensiklopediyada “ekspertiza (lotincha “response” – “javob”; “expertus” – “tajribali, tajribadan biluvchi”) – mutaxassis yoki mutaxassislar guruhi tomonidan u yoki bu sohada malakali yechim talab qilinadigan masalalarni o’rganish (Toychiyev, 2009) sifatida ta’riflanadi.

Jinoyat ishlari bo’yicha ekspertiza alohida maqomga ega bo’lgan ekspertiza turi bo’lib, u maxsus bilimlarga asoslangan tadqiqotda namoyon bo’lishi bilan ham e’tiborlidir. Jinoyat ishlari bo’yicha ekspertiza boshqa turdagi ekspertizalardan o’zining tayinlanish va o’tkazish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksida qat’iy va aniq belgilangani bilan farqlanadi (Kuzyakhin & Rossiysky, 2005).

Dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida fan, texnika, san’at va kasb-hunar sohasida maxsus bilimlar yuzasidan savollar tug’ilishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassis, xolislarining maz-

kur bilimlarga egaligi ekspertiza tayinlash zaruriyatidan ozod etmaydi (Khidoyatov, 2006).

A. Norboyev ekspertizani shunday ta’riflaydi: “Ekspertiza jinoyat ishi bo’yicha aniqlanishi lozim bo’lgan muhim holatlarni fan, texnika, san’at va turli kasb-hunar sohasidagi yutuqlardan foydalanib aniqlashga, dalillar to’plashga yo’naltirilgan protsessual tergov harakatidir”.

Ko’rishimiz mumkinki, olimlarning ta’riflarida faqatgina maxsus bilimlar orqali aniqlash va dalillarni to’plash bilan bog’liq degan bir tor tushunchada to’xtab qolingan. Ammo ushbu tushuncha nafaqat bular, balki uning dalillarni tekshirishdagi o’rni ham mavjudligini e’tibordan chetda qoldirgan. Shuningdek, berilgan ta’rifda ekspertiza o’tkazilishining asosiy manbayi sifatida sud yoki tergovchi tomonidan rasmiy tarzda qabul qilinadigan protsessual hujjatning ahamiyati ham yoritilmagan.

Ekspertiza protsessual qonun asosida surishtiruv, tergov yoki sud organlari tomonidan tayinlanib, maxsus bilimlarga ega shaxs – ekspert tomonidan o’tkazilgan tekshiruv bo’lib, uning natijasida alohida protsessual hujjat – ekspert xulosasida rasmiylashtiriladi (Alimova & Otaxojayev, 2001). Ushbu ta’rifda esa maxsus bilim haqida hech qanday gap bormagan.

N.M. Qo’shayev va boshqalarning “tergov qilishda va sud muhokamasida jinoyat ishini to’g’ri hal qilish uchun fan-texnika, san’at yoki hunarmandchilikka doir maxsus bilimlar zarur bo’ladi, shunday bilimlarning surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, mutaxassislar, xolislarda bo’lishi ekspertiza tayinlash zaruriyatini yo’q qilmaydi” (Kushayev et al., 2008) degan ta’rifi ham deyarli kamchiliklardan xoli emas, olimlar tomonidan ekspertiza tadqiqoti natijasida chiqariladigan ekspertiza xulosasi haqida keltirib o’tish kamchilik sifatida qolib ketgan. Yana bir qancha olimlar tomonidan ta’riflar keltirilgan bo’lib, ularda bir qator kamchiliklar namoyon bo’lgan.

Xususan, I.R. Astanov shunday ta’riflaydi: “Ekspertiza – surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga asosan tayinlanadi-

gan, jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan faktik ma'lumotlarni aniqlash maqsadida tadqiq etish uchun yuborilgan obyektlarni ekspertning fan, texnika, san'at, kasb-hunar sohalari bo'yicha maxsus bilimlardan foydalanib tekshirishi va uning bu haqda xulosa berishidan iborat protsessual harakatdir" (Astanov, n.d.). Ushbu ta'rifda bevosita ekspertizaga doir ta'rifning yaqqol to'laqonli shaklini ko'rish mumkin. Quyida ushbu ta'rifga to'xtalib uning aniqligini yoritamiz.

Birinchidan, jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan faktik ma'lumotni aniqlash. Faktik ma'lumot deganda "faktlar to'g'risida qonuniy manbalardan olingan ma'lumotlar"ni (Muhammadiyev, 2008) tushunamiz. Ya'ni jinoyat hodisasi to'g'risida ma'lum qiluvchi, jinoyat ishida dalil sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir.

Ikkinchidan, fan, texnika, san'at, kasb-hunar sohalari bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lish ekspert shaxsining muhim talablaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda maxsus bilim tushunchasiga ham to'xtalib o'tish zarur. V.D. Arsenev va V.T. Zabolotskiylar fikricha, maxsus bilim deganda ilmiy va amaliy faoliyat natijasi bo'lgan ma'lumotlar tizimi tushuniladi (Arsenev & Zabolotsky, 1986).

Uchinchidan, eng muhim bo'lgan ekspertning jinoyat-protsessual qonunchilik hamda jinoyat ishida muhim fakt hisoblangan hujjat bo'yicha xulosa berishi.

Demak, jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza o'tkazishda "maxsus bilim" deganda fan, texnika, san'at va kasb-hunar sohalarida uzoq muddatli amaliy faoliyat natijasida shakllangan ko'nikmalar tushuniladi. Shu bilan birga, har qanday maxsus bilimga asoslangan tadqiqot ekspertiza maqomini olavermaydi. Faqatgina jinoyat ishini yuritish bilan bog'liq va ma'lum bir huquqiy maqsadni ko'zlagan tadqiqotlarga ekspertiza sifatida e'tirof etilishi mumkin. Shu sababli ekspertizaning jinoyat jarayonidagi o'rni va ahamiyati nafaqat sifatli o'tkazilgan tadqiqot bilan, balki tegishli protsessual tartiblarga rioya etilishi, ekspert

xulosasida ifodalangan daliliy ahamiyatga ega faktlar hamda jinoyatga aloqador holatlar o'rtasidagi obyektiv bog'liqlik mavjudligi bilan ham belgilanadi.

Shuningdek, ekspertizaning quyidagi o'ziga xos jihatlarini ham alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir: jinoyat ishi doirasida taqdim etilgan ma'lum bir obyekt yoki predmetni tadqiq etishda maxsus bilimlardan foydalanilishi; tadqiqotning vakolatli shaxs – tergovchi yoki sudya topshirig'iga binoan maxsus subyekt, ya'ni ekspert tomonidan amalga oshirilishi; ekspertizani tayinlash, o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish tartibining qonun bilan qat'iy belgilangani; dalilning mustaqil turi sifatida ekspert xulosasi ko'rinishida rasmiylashtiriladigan, o'tkazilgan tadqiqot natijalarining mavjudligi.

Yuqorida biz jinoyat protsessidagi ekspertiza institutini tahlil qilib alohida qoidalar va atamalarni unifikatsiya qilish, balki protsessual kodekslarda qonun bilan mustahkamlangan ularni qo'llash tushunchalari va tartiblarini modernizatsiya qilish kabi kamchiliklarni ko'rdik. Bu holat jinoyat-protsessual kodeksining sud-ekspertiza faoliyati sohasidagi nazariy tadqiqotlar, shuningdek, tergov va sud amaliyotining ekspert xulosalaridan mustaqil dalil sifatida foydalanishning zamonaviy ehtiyojlari bilan bog'liq. Biroq sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni qonunchilikda tartibga solishga turli mualliflar tomonidan qayta-qayta taklif qilingan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganiga qaramay, uzoq vaqt davomida ularni takomillashtirish yuzasidan hech qanday chora ko'rilmagan.

Birinchidan, bu sud ekspertizasining asosiy konsepsiyasiga taalluqlidir, uning ta'rifi O'zbekiston Respublikasining "Sud-ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasi 5-bandida mustahkamlangan: "Sud ekspertizasi – fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda sud eksperti tomonidan fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi

maxsus bilimlar asosida sud-ekspert tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakat". Mazkur ta'rif faqat ushbu qonunda berilgan va protsessual kodekslarda ko'zda tutilmagan. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksining 22-bobi to'laqonli ekspertizaga bag'ishlangan bo'lsa-da, bunday ta'rifni uchratmaymiz. Bundan jinoyat protsessual qonunchiligida ekspertiza va sud-ekspertiza so'zlari qorishib ketganini ko'rish mumkin. Shunday qilib, jinoyat ishini yurituvchi organlarning (shaxslarning) tergov harakatlarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini sud ekspertizasi deb atash mumkin emas, chunki u sud eksperti tomonidan maxsus ilmiy bilimlar asosida amalga oshiriladi.

Masalan, Y.K. Orlov sud ekspertizasini jinoyat protsessida isbotlash vositasi sifatida tasniflaydi va uni ishlab chiqarish jarayonida quyidagi 4 bosqichni belgilaydi: 1) sud ekspertizasi tayinlash; 2) ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilish; 3) ekspert tadqiqotini o'tkazish va xulosa tuzish; 4) ekspert xulosasini olgandan keyin tergovchining harakatlari.

Ekspert tadqiqotini o'tkazish va xulosa berish maqsadida ekspertning ishtiroki faqat sud ekspertizasini tayinlash va o'tkazish bosqichlaridan birida nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, Qozog'istonning amaldagi jinoyat protsessual qonunchiligida quyidagicha yangilik kiritildi: sud ekspertizasini shartnoma asosida o'tkazish to'g'risida ekspertiza muassasasiga so'rov yuborish yo'li bilan himoyachi (advokat) va jabrlanuvchining vakiliga sud ekspertizasi tayinlash huquqi berilgan (Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 272-moddasi 7- va 8-qismlari). Bizning qonunchiligimizda esa gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining ekspertiza tayinlash va o'tkazishdagi huquqlari quyidagilar: 1) ekspertiza o'tkazilgunga qadar ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim bilan tanishib chiqish va o'ziga berilgan huquqlar tushuntirilishini talab qilish. Bu haqda bayonnoma tuziladi yoki

sud majlisi bayonnomasiga yozib qo'yiladi; 2) ekspertni rad etish; 3) o'zi ko'rsatgan shaxslar orasidan ekspert tayinlanishini iltimos qilish; 4) ekspert xulosa berishi uchun uning oldiga qo'shimcha savollar qo'yish, qo'shimcha materiallar taqdim etish; 5) ekspertiza o'tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, sudning ruxsati bilan hozir bo'lish, ekspertdan tekshiruv vaqtida qo'llayotgan usullarining va olingan natijalarning mohiyatini tushuntirib berishni talab qilish, ekspertga tushuntirishlar berish; 6) ekspert xulosasi bilan tanishib chiqish va qo'shimcha yoki qayta ekspertiza o'tkazish to'g'risida iltimos qilish.

Bunday vaziyatda biz faqatgina gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va uning vakili uchun faqatgina iltimosnoma kiritish huquqini qo'ymoqdamiz xolos. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 180-moddasida ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchilar ushbu ajrim bilan tanishib chiqishi bo'yicha hech qanday gap yo'q. Ushbu holatda ekspertiza tayinlanishi haqida tergov yoki sud organi bevosita qaror yoki ajrim bilan tanishtirib chiqishi lozim. Bu bevosita tergov va ekspertiza harakati kelgusida to'laqonli va xolisona olib borilishiga xizmat qiladi.

Bevosita hozirgi kundagi dolzarb bo'lgan kiberjinoyatlarda ekspertizaning rolini tahlil etsak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kiberjinoyatlar – raqamli texnologiyalar orqali sodir etiladigan jinoyatlar – bugun jinoyat-protsessual tadqiqotlar va ekspertizalar uchun eng murakkab va dolzarb sohalardan biri hisoblanadi. Raqamli dunyodagi hukumat va fuqarolar uchun xavfsizlik tahdidlari ortib borayotgani sababli raqamli forensika (digital forensics) – kiberjinoyatlarni tergov qilish va sudda ishonchli dalil taqdim etish sohasida markaziy rol o'ynamoqda. Raqamli forensika elektron qurilmalarda mavjud bo'lgan dalillarni aniqlash, saqlash, tahlil qilish va sud uchun huquqiy jihatdan maqbul xulo-

salar tayyorlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot yo'nalishidir (Mykhailo, n.d.).

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ekspertiza kiberjinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonida nafaqat texnik, balki huquqiy va protsessual asosga ham ega bo'lishi lozim. Masalan, raqamli forensik usullar tufayli kompyuter, mobil telefon yoki tarmoq qurilmasidan olingan elektron dalillar jinoyat jasadlarining haqiqiy holatini ko'rsatib berishi mumkin, bu esa tergovchi va sudga an'anaviy dalillarga qo'shimcha ilmiy asos yaratadi (Iswani et al., 2024).

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli forensika metodologiyalari bir necha asosiy yo'nalishda rivojlanmoqda: kompyuter forensikasi, mobil qurilmalar forensikasi, tarmoq forensikasi va hatto IoT (Internet of Things – narsalar interneti) qurilmalari forensikasi (Hassan et al., 2025). Bu yo'nalishlar ekspertizaga kiberjinoyatlar jarayonini chuqurroq tushunish va murakkab raqamli izlarni to'plash imkonini beradi.

Kiberjinoyatlar bo'yicha ekspertiza usullaridan biri – raqamli dalillarni yig'ish va saqlash. Bu jarayonda dalillarni o'zgarmas holatda ushlab turish, izolyatsiya qilish va keyinchalik tahlilga topshirish muhim ahamiyatga ega, chunki raqamli ma'lumotlar juda tez o'zgarishi va yo'qolishi mumkin (Mirsamatov, 2025). Shu bilan birga, raqamli dalillarni tahlil qilish uchun maxsus dasturiy va apparat vositalaridan foydalanish talab qilinadi, bu esa ekspertizaning ilmiy poydevorini ta'minlaydi.

Raqamli forensikaning yana bir yo'nalishi – ma'lumotlarni tiklash va analitik tahlil. Kiberjinoyatlar holatlarida ko'pincha ma'lumotlar o'chirib yuborilgan yoki yashirin holga keltirilgan bo'ladi, shuning uchun ekspertlar maxsus algoritmlar va vositalar yordamida ushbu ma'lumotlarni qayta tiklab, ularni jinoyat ishtirokchisi yoki hodisa vaqtiga bog'lashadi (Kreso, 2025).

Shuningdek, kiberjinoyat ekspertizasi sohasida sun'iy intellekt va mashinaviy o'rga-

nish usullarini qo'llash bo'yicha tadqiqotlar ham ortib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish algoritmlari katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarni tahlil qilishda samaradorlikni oshiradi va aniqroq natijalar berishi mumkin, bu esa ekspert xulosalarining ishonchligini yanada kuchaytiradi (Akeibar, 2025).

Shu tarzda kiberjinoyatlar doirasida ekspertiza nafaqat texnik tahlil, balki huquqiy, metodologik va analitik yondashuvni talab etadigan kompleks ilmiy faoliyatdir. Raqamli forensika usullari yordamida yig'ilgan dalillar jinoyat protsessida ishonchli dalil sifatida ishlatilishi mumkin, bu esa kiberjinoyatlar bilan kurashishda samarali natijalarga erishish imkonini beradi (Kurpiyanova, 2025).

Xulosa

Shunday qilib, jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza tayinlash, o'tkazish va xulosalarni baholashning protsessual jihatlarini takomillashtirish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega masala hisoblanadi va quyidagicha takliflar beriladi: Jinoyat-protsessual kodeksining 22-bobiga sud ekspertizasi so'ziga ta'rif qo'shish;

sud ekspertizasini shartnoma asosida o'tkazish to'g'risida ekspertiza muassasasiga so'rov yuborish yo'li bilan himoyachi (advokat) va jabrlanuvchining vakiliga ham sud ekspertizasi tayinlash huquqini berish; ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim bilan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchilar ushbu ajrim bilan tanishib chiqishi masalasini qo'shish.

Shuningdek, kiberjinoyatlar bilan bog'liq jinoyatlarda ekspert oldiga qo'yilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxatini tuzish. Masalan:

1) Ko'rsatilgan kompyuter tizimi/tarmoq'i/serveriga ruxsatsiz ulanish bo'lganmi? Bo'lgan bo'lsa qachon, qaysi IP-manzildan va qaysi usullar bilan?

2) Muayyan davrda qaysi fayllar yaratilgan, o'zgartirilgan, o'chirilgan yoki ko'chirilgan?

3) O'chirilgan ma'lumotlarni (fayllar, yozishmalar, brauzer tarixi) tiklash mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa – qaysilarini?

4) Qurilmada muayyan dasturiy ta'minot o'rnatilgan va ishga tushirilganmi? Qachon va kim tomonidan?

5) Muayyan vaqt oralig'ida aniq foydalanuvchi qanday harakatlarni bajargan?

6) Taqdim etilgan faylda (elektron xat, hujjat) soxtalashtirish yoki o'zgartirish belgilari bormi?

7) Muayyan internet-resurs yoki bulutli xotiraga qaysi qurilmadan kirilgan?

8) Qurilmada zararli dasturiy ta'minot (virus, trojan, ransomware) izlari bormi?

9) Xabarlar yoki postlar muallifi kim?

10) Ma'lumotlar tashqi qurilmalarga yoki tarmoqqa uzatilganmi?

11) Faoliyatni yashirish uchun VPN, proxy, TOR kabi vositalardan foydalanilganmi?

12) Elektron raqamli imzo qonun talablariga mosmi va amal qiladimi?

13) Qaysi foydalanuvchi akkauntlari faol bo'lgan va ular orqali qanday harakatlar amalga oshirilgan?

14) Raqamli izlar asosida hodisalar ket-maketligini tiklash mumkinmi?

15) Video yoki audiofayl montaj qilinganmi?

16) Tarmoq uskunalari konfiguratsiyasi qanday bo'lgan?

17) Qurilma boshqa tashqi qurilmalar bilan bog'langanmi?

18) Raqamli izlar muayyan shaxsning aybini tasdiqlaydimi yoki inkor etadimi?

19) Loglar va zaxira nusxalar asl holatdami yoki o'zgartirilganmi?

Shu kabi savollar jinoyat ishi doirasi-dagi ekspertizaning to'laonli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu takliflar sud-tergov faoliyatining shaffofligini ta'minlash, dalillar ishonchliligini oshirish, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Shu ma'noda ekspertiza institutining huquqiy maqomini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro standartlarga mos, yagona hamda samarali tizimni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

REFERENCES

1. Abdumajidov, G. A. (2009). *O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar [Comments to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan]* (p. 298). Tashkent: TSIL Publ.
2. Akeiber, H. J. (2025, February). A comprehensive study of Cybercrime and Digital Forensics through Machine Learning and AI. *Rafidain J. Eng. Sci.*, 3(1), 369–395.
3. Alimova R., & Otaxojayev, S. (2001). *Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari [Issues of organizing and conducting forensic examination]* (p. 4). Tashkent: Yangi asr avlodi Publ.
4. Astanov, I. R. (n.d.). Jinoyat ishlari bo'yicha ekspertiza o'tkazish: nazariya va amaliyot [Conducting forensic examinations in criminal cases: theory and practice] (p. 22). [Doctoral Dissertation].
5. Arsenev, V. D., & Zabolotsky, V. T. (1986). *Primeneniye spetsialnykh znaniy dlya ustanovleniya fakticheskikh obstoyatelstv ugovovnogo dela [Application of specialized knowledge to establish the factual circumstances of a criminal case]* (p. 4). Krasnoyarsk: Krasnoyarsk University Publ.
6. Hassan, Sh. Kh., Syed, M., & Abeer M. (2025, June). Digital Forensics in Action. The Role of Digital Forensics in Cybercrime Investigations. *NUML International Journal of Engineering and Computing*, 3(2), 1–13. <https://doi.org/10.52015/nijec.v3i2.85>
7. Isarov, Q. I. (2006). Odil sudlovni amalga oshirishda sud ekspertizasining o'rni [The role of forensic expertise in the administration of justice] (p. 14). *Proceedings of the Republican*

Interdepartmental Scientific and Practical Conference on the topic “Prospects for the Development of Forensic Examination in Uzbekistan”. Tashkent.

8. Inogomjonova, Z. F., To‘laganova, G. Z., & Nikiforova, Y. N. (2007). *Jinoyat protsessi [Criminal proceedings]* (p. 113). Tashkent: Cho‘lpon Publ.

9. Iswani, N. Kh., Nur, M., & Husni, H. (2024). The Role of Forensic Technology in Cyber Crime Investigation and Prosecution. *Proceedings of Malikussaleh International Conference on Law, legal Studies and Social Science*, 4, 1–10. <https://proceedings.unimal.ac.id/micolls/issue/view/21>

10. Guskova, A. P. (1996). *Teoreticheskie i prakticheskie aspekty ustanovleniya lichnosti obvinyamogo v ugovnom protsesse [Theoretical and practical aspects of establishing the identity of the accused in criminal proceedings]* (p. 59). Orenburg.

11. Khidoyatov, B. B. (2006). *Sledstvennye deystviya, provodimye v ramkakh ugovnogo sudoproizvodstva [Investigative actions carried out within the framework of criminal proceedings]* (pp. 194; 164). Tashkent: TSIL Publ.

12. Kreso, I. (2025). Application of digital forensics in cybercrime investigations: theoretical framework. *Knowledge*, 71(1), 197–203. <https://ojs.ikm.mk/index.php/kij/article/view/7648>

13. Kupriyanova, I. M. (2025, August). Development of Forensic Laboratories in the Field of Digital Forensics in Uzbekistan. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 3(8), 19–22

14. Kushayev, N. M., & Fayziyev, Sh. F. (2007). *Jinoyat protsessida o‘tkaziladigan tergov harakatlari [Investigative actions in criminal proceedings]* (p. 167). Tashkent: TSIL Publ.

15. Kushayev, N. M., Fayziyev, Sh. F., & Inogomjonova, Z. F. (2008). *Jinoyat protsessi. Umumiy qism [Criminal procedure. General part]* (p. 400). Tashkent: TSIL Publ.

16. Kuzyakin, Yu. L., & Rossiysky, B. V. (2005). Sudebno-meditsinskaya ekspertiza po delam ob administrativnykh pravonarusheniyakh i narusheniyakh pravil dorozhnogo dvizheniya [Forensic medical examination in cases of administrative offenses and traffic violations]. *Zakon i poryadok [Law and order]*, 7, 72. Moscow.

17. Mingboyev, U. Q. (2001). Dalillarni baholashda mutaxassis fikri alohida ahamiyatga ega. Sud ekspertiza yutuqlari va rivojlanish istiqbollari: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sud ekspertiza xizmatining 50 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari [Expert opinion is of particular importance in assessing evidence. Achievements and development prospects of forensic examination: materials of the scientific and practical conference dedicated to the 50th anniversary of the forensic examination service of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent.

18. Muhitdinov, R. A. (2006). Jinoyatchilikka qarshi kurashda sud ekspertizasining roli [The role of forensics in the fight against crime] (p. 13). Proceedings of the Republican Interdepartmental Scientific and Practical Conference on the topic “Prospects for the Development of Forensic Examination in Uzbekistan”. Tashkent.

19. Muhammadiyev, A. A. (2008). *Dalillar nazariyasi muammolari [Problems in proof theory]* (p. 20). Tashkent: TSIL Publ.

20. Mykhailo, Sh. (n.d.). Open Sources of Cyberspace as Objects of Forensic Research.

21. Mirsamatov, M. (2025). Digital Forensics and Its Significance. *Conference on Legal Science*, 4, 20–30.

22. Otaxojayev, S. A. (2006). Sud ekspertizasining hozirgi bosqichdagi dolzarb muammolari [Current issues of forensic examination at the current stage] (p. 24). Proceedings of the Republican Interdepartmental Scientific and Practical Conference on the topic “Prospects for the Development of Forensic Examination in Uzbekistan”. Tashkent.

23. Pulatov, Yu. S. (2001). Ekspertizaga jo‘natilishi kerak bo‘lgan materiallar, moddalar va buyumlarga oid hujjatli ma‘lumotlarning xususiyatlari [Characteristics of documentary information on materials, substances and objects to be sent for examination] (p. 39). Achievements and development prospects of forensic examination: Scientific and practical conference dedicated to the 50th anniversary of the forensic examination service of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. Tashkent.

24. Toychiyev, N. (2009). *O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal Encyclopedia of Uzbekistan]*. (pp. 545–546). Tashkent: Adolat Publ.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 21.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./LKLX5916

UDC: 341(045)(575.1)

АПОСТИЛЬ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОГО ОБОРОТА ДОКУМЕНТОВ

Аллаберганова Нодира Махмуд кизи,
преподаватель кафедры «Международное право и права человека»
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0000-0001-9621-2064
e-mail: nadirallabergenova@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается механизм апостиля как фундаментальный компонент международного правового оборота документов, анализируются его эволюция, внедрение и проблемы применения в современных условиях. В статье исследуются положения Гаагской конвенции 1961 года, отменяющей требование легализации иностранных официальных документов, а также её трансформация в условиях цифровизации. На основе сопоставительного анализа практики внедрения апостиля в Узбекистане и России даётся оценка эффективности действующей системы и рассматривается формирующаяся парадигма электронных апостилей (e-Apostilles). Статья вносит вклад в академический дискурс, синтезируя научные подходы и предлагая решения актуальных проблем аутентификации документов для международного использования.

Ключевые слова: апостиль, Гаагская конвенция 1961 года, консульская легализация, электронный апостиль, трансграничное правовое сотрудничество, аутентификация документов, программа электронного апостилирования

HUJJATLARNING XALQARO HUQUQIY AYLANMASI TIZIMIDA APOSTIL

Allaberganova Nodira Mahmud qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada apostil mexanizmi hujjatlarning xalqaro huquqiy aylanishining asosiy tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi, uning rivojlanishi, joriy etilishi va zamonaviy sharoitlarda qo'llanish muammolari tahlil qilinadi. Maqolada 1961-yilgi Gaaga konvensiyasining chet el rasmiy hujjatlarini legallashtirish talabini bekor qiluvchi qoidalari, shuningdek, raqamlashtirish sharoitida uning transformatsiyasi tatbiq etilgan. O'zbekiston va Rossiyada apostil qo'yish amaliyotini qiyosiy tahlil qilish asosida amaldagi tizimning samaradorligi baholangan va elektron apostillar (e-Apostilles) paradigmasining shakllanishi ko'rib chiqilgan. Maqola ilmiy yondashuvlarni sintez qilish va xalqaro foydalanish uchun hujjatlarni autentifikatsiya qilishning dolzarb muammolariga yechimlar taklif qilish orqali ilmiy munozaraga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: apostil, 1961-yilgi Gaaga konvensiyasi, konsullik legallashtirish, elektron apostil, transcargaraviy huquqiy hamkorlik, hujjatlarni autentifikatsiya qilish, elektron apostil qo'yish dasturi

THE APOSTILLE IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL LEGAL CIRCULATION OF DOCUMENTS

Allaberganova Nodira Mahmud kizi,

Lecturer of the Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law

Abstract. *This article examines the apostille mechanism as a fundamental component of the international legal circulation of documents, analyzing its evolution, implementation, and challenges of application under contemporary conditions. The article explores the provisions of the 1961 Hague Convention Abolishing the Requirement of Legalization for Foreign Public Documents, as well as its transformation in the context of digitalization. Based on a comparative analysis of apostille implementation practices in Uzbekistan and Russia, the effectiveness of the existing system is assessed, and the emerging paradigm of electronic apostilles (e-Apostilles) is examined. The article contributes to academic discourse by synthesizing scholarly approaches and proposing solutions to current issues of document authentication for international use.*

Keywords: *apostille, The Hague Convention of 1961, consular legalization, electronic apostille, cross-border legal cooperation, document authentication, electronic apostille program*

Введение

В эпоху стремительной глобализации аутентификация и признание официальных документов в различных странах стали неотъемлемыми элементами международно-правового взаимодействия. В этом контексте апостиль как ключевой инструмент играет важную роль в обеспечении признания документов в различных юрисдикциях.

Апостиль, созданный в соответствии с Гаагской конвенцией от 5 октября 1961 года, является эффективным механизмом, который отменяет необходимость легализации иностранных официальных документов. Эта конвенция, принятая на Гаагской конференции по международному частному праву в 1961 году, представляет собой значительный шаг вперёд в упрощении процедур проверки подлинности международных документов.

Актуальность данного вопроса обусловлена рядом значимых аспектов. Прежде всего, Конвенция о легализации иностранных официальных документов достигла значительных успехов – по

состоянию на 2025 год её участниками стали более 128 государств, что делает её одним из наиболее широко ратифицированных многосторонних договоров в области международного правового сотрудничества.

Согласно данным Гаагской конференции по международному частному праву, ежегодно во всём мире выдаётся несколько миллионов апостилей. Это свидетельствует о важности апостиля для содействия международным сделкам, академической мобильности, трудоустройству, процедурам усыновления и другим видам трансграничной деятельности. К тому же, цифровая трансформация государственных услуг открыла новые перспективы в области аутентификации документов. Программа электронного апостилирования (e-APP), запущенная в 2006 году НССН (2021), стала одним из первых шагов на пути к внедрению электронных апостилей и созданию электронных реестров.

К 2024 году 56 государств-участников внедрились хотя бы один элемент электронного приложения, а в 35 юрисдикции

ях функционируют как электронные апостили, так и электронные реестры (НССН, 2024b).

qator xalqaro hujjatlarni qabul qilgan. Eng avvalo, 2000-yilgi Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya va uning tarkibiy qismi bo'lgan Insonlarni, ayniqsa, ayollar va bolalarni noqonuniy ravishda olib o'tish (*trafficking*) va migrantlarni noqonuniy tashish (*smuggling*)ga qarshi protokollar ushbu yo'nalishda asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi. Shuningdek, *Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration* (2018) – BMTning Xavfsiz, tartibli va qonuniy migratsiyani ta'minlashga qaratilgan global kelishuvi davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim hujjat sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hujjat noqonuniy migratsiyaning asl sabablari – iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy beqarorlik va inson huquqlarining buzilishiga qarshi tizimli choralarni ko'rishni nazarda tutadi.

2. O'zbekistonning BMT bilan hamkorligining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi BMTning ko'plab institutlari – Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC) bilan hamkorlikni kengaytirgan. Mazkur hamkorlik bir qancha yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, huquqiy bazani takomillashtirish: O'zbekiston BMT konvensiyalari va protokollariga asoslanib, Jinoyat kodeksida migrantlarni noqonuniy tashish, odam savdosi va chegara buzish bilan bog'liq moddalarni kuchaytirdi.

Ikkinchidan, migratsiya boshqaruvini raqamlashtirish: BMT IOM bilan birgalikda "Integratsiyalashgan migratsiya ma'lumotlari bazasi" loyihasi amalga oshirilmoqda, bu esa noqonuniy migratsiya oqimlarini kuzatish imkonini beradi.

Uchinchidan, inson huquqlarini himoya qilish: migrantlarning huquqlarini ta'minlash, ayniqsa, ayollar va bolalar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha BMT bilan birgalikda targ'ibot dasturlari amalga oshirilmoqda.

To'rtinchidan, mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish: Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida BMT ko'magida "*Border Management Programme in Central Asia (BOMCA)*" dasturi orqali chegara xavfsizligi sohasida hamkorlik mustahkamlanmoqda.

3. Hamkorlikdagi mavjud muammolar

Shuni alohida aytish kerakki, BMT bilan samarali hamkorlikka qaramay, O'zbekistonda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasida qator tizimli muammolar mavjud:

birinchidan, huquqni qo'llash amaliyotining notekisligi. BMT konvensiyalarida belgilangan normalarni milliy qonunchilikka to'liq implementatsiya qilish jarayoni sekin kechmoqda;

ikkinchidan, axborot almashinuvi tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani. Migratsiya oqimlarini monitoring qilishda mintaqaviy davlatlar o'rtasida yagona ma'lumotlar bazasi mavjud emas;

uchinchidan, iqtisodiy omillar. Ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va mehnat bozori cheklavlari noqonuniy migratsiya sabablarini saqlab qolmoqda;

to'rtinchidan, huquqiy madaniyatning pastligi. Migrantlar va ularni yollovchi vositachilar o'rtasida qonuniy mehnat migratsiyasi tartiblari haqida yetarli ma'lumot yo'q.

Takliflar

O'zbekistonning BMT bilan hamkorligini yanada chuqurlashtirish uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- milliy qonunchilikni BMT standartlariga to'liq moslashtirish, xususan, 2000-yilgi konvensiyalar asosida O'zbekiston Respublikasining yangi "Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunini qabul qilish;

- axborot almashinuvi tizimini yaratish, bu BMT va qo'shni davlatlar bilan migratsiya oqimlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi;

- migratsiya xavfsizligi diplomatiyasini kuchaytirish, ya'ni BMT doirasida

O'zbekistonning tashabbuslarini ilgari surish va mintaqaviy dialoglarda faol ishtirok etish;

– ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali migratsiya bosimini kamaytirish, shuningdek, qaytgan migrantlarni iqtisodiyotga integratsiyalashga qaratilgan dasturlarni kengaytirish hamda BMTning *Global Compact* tashabbusi doirasida milliy hisobot tizimini yaratish. Bu O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini monitoring qilishda samaradorlikni oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi BMT bilan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasida faol va izchil

hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Ushbu hamkorlik xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror rivojlanishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, global migratsiya jarayonlarining murakkablashuvi, iqtisodiy muammolar va axborot tizimining sustligi mavjud muammolar sifatida saqlanib qolmoqda. Kelajakda BMT bilan hamkorlikni institutsional va huquqiy jihatdan chuqurlashtirish, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni bartaraf etish O'zbekistonning migratsiya siyosatini yangi bosqichga olib chiqadi.

REFERENCES

1. Asmandiyarova, N. R. (2008). Borba s nezakonnoy migratsiey na regionalnom urovne: ugolovno-pravovye i kriminologicheskie aspekty po materialam Respubliki Bashkortostan [Combating illegal migration at the regional level: criminal-legal and criminological aspects based on the materials of the Republic of Bashkortostan] (p. 8). [Abstract of PhD Thesis]. Moscow.
2. Akhmedov, M. N. (2016). Protivodestvie nelegalnoy migratsii ugolovno-pravovoye i kriminologicheskie aspekty po materialam Respubliki Bashkortostan [Combating illegal migration is a criminal matter-legal and criminological aspects based on materials from the Republic of Bashkortostan] (p. 8). [Abstract of PhD Thesis]. Moscow.
3. Barannik, M. I. (2002). Kriminologicheskie i pravovye problemy borby s nezakonnoy migratsiey [Criminological and legal issues in combating illegal migration]. Vladivostok: Vladivostok Center for the Study of Organized Crime.
4. Egamberdiev, B. I. (2021). Sovershenstvovanie deyatelnosti organov vnutrennikh del v migratsionnykh protsessakh [Improving the activity of internal affairs bodies in migration processes]. [Abstract of PhD Thesis]. Tashkent.
5. Iskhakov, A. M. (2018). Ugolovno-pravovye i kriminologicheskie aspekty organizatsii nezakonnoy migratsii [Criminal-legal and criminological aspects of organizing illegal migration] (pp. 8–13). [Abstract of PhD Thesis]. Kazan.
6. Isoqov, L. H. (2020). O'zbekistonda migratsiya sohasidagi davlat boshqaruvining tashkili-huquqiy asoslari [Organizational and legal framework of state administration in the field of migration in Uzbekistan]. Tashkent.
7. Kakhbulaeva, E. H. (2011). Ugolovno-pravovye i kriminologicheskie aspekty organizatsii nezakonnoy migratsii [Criminal-legal and criminological aspects of organizing illegal migration] (p. 14). [Abstract of PhD Thesis]. Rostov-on-Don.
8. Otajonov, A. A. (2025). Qonunga xilof migratsiyaga qarshi kurashish: huquqiy tartibga solish va javobgarlik muammolari [Combating illegal migration: legal regulation and accountability issues] (p. 160). [Monograph]. Tashkent: Impress media Publ.
9. Rasulov, J. (2025). Xalqaro migratsiya huquqi [International migration law] (p. 107). Tashkent: TSUL Publ.

10. Salimov, Sh. Y. (2025, February). Mehnat migratsiyasi bo'yicha xalqaro hamkorlik masalalari [Issues of international cooperation on labor migration]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 5(2). www.oriens.uz
11. Shkilev, A. N. (2006). Migratsiya: ugodovno-pravovye i kriminologicheskie aspekty [Migration: criminal-legal and criminological aspects] (p. 12). [Abstract of PhD Thesis]. Nizhny Novgorod.
12. Sumarokov, V. N. (2014). Nelegalnaya migratsiya kak ugroza natsionalnoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii: ponyatie, sodержanie, prichiny vozniknoveniya, napravleniya protivodeystviya [Illegal migration as a threat to national security of the Russian Federation: concept, content, causes, and countermeasures]. *Transport Business in Russia*, 1.
13. UN. (1965, December). International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination. New York.
14. UN. (1990, December). On the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families convention. www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/migrants/shtml
15. Universal Declaration of Human Rights. [https://constitution.uz/uz/pages/human Rights](https://constitution.uz/uz/pages/human%20Rights)

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./XFHM4301

UDC: 343.35+004.08(045)(575.1)

TERGOV VA SUD ORGANLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN SAMARALI VOSITA SIFATIDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Mirzayev Rahmatulla Ibodullayevich,

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Yuridik fakulteti Jinoyat huquqiy fanlar kafedrası dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi

ORCID: 0009-0001-1203-9864

e-mail: rahmatulla1973@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tergov va sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari tahlil qilingan. Jinoyat-protsessual faoliyatdagi huquqiy diskresiya korrupsiyaviy xavflarni kuchaytirishi, sun'iy intellekt esa qaror qabul qilishda subyektivlikni kamaytirishi ko'rsatib o'tilgan. "Kuchsiz" va "kuchli" sun'iy intellekt modellari, reaktiv va proaktiv tizimlarning afzallik hamda cheklovlari ilmiy nuqtayi nazardan yoritilib, tergov jarayonida ACE kabi tizimlarning qo'llanish tajribasi o'rganilgan. Sun'iy intellektni to'liq mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida qo'llash texnik va huquqiy jihatdan hozircha maqsadga muvofiq emasligi asoslangan. Shu bilan birga, inson nazorati ostidagi SI tizimlari jinoyat-protsessual jarayonlarning shaffofligi va samaradorligini oshirishda istiqbolli mexanizm sifatida baholangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, jinoyat-protsessual faoliyat, korrupsiyaga qarshi kurashish, huquqiy diskresiya, reaktiv tizimlar, proaktiv tizimlar, ACE tizimi, sud qarorlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish, huquqni qo'llash amaliyoti

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ЭФФЕКТИВНОГО ИНСТРУМЕНТА ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В СЛЕДСТВЕННЫХ И СУДЕБНЫХ ОРГАНАХ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

Мирзаев Рахматулла Ибодуллаевич,

кандидат юридических наук, доцент кафедры
«Уголовно-правовые дисциплины» юридического факультета Самаркандского
государственного университета имени Ш. Рашидова

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические основы и практические возможности использования искусственного интеллекта в процессе противодействия коррупции в следственных и судебных органах. Отмечается, что правовая дискреция в

уголовно-процессуальной деятельности способна усиливать коррупционные риски, тогда как применение искусственного интеллекта способствует снижению субъективности при принятии решений. С научной точки зрения рассмотрены модели «слабого» и «сильного» искусственного интеллекта, а также преимущества и ограничения реактивных и проактивных систем; проанализирован опыт применения таких систем, как ACE, в следственной деятельности. Обосновано, что использование искусственного интеллекта в качестве полностью самостоятельного субъекта принятия решений в настоящее время не является целесообразным с технической и правовой точек зрения. Вместе с тем системы искусственного интеллекта, функционирующие под контролем человека, оцениваются как перспективный механизм повышения прозрачности и эффективности уголовно-процессуальных процедур.

Ключевые слова: искусственный интеллект, уголовно-процессуальная деятельность, борьба с коррупцией, правовая дискреция, реактивные системы, проактивные системы, система ACE, автоматизация судебных решений, цифровизация, правоприменительная практика

PROSPECTS FOR USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS AN EFFECTIVE TOOL IN COMBATING CORRUPTION IN THE ACTIVITIES OF INVESTIGATIVE AND JUDICIAL BODIES: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

Mirzaev Rahmatulla Ibadullaevich,

Associate Professor of the Department of Criminal Law Disciplines,
Faculty of Law, Samarkand State University
named after Sh. Rashidov, Candidate of Legal Sciences

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical possibilities of using artificial intelligence in the process of combating corruption in investigative and judicial bodies. It is shown that legal discretion in criminal procedural activity increases corruption risks, and artificial intelligence reduces subjectivity in decision-making. The advantages and limitations of “weak” and “strong” models of artificial intelligence, reactive and proactive systems are highlighted from a scientific point of view, and the experience of using systems such as ACE in the investigation process is studied. It is substantiated that the use of artificial intelligence as a fully independent decision-making entity is technically and legally inexpedient. At the same time, AI systems under human control are assessed as a promising mechanism for increasing the transparency and effectiveness of criminal procedure processes.

Keywords: artificial intelligence, criminal procedure, anti-corruption, legal discretion, reactive systems, proactive systems, ACE system, automation of court decisions, digitalization, law enforcement practice

Kirish

So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish tizimining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy zarar keltiradi, balki fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan ishonchini susaytiradi, adolat tamoyillarining buzilishi, demokratiya institutlarining zaiflashishiga olib keladi. Shu bois tergov va sud organlarida qaror qabul qilish jarayonlarini shaffof, xolis va tezkor tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari jinoyatchilik dinamikasini o'rganish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, katta hajmdagi ma'lumotlar o'rtasidagi yashirin bog'liqliklarni topish hamda tergov jarayonlarini avtomatlashtirishda yuqori samaradorlikka ega. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar katta ma'lumotlarni tezkor va aniq qayta ishlashi, inson omiliga xos xatolarni kamaytirishi, korrupsion holatlarni aniqlashda ehtimoliy prognozlar berishi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda sud-huquq tizimini raqamlashtirish, “Elektron sud”, “Elektron jinoyat

ishlari” kabi platformalarning joriy etilishi, yirik ma’lumotlar bazalarining yaratilib, ular o’rtasida integratsiyaning kuchayishi sun’iy intellekt texnologiyalarini qo’llash uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Shu bilan birga, tergov va sud faoliyatida sun’iy intellektni joriy etishning huquqiy, axloqiy va texnologik asoslarini ishlab chiqish, xavfsizlik hamda inson huquqlarini ta’minlash mexanizmlarini takomillash-tirish zarurati keskin oshib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellektni tergov va sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita sifatida qo’llashning nazariy asoslarini o’rganish hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo’nalishda olib boriladigan tadqiqotlar korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy texnologik yondashuvlarini shakllantirish, sud-huquq tizimi shaffofligi va adolatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi sun’iy intellekt texnologiyalaridan tergov va sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish va mavjud huquqiy hamda tashkiliy mexanizmlarni rivojlantirish bo’yi-cha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism

Ushbu tadqiqotda sun’iy intellektning tergov va sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda qo’llanish imkoniyatlari chuqur o’rganildi. Dastlab korrupsiyaviy jinoyatlar-ning tashkiliy, psixologik va iqtisodiy omillari tahlil qilinib, ularga xos bo’lgan takrorlanuvchi naqshlar (patterns) aniqlandi. Shuningdek, mavjud raqamli tizimlar – “Elektron sud”, “Yagona jinoyat statistikasi”, “Elektron jinoyat ishlari” platformalari sun’iy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari nuqta-yi nazaridan baholandi.

Tadqiqot davomida sun’iy intellektning ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi, aniqligi va

xolislikni oshirishdagi ustunliklari real misollar asosida ko’rib chiqildi. Korrupsiyaviy xavf-xatlarni aniqlashda mashinaviy o’qitish, klas-terlash, regressiya tahlili, anomal holatlarni aniqlash (anomaly detection) kabi algoritmlar-ning qo’llanishi tajribaviy jihatdan o’rganildi. Natijalar sun’iy intellekt tizimlari tergov jara-yonida inson nazaridan chetda qolishi mumkin bo’lgan yashirin aloqalar, hujjatlardagi nomu-vofiqliklar, moliyaviy harakatlardagi shubhali ketma-ketliklarni aniq identifikatsiya qilish imkoniyatiga ega ekanini ko’rsatdi.

Tadqiqotda tahliliy va solishtirma metod-lar, tizimli yondashuv, katta ma’lumotlar tah-lili, mashinaviy o’qitish modellarini baholash va ekspert baholash kabi metodlar qo’llandi. Metodologiya sifatida korrupsiyaga qarshi ku-rashishning zamonaviy konsepsiyalari, sun’iy intellekt texnologiyalarining kriminalistika va sud axborot tizimlarida qo’llanishiga oid ilmiy yondashuvlar asos qilib olindi. Tadqiqot risklarni boshqarish modeli, algoritmik tahlil nazariyasi va huquqiy-texnologik integratsiya tamoyillariga tayanib amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida O’zbekistonning tergov va sud organlaridagi korrupsiyaga oid jarayonlar tanlandi. Predmet esa ushbu jarayonlarni sun’iy intellekt orqali aniqlash, baholash va nazorat qilishga doir mexanizm-lardan iborat bo’ldi. Bunday obyekt sun’iy intellekt texnologiyalarini real sharoitda qo’llash samaradorligini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida so’nggi yillarga oid statistik ma’lumotlar, korrupsion jinoyatlar soni, ularning tarkibi, aniqlanish ko’rsat-kichlari va tergov jarayonining davomiyligi batafsil o’rganildi (Poskryakov, 2019). Tahlil natijalariga ko’ra (Bakhteev, 2018):

- korrupsiyaviy jinoyatlar soni yillik o’z-garish dinamikasi bo’yicha o’rtacha 8–15 % atrofida tebranadi;

- aniqlangan holatlarning katta qismi mansab vakolatini suiiste’mol qilish, pora olish yoki berish, g’arazli manfaat olish bilan bog’liq;

– jinoyatlarni aniqlash muddati oʻrtacha 2–6 oy boʻlib, sunʼiy intellektdan foydalanish bu koʻrsatkichni sezilarli kamaytirishi mumkin;

– tergov jarayonida maʼlumotlar oʻrtasidagi nomuvofiqliklarning 15–20 %gacha qismi inson koʻzi bilan aniqlanmay qoladi.

Mazkur koʻrsatkichlar sunʼiy intellekt zarurligini tasdiqlaydi, chunki avtomatlashtirilgan tahlil inson omiliga bogʻliq xatolarni kamaytiradi va kuzatib boʻlmaydigan yashirin aloqalarni aniqlash imkonini beradi (Umnova-Konyukhova, 2021).

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-amaliy yutuqlarga erishildi:

– sunʼiy intellekt yordamida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avtomatik aniqlashning amaliy modeli ishlab chiqildi;

– moliyaviy operatsiyalar, hujjatlar aylanishi va xizmat munosabatlarida shubhali ketma-ketliklarni aniqlovchi nazorat algoritmlari yaratildi;

– “Elektron sud” va “Elektron jinoyat ishlari” platformalarini sunʼiy intellekt bilan integratsiya qilish imkoniyatlari asoslab berildi;

– sunʼiy intellekt asosida xolislik mezonlarini baholashning yangi modeli taklif qilindi.

Tadqiqot natijalari ekspertlar tomonidan baholangan boʻlib, ishlab chiqilgan modellar aniqligi 82–91 % diapazonida ekanligi tasdiqlandi (Umnova-Konyukhova, 2021). Bu koʻrsatkichlar sunʼiy intellekt tizimlarining amaliy qoʻllanishi yuqori samaradorlik berishini koʻrsatadi.

Tahlillar davomida quyidagi ilmiy pozitsiyalar aniqlandi:

– sunʼiy intellekt korrupsiyaga qarshi kurashishda yordamchi vosita boʻlib, insonning qaror qabul qilish jarayonini toʻliq almashtira olmaydi;

– sunʼiy intellekt algoritmlarining mutlaq ishonchliligi haqidagi fikrlar maʼqullanmaydi, chunki har bir modelda xatolik ehtimoli mavjud;

– korrupsiyaviy xavf-xatarlarning dastlabki belgilarini avtomatik aniqlashda sunʼiy in-

telлектning ustunligi ilmiy asosda tasdiqlandi;

– sunʼiy intellekt tizimlarining huquqiy tartibga solinishi borasidagi ayrim takliflar yetarlicha asosga ega emas – bunday yondashuvlar tanqid qilinadi.

Muallif sunʼiy intellekt tizimlarining shaffofligi, algoritmlar natijalarining ochiq baholanishi va inson nazoratining saqlanishi zarurligini alohida taʼkidlaydi.

Tadqiqot jarayonida bir qator cheklov va muammolar aniqlangan: statistik maʼlumotlarning toʻliq raqamlashtirilmaganligi, ayrim huquqiy maʼlumotlar bazalarining integratsiya qilinmaganligi, sunʼiy intellekt modellarini oʻqitish uchun tozalanmagan maʼlumotlarning yetishmasligi, huquqiy asoslarning toʻliq shakllanmaganligi, axborot xavfsizligi va shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish bilan bogʻliq masalalar.

Mazkur muammolar tadqiqotni murakkablashtirgan boʻlsa-da, ular sunʼiy intellektni joriy etishda qaysi jarayonlar ustuvor ravishda isloh qilinishi lozimligini aniq belgilab beradi (Stepanenko et al., 2020).

Tadqiqotda qoʻllangan metodlar xorijiy ilmiy izlanishlar bilan solishtirilganda, bir qator oʻxshashlik va farqlar aniqlangan. AQSh va Yevropa tajribasida sunʼiy intellekt sud jarayonlarining xolislik koʻrsatkichlarini baholashda faol qoʻllansa, Osiyo mamlakatlari u, asosan, korrupsion xavf-xatarlarni oldindan prognoz qilishga yoʻnaltirilgan (Gritsai, 2019; Morhat, 2017; Glebov, 2018; Gacuta & Selvadurai, 2019). Oʻzbekiston sharoitida esa sunʼiy intellektga asoslangan avtomatik tahlil va monitoring integratsiyalangan model sifatida taklif etilgani bilan boshqa tadqiqotlardan farqlanadi.

Xulosa

Tadqiqot davomida sunʼiy intellekt texnologiyalarining tergov va sud organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda qoʻllanish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama tahlil qilindi. Olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Sun'iy intellekt korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlarida yuqori samaradorlikka ega, chunki katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor, aniq va xolis tahlil qilish yashirin bog'liqliklar, takrorlanuvchi naqshlar, shubhali tranzaksiyalar va nomuvofiqliklarni aniqlash imkoniyatini beradi.

2. O'zbekistonning "Elektron sud", "Elektron jinoyat ishlari" va "Yagona statistik platforma" kabi tizimlari sun'iy intellektni joriy etish uchun qulay infratuzilmaga ega. Biroq ular o'zaro to'liq integratsiyalashmagan. Platformalararo to'liq integratsiya sun'iy intellekt modellari aniqligini oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni erta aniqlash imkonini yaratadi.

3. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt modellarining quyidagi samaradorlik ko'rsatkichlariga ega ekanini tasdiqladi:

- tergov jarayonidagi tahlil vaqtini 30–40 %ga qisqartirish;
- hujjatlar aylanishidagi xatoliklarni 20 %gacha kamaytirish;
- korrupsiyaviy belgilarni aniqlashda 82–91 % aniqlikka erishish.

4. Sun'iy intellekt insonning qaror qabul qilish jarayonini to'liq almashtira olmaydi, biroq uni qo'llab-quvvatlovchi kuchli analitik vosita sifatida samarali ishlaydi. Bu esa tergov va sud faoliyatining xolisligini oshirishga xizmat qiladi.

5. Tadqiqot davomida ma'lumotlarning to'liq raqamlashtirilmaganligi, axborot tizimlarining integratsiyasi yetarli emasligi, sifatli o'quv ma'lumotlarining kamligi, huquqiy baza to'liq shakllanmaganligi hamda axborot xavfsizligi bilan bog'liq cheklovlar mavjud ekani aniqlandi.

Mazkur xulosalar sun'iy intellektni korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida qilingan xulosalar quyidagi takliflarni ishlab chiqishga turtki bo'ldi.

Takliflar

1. *Raqamli ma'lumotlar bazalarini to'liq integratsiya qilish.* Buning uchun tergov va sud organlari axborot tizimlari yagona ma'lumotlar markazida birlashtirilishi zarur. Bu sun'iy intellekt modellarning aniqligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

2. *"Korrupsiya xavfi indeksi"ni joriy etish.* Buning uchun mansabdor shaxslar, tashkilotlar va jarayonlar bo'yicha xavf ballarini shakllantiruvchi indeks yaratish lozim. Bu ushbu indeks erta ogohlantirish tizimi sifatida xizmat qiladi.

3. *Sun'iy intellekt asosida avtomatik tahlil modullarini yaratish.* Buning uchun hujjatlarda nomuvofiqliklar, moliyaviy operatsiyalardagi shubhali ketma-ketliklar, g'arazli maqsadlarni aniqlovchi avtomatlashtirilgan algoritmlar ishlab chiqilishi zarur.

4. *Tergov va sud xodimlari uchun sun'iy intellekt bo'yicha maxsus o'quv dasturlari joriy etish.* Bu sun'iy intellekt vositalaridan malakali foydalanish tizim samaradorligini bir necha baravar oshiradi.

5. *Sun'iy intellektni qo'llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish.* Bu algoritmlarning mas'uliyati, qarorlarni shaffof baholash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini aniq belgilash uchun zarur.

6. *"Inson – sun'iy intellekt – nazorat" modelini joriy etish.* Ushbu yondashuv inson nazoratini saqlagan holda, sun'iy intellekt samaradorligini maksimal darajada oshiradi.

7. *Ma'lumot to'plash, algoritmlar ishlab chiqish va test jarayonlarini yagona ilmiy markaz orqali olib borish* maqsadida korrupsiyaga qarshi sun'iy intellekt laboratoriyasini tashkil etish taklif qilinadi.

Umuman olganda, sun'iy intellektni to'g'ri joriy etish korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, tergov va sud jarayonlarida shaffoflik, tezkorlik va xolislikni ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Amiyants, K. A. (2019). Ispolzovanie iskusstvennogo intellekta v sovremennoy sudebnoy sisteme i pravakh cheloveka [The use of artificial intelligence in the modern judicial system and human rights]. *Mezhdunarodnyy zhurnal gumanitarnykh i yestestvennykh nauk [International Journal of Humanities and Natural Sciences]*, 11(3), 49–52.
2. Bakhteev, D. V. (2018). Iskusstvennyy intellekt v kriminalistike: tekushchee sostoyanie i perspektivy [Artificial intelligence in forensics: current status and prospects.]. *Rossiyskoe pravo: obrazovanie, praktika i nauka [Russian Law: Education, Practice, and Science]*, 2 (104), 43–49.
3. Bartoletti, I. (2020). (Ed.). *AI in the Age of Cyber-Disruption*. Springer Publ.
4. Casey, E. (2019). *Digital Evidence and Computer Crime*. Elsevier Publ.
5. Dignum, V. (2019). *Responsible Artificial Intelligence: Developing and Using AI Responsibly*. Springer Publ.
6. Gacuta, J., & Selvadurai, N. (2019). A statutory right to explanation for decisions generated using artificial intelligence. *International journal of law and information technology*, 28(3), 193–216. Oxford.
7. Glebov, I. N. (2018). Iskusstvennyy yuridicheskiy intellekt [Artificial legal intelligence]. *Internet-zhurnal nauchnoy i yuridicheskoy literatury «Gumanitarnoye pravo» [Online journal of scientific and legal literature "Humanitarian Law"]*. <https://humanlaw.ru/9-article/26-artificial-intelligence.html>.
8. Gritsai, O. V. (2019). Tsifrovizatsiya kak sposob optimizatsii mekhanizma zashchity grazhdanskikh prav v sfere grazhdanskoy yurisdiktsii [Digitalization as a way to optimize the mechanism for protecting civil rights in the sphere of civil jurisdiction.]. *Yuridicheskiy byulleten Samarskogo universiteta [Legal Bulletin of Samara University]*, 2(5), 64–68.
9. Kolokolov, N. A. (2019). Komp'yuter vmesto sud'i – arifmetika vmesto dushi [A computer instead of a judge – arithmetic instead of a soul]. *Ugolovnoye proizvodstvo [Criminal proceedings]* 3, 3–7.
10. Lebedev, M. D., & Savvov, S. A. (2020). Ispolzovanie iskusstvennogo intellekta v rassledovanii prestupleniy [Using artificial intelligence in crime investigation]. *Skif [Scythian]*, 7(47), 73–77.
11. Morhat, P. M. (2017). Iskusstvennyy intellekt: pravovoy vzglyad [Artificial Intelligence: A Legal Perspective]. [Monograph] (p. 258). Moscow: Buki Vedi Publ.
12. Neznamov, A. V. (2020). Ispolzovanie iskusstvennogo intellekta v sudoproizvodstve: pervyy opyt i pervyye vyvody [Using Artificial Intelligence in Legal Proceedings: Initial Experience and Initial Conclusions]. *Rossiyskoe pravo: obrazovanie, praktika, nauka [Russian Law: Education, Practice, and Science]*, 3, 32–39.
13. Ponkin, A. V., & Redkina, A. I. (2018). Iskusstvennyy intellekt s tochki zreniya prava [Artificial Intelligence from a Legal Perspective]. *Vestnik RUDN. Yuridicheskiye nauki [RUDN University Bulletin. Legal Sciences]*, 1, 91–109.
14. Poskryakov, R. S. (2019). Ispolzovanie iskusstvennogo intellekta v sudebnoy deyatelnosti [Use of artificial intelligence in judicial practice]. *Ogarev-Online*, 16(137). 1–6.
15. Richards, N., & King, J. (2021). *Big Data Ethics*. Yale University Publ.
16. Stepanenko, D. A., Bakhteev, D. V., & Evstratova, Yu. A. (2020). Ispolzovanie sistem iskusstvennogo intellekta v pravookhranitelnoy deyatelnosti [Use of artificial intelligence systems in law enforcement]. *Vserossiyskiy kriminologicheskiy zhurnal [All-Russian Criminological Journal]*, 2(14), 206–214.
17. Umnova-Konyukhova, I. A. (2021). Sudebnaya vlast' i iskusstvennyy intellekt: pravovye aspekty vzaimodeystviya [The Judiciary and Artificial Intelligence: Legal Aspects of Interaction]. *Sotsialnyye i gumanitarnyye nauki. Otechestvennaya i zarubezhnaya literatura. Ser. 4: Gosudarstvo i pravo: Referativnyy zhurnal [Social Sciences and Humanities. Domestic and Foreign Literature. Series 4, State and Law: Abstract Journal]*, 1, 106–114.
18. UNODC. (2021). *Handbook on Anti-Corruption Measures in Criminal Justice Institutions*.

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 14.11.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.6./IWPR2909

UDC: (343.35+328.185)(045)(575.1)

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA ENERGETIKA SOHASINI RAQAMLASHTIRISH – KORRUPSION OMILLARNI BARTARAF ETISH GAROVI

Sattarov Azim Saidovich,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni
muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0002-6181-5548

e-mail: saidiovichazim@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalardan foydalanish va energetika sohasini raqamlashtirish orqali korrupsion xavflarni bartaraf etish omillari yoritilgan. Energiya servis xizmatlari bozorini shakllantirish va aholi uy-joylarining energiya samaradorligi oshirilishini rag'batlantirish korrupsiya omillarini bartaraf etish imkoniyatini yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida inson omillarini kamaytirish korrupsiya o'chog'ini yakson qilish imkoniyatini kengaytirishi ilmiy asoslangan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-oktabrdagi "Energiya servis xizmatlari bozorini shakllantirish hamda aholi uy-joylarining energiya samaradorligi oshirilishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi 673-son qaror loyihasining 1-ilova 5-bobi va 5-ilovasi uchun taklif sifatida keltirilganligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, energetika tizimi, energiya servis xizmatlari, energiya samaradorligi, korrupsiya xavflari, davlat siyosati, huquqiy tartibga solish

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ КАК ГАРАНТИЯ УСТРАНЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ ФАКТОРОВ

Саттаров Азим Саидович,

самостоятельный соискатель

Правоохранительной академии Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье освещаются факторы устранения коррупционных рисков посредством применения инновационных технологий и цифровизации энергетической отрасли. Научно обосновано, что формирование рынка энергетических сервисных услуг и стимулирование повышения энергоэффективности жилых домов имеют важное значение для создания возможностей по ликвидации коррупционных рисков. Также доказано, что сокращение человеческого фактора за счёт применения современных цифровых технологий значительно расширяет возможности нейтрализации коррупционных очагов. Результаты исследования научно обоснованы и представлены в качестве предложений для главы 5 приложений 1 и 5 проекта постановления Президента Республики Узбекистан «О мерах по формированию рынка энергетических сервисных услуг и стимулированию повышения энергоэффективности жилых зданий» (постановление принято 24 октября 2025 г. № 673).

Ключевые слова: инновационные технологии, цифровизация, энергетическая система, энергосервисные услуги, энергоэффективность, коррупционные риски, государственная политика, правовое регулирование

THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND DIGITALIZATION OF THE ENERGY SECTOR AS A GUARANTEE FOR THE ELIMINATION OF CORRUPTION FACTORS

Sattarov Azim Saidovich,

Independent Researcher at the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article highlights factors for eliminating corruption risks through the use of innovative technologies and digitalization of the energy sector. It is scientifically substantiated that the formation of a market for energy services and the stimulation of increasing the energy efficiency of housing are important in creating opportunities to eliminate corruption factors, and the reduction of human factors with the help of modern digital technologies expands the possibilities of destroying a hotbed of corruption. The research results are scientifically substantiated as a proposal for Chapter 5 of Appendix 1 and Appendix 5 of the draft Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. 673 dated October 24, 2025 "On Measures to Stimulate the Formation of the Energy Services Market and Increase the Energy Efficiency of Housing."

Keywords: innovative technologies, digitalization, energy system, energy services, energy efficiency, corruption risks, state policy, legal regulation

Kirish

XXI asrda insoniyat oldida turgan muhim vazifalardan biri energetika xavfsizligini ta'minlash va ekologik muammolarni hal etish bo'lib, tabiiy resurslarning cheklanganligi, iqlim o'zgarishi va energiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi har bir davlatdan yangi barqaror yechimlarni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "yashil energiya" siyosati milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda va tabiat muvozanatini saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqaror rivojlantirish maqsadida energiya xavfsizligini ta'minlash, energiya tejamkorligi va samaradorligini oshirish, noqonuniy foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirishda raqamli texnologiyalar bilan transformatsiyalash orqali korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etishning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini joriy etish orqali qonun ustuvorligini ta'minlashni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Bu borada energiya resurslaridan noqonuniy foydalanishning kelib chiqish omillarini hisobga olgan holda vaziyatni to'g'ri baholab, qonun buzilish darajasini aniqlash va uning oldini olishda innovatsion uslub yaratish asosida energiya tejamkorlikni ta'minlash va samaradorlikni oshirishda korrupsion omillarni bartaraf etish va uning oldini olishni yanada takomillashtirishning yangi uslublarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-oktyabrdagi "Energiya servis xizmatlari bozorini shakllantirish hamda aholi uy-joylarining energiya samaradorligi oshirilishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi 673-son qarorida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan energetika sohasi iqtisodiyotning asosiy ustuni ekanligi inobatga olinib, sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish va energetika sohasini raqamlashtirish korrupsion omillarni bartaraf etish garovi sifatida e'tirof etilgan.

Xususan, energiya tejamkorlikni ta'minlash

va samaradorlikni oshirish milliy rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Energiya tejamkorlik, avvalo, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarishda elektr va gaz iste'molining kamayishi mahsulot tannarxini arzonlashtiradi va korxona raqobatbardoshligini oshiradi. Energiya samaradorligini oshirishning yana bir muhim jihati ekologik barqarorlik bo'lib, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va tabiiy resurslarni tejash orqali "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha xalqaro majburiyatlarni bajarishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan tadqiqotning maqsadi energetika sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va energetika sohasini raqamlashtirish orqali korrupsiya omillarini bartaraf etish va uning oldini olish masalalarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish hamda korrupsiyaga oid qonunchilik hujjatlari loyihasi va uni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan.

"Davlat sektorida korrupsiya tushunchalari indeksi"da 2024-yil Daniya 90 ball bilan eng yuqori natijani ko'rsatgan davlatlardan biri bo'lgan. Finlyandiya shu indeksda 88 ball bilan dunyoda korrupsiya darajasi past davlatlar qatoriga kirgan. Singapur esa Osiyo-Tinch okeani mintaqasida korrupsiya bo'yicha nisbatan yaxshi ko'rsatkichlarga ega davlat sifatida baholangan. Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa, energetika sohasida korrupsiya darajasi bo'yicha 2024-yilda Transparency Internationalning "Korrupsiya taassurotlari indeksi" (CPI) reytingida Qozog'iston 40 ball, O'zbekiston 32 ball va Qirg'iziston 25 ball to'plagan (Transparency International, 2024).

Professor R.A. Zufarov korrupsiyani shaxsiy yoki korporativ manfaat yo'lida jamoat manfaatlariga putur yetkazish deb ta'rifladi, professor B.J. Ahrorov uni davlat hokimiyati yoki boshqaruv vakolatlaridan foydalangan holda shaxsiy manfaatni ko'zlab sodir etiladigan jinoyatlar yig'indisi sifatida tavsiflaydi (Zufarov & Axrorov, 2011). Fikrimizcha, "korrupsiya tushunchasi"ga "ommaviy tarzda

manfaaddorlikka erishish" iborasini qo'llash mumkin, chunki bu jinoyatlar ko'p hollarda shaxsning shaxsiy manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqib sodir etiladi.

Har bir soha va jarayonda inson omilini kamaytirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va energetika sohasini raqamlashtirish orqali korrupsiya omillarini bartaraf etish imkoniyatlari kengayadi. Energiya servis xizmatlari bozorini shakllantirish va aholi uy-joylarining energiya samaradorligi oshirilishini rag'batlantirish korrupsiya omillarini bartaraf etish imkoniyatini yaratishda muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida inson omillarini kamaytirish korrupsiya o'chog'ini yakson qilish imkoniyatini kengaytirishi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, yuridik, qiyosiy-huquqiy, raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq o'lchov-nazorat usullari, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

Asosiy qism

Energiya tejamkorlik faqat iqtisodiy va texnologik emas, ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Aholi uchun energiya ta'minotining barqarorligi va xavfsizligi turmush tarzi sifatini oshiradi, energiya resurslaridan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish ham jamiyatning ekologik va iqtisodiy ongini kuchaytiradi.

Energiya resurslariga bo'lgan talabning ilmiy tahlili mamlakat joylashgan hududdan kelib chiqib energiya zaxiralari orqali tegishli strategiyalarni ishlab chiqishi bilan chambarchas bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda keyingi yillarda energiya tejamkorlikni ta'minlashga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "Energiya samaradorligini oshirish to'g'risida"gi davlat dasturlari, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish strategiyasi, zamonaviy hisobga olish tizimlari va energiya auditi amaliyoti joriy etilmoqda. Bu choralar mamlakatning uzoq muddatli energetik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadamdir.

O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan stansiyalar turli tipdagi manbalar asosida faoliyat yuritadi. Bu stansiyalar ishlab chiqarish hajmi va faoliyati bilan bog'liq turlarga bo'linishi mumkin.

Issiqlik elektr stansiyalari (IES) umumiy ishlab chiqarishning asosiy qismini tashkil etadi hamda tabiiy gaz, ko'mir va mazut yoqilg'ilari yordamida ishlaydi (taxminan 80–82%). Eng yirik IESlar Talimarjon IES (1700 MW), Navoiy IES (1800 MW), Sirdaryo IES (3000 MW), Acwa Rower (1500 MW) va Yangi Angren IES (1260 MW ko'mir yoqilg'isi asosida ishlaydi) hisoblanadi.

Gidroelektr stansiyalar (GES) elektr energiyasi ishlab chiqarishning taxminan 10–11% ulushini tashkil qiladi. Mamlakatda yirik va kichik GESlar soni 60 dan ortiq bo'lib, eng yiriklari Chorvoq GES, To'palang GES, Andijon GES, Tuyamo'yin GES, Xo'jakent GES, G'azalkent va Farhod GESlardir.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (taxminan 6–7 %) bo'yicha stansiyalar so'ngi yillarda quyosh va shamol energiyasiga ixtisoslashgan loyihalar amalga oshirilmoqda, jumladan, Beshariq QES, Sazagan-1, 2 QES, Nurota QES, Djankeldi ShESlar.

Respublikamizda jami 20 dan ortiq yirik davlat elektr stansiyalari va 30 dan ortiq kichik xususiy GES hamda qayta tiklanuvchi elektr stansiyalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan amalga oshirilgan ishlar natijasida 2024-yil dekabrda energetika sohasidagi tarixiy voqea, qiymati 3,7 milliard dollarlik 18 ta yangi energiya quvvatlari ishga tushirildi va navbatdagi 6 ta loyiha qurilishiga start berildi.

Buxoro, Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida salkam 2,3 ming MW quvvatga ega 5 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hamda 5 ta yuqori kuchlanishli podstansiya ishga tushirildi. O'zbekistonda ilk bor Andijon va Farg'onada 300 MW yirik saqlash tizimi barpo etildi. Shuningdek, Qashqadaryoda 400 MW elektr stansiyasi, Toshkent shahrida zamonaviy kogeneratsiya qurilmasi, Andijon, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 4 ta kichik GES foydalanishga topshirildi.

Ishga tushgan quvvatlar va yangi loyihalar orqali kelgusi yillarda qo'shimcha 9,5 milliard kVt soat elektr ishlab chiqarilib, 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi; 4,6 million tonna zararli gazlar chiqarilishining oldi olinadi. Eng muhimi – 4 milliondan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta'minlanadi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham 4 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratishga turtki beradi. Umuman olganda, yiliga jami 84 milliard kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu – 2016-yilga nisbatan 25 milliard kVt soat yoki 1,5 barobar ko'p deganidir.

Mamlakatimizda xorijiy sheriklar bilan hamkorlikning izchil davom etishi natijasida yangi sahifa sifatida Farg'ona, Samarqand, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida qiymati 3,5 milliard dollar bo'lgan 2,5 ming megavattli 6 ta elektr quvvatlari qurilishi boshlandi.

Ushbu loyihalar bundan 9 yil avval energetika sohasida boshlangan keng ko'lamli islohotlarning uzviy davomi bo'lib, ushbu davr mobaynida O'zbekiston "yashil energetika"da katta-katta qadamlarni qo'ydi. Xususiylar sektorga keng yo'l ochilgani natijasida o'tgan 5 yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilindi. Avval to'liq davlat tasarrufida bo'lgan bu tizimda 24 ta mustaqil energiya ishlab chiqaruvchi subyekt paydo bo'ldi. "Yashil energetika" sohasida bugunga kelib 3,5 ming megavattli yoki 10 milliard kVt soatga teng 16 ta yirik quyosh va shamol elektr quvvatlari ishga tushirildi. Buning hisobiga 2024-yilda "yashil energiya" ulushi 16 foizdan oshirildi. Ya'ni o'tgan qisqa davrda ekologik toza energiya quvvatini yiliga 2-3 karra ko'paytirishga erishildi.

Davlatimiz rahbari energetika xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishda davom etar ekan 2030-yilga qadar yana 19 ming megavatt "yashil quvvat"larni barpo etib, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 50 foizdan oshirishni rejalashtirgan.


Ushbu belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash tashabbusi energetika sohasida yangi bosqichni boshlab berib, mutaxassislar oldiga ilmiy, texnik va tashkiliy jihatdan murakkab, biroq istiqbolli vazifalarni qo'yadi.

Avvalo, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, energiyani saqlash tizimlarini takomillashtirish, "aqlli tarmoqlar"ni rivojlantirish va innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalanish energetika tizimining barqaror ishlashini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, energiya uzatishdagi yo'qotishlarni kamaytirish va boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish sohadagi samaradorlikni oshiradi.

Energetika sohasida samarali boshqaruv va investitsiya muhitini yaratish ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar, xalqaro hamkorlik va sarmoyalarni jalb etish orqali "yashil energiya" tizimini keng qo'llash imkoni yaratiladi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar energetika sohasidagi korrupsion xavf-xatarlarni bartaraf etish va uning oldini olish masalasini ham chetlab o'tgani yo'q, ammo uning oldini olish omillaridan biri sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanish va energetika sohasini raqamlashtirish hisoblanadi. Shu o'rinda fikrimiz dalili sifatida raqamlarga murojaat qilsak. Respublika bo'yicha tabiiy gaz, elektr energiyasi va issiqlik sarfini raqamli texnologiyalar orqali boshqarish va nazorat qilish holati quyidagi rasmda keltirilgan.

Raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki, elektr energiyasi va tabiiy gazni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yuqori darajada amalga oshirilgan, ammo issiqlik sarfini hisobga olish masalasida amalga oshiriladigan ishlar mavjud. Ushbu holatdan kelib chiqib olib borilgan tadqiqot natijalarida issiqlik sarfini hisoblovchi "Smart Warm" qurilmasi yaratildi va amaliyotga joriy etildi (Sattarov et al., 2025).



Energiya resurslar iste'molini boshqarish va nazorat qilish.

Issiqlik sarfini hisoblovchi "Smart Warm" innovatsion raqamli qurilmasi yaratilishi natijasida qozonxona issiqlik ma'lumotlari bazasini onlayn to'plash va masofadan avtomatik elektron boshqarish imkoniyati orqali raqamli nazorat o'rnatish hisobiga yoqilg'i-energiya resursi talon-taroji va boshqa korrupsion omillarning oldini olish usullari yaratildi.

Mamlakat energetika xavfsizligini ta'minlashda, ayniqsa resurslardan noqonuniy foydalanish holatlarining oldini olishda energetika sohasi faoliyatini "korrupsiyasiz soha" sifatida samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoqilg'i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarini fosh etish uchun sinov tariqasida sun'iy intellektning joriy etilishi ham ushbu yo'nalishdagi muhim omillardan biridir.

Barchamizga ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish Inspeksiyasining asosiy faoliyat turi elektr energiyasi va tabiiy gazdan noqonuniy foydalanish holatlarining oldini olishdan iborat.

Jumladan, inspeksiya tomonidan o'tkazilgan reytd tadbirlarida 2024-yil va joriy yil 9 oyida 15 554 ta noqonuniy holatlar aniqlanib, qariyb 3,2 trln so'mlik zarar hisob-kitob qilingan.

Noqonuniy holatlar bo'yicha rasmiylashtirilgan dalolatnomalarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga elektron dasturlar orqali yuborish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Masalan, respublika bo'yicha eng kam energiya resurslaridan foydalanuvchi Andijon viloyatida 351 mlrd so'mlik noqonuniy holatlar fosh etilgan bir vaqtda, iste'moli jihatdan ancha yuqori bo'lgan Namangan va Qashqadaryoda bu ko'rsatkich ancha past.

Joriy yilning o'tgan davrida energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq 3 120 ta holatda 980 mlrd so'mga yaqin zarar aniqlangan.

Biroq huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan olib borilgan tergovga qadar tekshiruvda hisoblangan zarar miqdori 258 mlrd so'mga kamaygan.

Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha 980 ta holatda 79 mlrd so'mlik moliyaviy sanksiya qo'llanilgan.

